

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA INSTITUTI**

**Gidromelioratsiya fakulteti**

**Kafedra: "Ekologiya va suv resurslarini boshqarish"**

**ATROF MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI BAHOLASH**

5850300 "Ekologiya va atrof muhit muxofazasi"

bakalavriat yo'nalishi uchun

**TOSHKENT-2010 y**

**Mamatov S. A., Salohiddinov A. T., Yusupov G'. U., Xolmirzaeva M.I.**

## **ATROF MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI BAHOLASH**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Oliy o'quv yurtlari aro ilmiy-uslubiy birlashmalarini faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash tomonidan 5850300 "Ekologiya va atrof muhit muxofazasi" bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanmasi sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT-2010 y**

---

O'quv qo'llanmasi 5850300 "Ekologiya va atrof muhit muxofazasi" bakalavriat yo'nalishi talabalariga "Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirni baxolash" fanini o'qitishning amaldagi dasturiga mos holda tayyorlangan.

O'quv qo'llanmasida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baqolashning asosiy tushuncha va tamoyillari, asosiy elementlari, jarayonining bosqichlari, ta'sirlarni ko'lamini bashorat qilish va baxolash, ta'sirlarni baqolashni hujjatlashtirish va hujjatlar sifatini nazorat qilish, ta'sirlarni baholash va qarorlar qabul qilish, ta'sirlarni baholashning loyihadan keyingi bosqichlari, qishloq va suv xo'jaligi faoliyati natijasida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar va ularni kamaytirish yo'llari xamda boshqa mazkur fanga tegishli yo'nalishlar bo'yicha ma'lumotlar va ularni o'rgatish uslublari yoritilgan.

O'quv qo'llanmasi oliy o'quv yurtlari talabalari va soxa mutaxassislari uchun mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

1. O'zR Fanlar Akademiyasi "Suv muammolari" ilmiy tadqiqot instituti laboratoriya mudiri, professor Chembarisov I.Ch.

2. SANIIRI Ilmiy ishlab-chikarish birlashmasi bulim boshligi, katta ilmiy xodim Gapparov F.A.

**Mualliflar:** Mamatov S. A., Salohiddinov A. T., Yusupov G'. U., Xolmirzaeva M.I.

Учебное пособие подготовлено в соответствии с действующей программой обучения дисциплины «Оценка воздействия на окружающую среду» студентам направления бакалавриата - 5850300 “Экология и охрана окружающей среды”.

В учебном пособии освещены основные понятия и принципы, элементы, этапы процесса оценки воздействия на окружающую среду, методы оценки и прогноз масштабов воздействия на окружающую среду, Описаны методы и порядок проведения процесса оценки воздействия на окружающую среду с объяснениями каждого его разделов. В учебном пособии также приведена информация по основным видам воздействия сельского и водного хозяйства и путей и уменьшения. Учебное пособие содержит большой объем информации и позволяет освоить предмет на уровне современных требований.

Учебное пособие рассчитано для студентов высших учебных заведений и специалистов отрасли.

The textbook prepared according to requirements of curriculum and approved program of an Environmental Impact Assessment course to be taught to students of 5850300 - “Ecology and Environmental protection” underground degree program.

The textbook contains information on principles, methods and procedures of conducting of the Environmental Impact Assessment processes. Main elements, stages, documentation of EIA materials and quality control and all other main components of the Environmental Impact Assessment processes are described in the textbook. Special attention given to issues of Environmental Impact of Agriculture and Water Resources Management and ways of its combatting.

The textbook is designed for university students and experts.

## **Kirish. Inson faoliyatining ekotizimlarga ta'sirining tavsifi**

Inson yashayotgan va faoliyat ko'rsatayotgan tabiiy muhit o'zaro ta'sir va bog'liqlikda bo'lgan ekologik tizimlar kompleksidan tashkil topadi. har bir ekologik tizim o'zining aniq chegaralariga ega bo'lgan biogeotsenozlardan iboratdir. Ekologik tizimlarga o'rmon, okean, yer osti va usti suvlari manbalari, tuproq, aeratsiya mintaqasi jinslari, atmosfera va boshqalarni kiritish mumkin. Agar yer yuzasida va ichkarisida olib boriladigan inson faoliyati e'tiborga olinsa (masalan, insonlarning qishloq va suv xo'jaligi faoliyati) tabiat qo'ynida o'zgargan qonuniyatlar asosida rivojlanadigan yangi sun'iy ekologik tizim shakllanadi. Inson faoliyatining har bir turi, tabiiy sharoitga yoki aniqrog'i ekologik tizimga qo'shimcha yuk bo'lib tushadi (ekologicheskaya nagruzka) va uni o'zgargan qonuniyatlar bo'yicha rivojlanishiga, hamda tabiiy oqibatlardan farqli, ijobiy va salbiy ekologik oqibatlarga olib keladi.

Oqibatlar inson faoliyati ta'sirida ekotizimlarda (atrof-muhitda) kechadigan murakkab jarayonlarning natijasidir. Shu sababli ekologik baholash va ekspertiza tadbirlariga, nafaqat oqibatlarni turli xil jihatdan baholash va ekspertiza qilish nuqtai nazaridan qaramoq lozim, balki oqibatlarni yuzaga keltiruvchi turli xil yo'nalishdagi, tezlikdagi jarayonlarni har tomonlama tahlil qilish, o'rganish nuqtai nazardan qaramoq lozim. Masalan, turli kimyoviy tarkibli suvlarning aralashuvi, tuproq yoki tog' jinslari tarkibidagi turli xil tuzlarning erishi, yuvilishi va tashilishi, tog' jinslari tarkibidagi mayda zarralar va tuz birikmalarining kimyoviy va mexanik yuvilishi, tashilishi, sizot suvlari yuzasidan kapillyar mintaqa orqali aeratsiya mintaqasiga suvlarning sarfi, xarakati va bug'lanishi, tuproqlardagi sug'orish suvlarining xarakati, uni to'yintirilishi va tuzlarni yuvilishi va boshqalar.

Jarayonlarning ta'siri tabiiy muhitda nafaqat ekologik oqibatlarga balki iqtisodiy, ijtimoiy, injinerlik, sanitariya, jarayonlarning yo'nalishini o'zgartiruvchi ijobiy yoki salbiy oqibatlarga olib keladi.

Demak, oqibatlar bilan bir qatorda ularni yuzaga keltiruvchi (shakllantiruvchi) turli tabiatli murakkab jarayonlar ekologik jihatdan baholanadi va ekspertizadan o'tkaziladi. Inson inson shu jumladan har qanday mutaxassis tabiatning tuzilishini, u qanday qonunlar asosida mavjud va rivojlanishini, inson faoliyati ta'siridan qanday ta'sirlanishini, ekologik muvozanatni buzmaslik uchun tabiiy tizimlarga qanday chegaraviy yukni(ta'sir) yo'l qo'yish mumkinligini bilmasdan turib tabiatni muhofaza qila olmaydi va undan unumli foydalana olmaydi. Aynan shunday bilimlar asosida mutaxassis o'z o'rnida, inson faoliyati ta'sirida ro'yobga keladigan aksariyat salbiy oqibatlarni minimumga keltirishi, yo'qotishi yoki oldini olishi mumkin.

### Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini paydo bo'lish sabablari.

Insonning hayoti va faoliyati asrlar mobaynida tabiiy resurslaridan jadal foydalanish sharoitida ya'ni tabiat bilan o'zaro ta'sir sharoitida o'tgan. Qadimda insonning atrof muhitga ta'siri kichik masshtabda bo'lib uning

salbiy oqibatlari biosferaning o'z-o'zini boshqarishi (samoregulatsiya) qobiliyati hisobiga bartaraf etilgan. Shu sababli insoniyat oldida atrof-muhitda optimal rejimni saqlash va uni kamayib ketishdan muxofaza qilish xavfi deyarli tug'ilgan emas.

Hozirgi ilmiy-texnika revolyutsiyasi davrida insonning tabiat bilan o'zaro ta'siri jarayonida umuman boshqacha holat vujudga keldi. Inson faoliyatining barcha sohalarida ilmiy-texnik taraqqiyotning jadal rivojlanishi insoniyat oldida uni moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Ishlab chiqarish kuchlarini o'sishi bilan birgalikda tabiiy resurslardan jadal foydalanishga, bu esa atrof-muhitga chuqur va har tomonlama ta'sir qilinishiga olib keldi. Bunda paydo bo'luvchi texnologenez ko'p hollarda tabiiy muhitning barcha asosiy tarkibiy qismlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi, zaruriy yashash faoliyati va ishlab chiqarishning qulay rejimini buzadi.

Inson faoliyatining atrof-muhitga bugungi kundagi ta'sirining masshtabi va chuqurligini kuchli geologik jarayonlar bilan taqqoslashi mumkin. Rivojlanishning hozirgi bosqichida atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini keltirib chiqaruvchi quyidagi sabablarini ko'rsatish mumkin:

1. Aholi sonining keskin ortib borishi
2. Ilmiy- texnik revolyutsiya;
3. Tabiiy resurslardan katta miqdorda va tejamsiz foydalanish;

Atrof-muhit va inson o'rtasidagi murakkab o'zaro ta'sir jarayonlarini birgina O'rta Osiyo, xususan O'zbekiston sharoiti uchun suv xo'jaligi kompleksining rivojlanishi misolida ko'rib chiqish kifoya.

Markaziy Osiyo davlatlari xududi Orol dengizi havzasiga joylashgan va maydoni 740 ming km<sup>2</sup> ni tashkil qiladi. Havzaning tabiiy gidrografik tarmoqlari ikkita katta Amudaryo va Sirdaryo va uning ko'p sonli irmoqlaridan iborat. Xavzada sug'oriladigan yerlar maydoni sal kam 10 mln.ga. bo'lib, unda 4.3 mln.ga O'zbekiston hududiga to'g'ri keladi. O'zbekiston Respublikasi hududida 50 dan ortiq katta va kichik suv omborlari qurilgan, ularning suv sig'imi 18301,8 mln.m<sup>3</sup>, qoplagan maydoni 1124 km<sup>2</sup> dan ortiqdir. Orol dengizi havzasida ko'p sonli va turli darajadagi irrigatsion kanallar qurilgan. Bulardan tashqari mintaqa hududida 200549 km kollektor-zovur tizimlari ishlab turibdi. Zovur suvi oqimi sarfi respublikamiz hududida 21-23 kub km/yil ni tashkil etadi.

Suv xo'jaligi faoliyati atrof-muhitga kuchli va har tomonlama ta'sir etadi. Umuman olganda O'rta Osiyo Respublikalarining keng cho'l, saxro tekisliklarida daryo oqimining rejimi tubdan o'zgargan, yangi sun'iy gidrografik tarmoq vujudga kelgan va u regional tarzda gidrografik va landshaft sharoitini jiddiy o'zgartirgan. Amudaryo va Sirdaryo havzalarida 132,7 km<sup>3</sup> suv resurslari shakllanadi. Shulardan asosiy qismi qishloq xo'jaligida ishlatiladi. Yer usti suvi oqimlarini yirik magistral kanallar yordamida qayta taqsimlash, daryo vodiylarida yirik suv omborlari kaskadini ishlatish, yirik yer massivlarini sug'orilishini va boshqa

faoliyatlarning ta'siri atrof-muhitga regional tarzda ulkan kuchli texnogen yukni barpo qiladi, yer usti suvlari oqimining texnogen rejimini shakllanishiga olib keladi, yer osti va yer usti suvlari o'rtasidagi bog'lanishni buzilishiga olib keldi, texnogen gidrografik tarmoqlarini yaratilishiga va yerosti, yer usti suvlarining maydon bo'ylab ifloslanishiga olib keldi. Asosan kompleks texnogen jarayonlar ta'sirida suv xo'jaligi faoliyati olib boriladigan ulkan maydonlarda, suv xo'jaligi miqyosida texnogenez shakllandi.

Shu bilan bir qatorda, fan va texnikaning hozirgi zamondagi yutuqlarini qo'llash orqali shunday texnologik tizimlarni ishlab chiqish va tadbiq qilish mumkinki, natijada chiqindisiz yoki kam chiqindili ishlab-chiqarish ta'minlanadi. Bu esa so'zsiz, atrof-muhitning yuqori ekologik sifatini saqlashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan barcha ishlab-chiqarish sohalaridagi zamonaviy texnologik sxemalar, geologik va atrof muhitni saqlashni ta'minlaydigan kuchli dastak bo'lib xizmat qiladi.

Demak, aytish mumkinki insonlarning turli soxalarda olib boradigan faoliyatlari yer qobig'i yuqori qismining evolyutsion texnogen o'zgarishlariga olib keladi va umuman atrof-muhitni xolati va xususiyatini o'zgartirib boradi. Inson faoliyati esa atrof-muhitni o'zgartiruvchi geologik kuchga aylanadi.

#### Texnogenez shakllanishining nazariy asoslari.

Atrof-muhit muxofazasi muammosini keltirib chiqaruvchi sabablar ma'lum bo'lganidan, tabiatda kechadigan texnogen jarayonlarni chuqurroq anglash uchun asosiy ilmiy tushunchalar bulgan, atrof-muhit, yer biosferasi, geologik muhit, texnogen jarayonlar, atrof-muhitga bo'ladigan yuk xamda texnogenez tushunchalarining asosiy mazmunini yoritamiz.

#### A) Inson yashaydigan va ishlab chiqarish faoliyati yuritadigan atrof-muhit.

Umumiy tushunchalarga ko'ra, atrof-muhit inson yashaydigan va faoliyat yuritadigan tabiiy muhit xisoblanadi. Lekin xozirgi davrda insonning faoliyat yuritish qobig'i juda kengaydi va amalda planetamizni barcha geografik mintaqalarni egallab oldi va tabiiy atrof-muhit jiddiy o'zgarishlarga uchrab turadi va aksariyat o'zining biologik sifatini yomonlashtirib bordi.

Shu bilan bir qatorda atrof-muhitni, planetamizning biosferasi paydo bo'ladigan material (moddiy) muhit sifatida ko'rmoq lozim bo'ladi. Bu moddiy tizim bir – biri bilan bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lgan olti komponentli tizimdan tashkil topadi: -atmosfera-gidrosfera-litosfera (gidrogeosfera)-tuproq-xayvonot dunyosi-o'simlik dunyosi. Shu bilan bog'liq ravishda atrof-muhitni planetamizning ichki rivojlanish funktsiyasi sifatida qaramoq lozim. Atrof-muhitning bu komponentlari o'zaro yaqin bog'langan, doimo o'zaro ta'sirda bo'ladi va yagona yaxlit moddiy tizimni shakllantiradi. Inson faoliyati tomonidan bu tabiiy tizimga bo'ladigan xar qanday texnogen aralashuv, xar doim tabiatda tarixan shakllangan dinamik muvozanatni buzadi va atrof-muhitning xususiyatlariga salbiy yoki ijobiy ko'rsatadigan texnogen jarayonlarni shakllantiradi.

Inson xayotida va faoliyatida biosferaning uch planetar funksiyasi alohida rol o'ynaydi: 1) biologik unumdorlik barcha tirik jonni ozuqalanish mahsulotlari bilan ta'minlaydi; 2) erning yagona suv qobiqlari va atmosfera qobiqlarining gaz tarkibining optimal rejimi va balansi; 3) tabiiy biologik tozalash.

Biologik unumdorlikni ta'minlashda erning tuproq qobig'i alohida o'rin tutadi. Tuproq shunday faol muhitki, u inson, hayvonot va o'simlik dunyosi uchun zarur bo'lgan, barcha biomassani ta'minlaydi. Tuproq ma'lum bir darajada quruqlikda barcha jonzodlarni mavjudligini ta'minlaydi. Tuproq u yoki bu regionni gidrogeologik sharoitini shakllanishida muhim rol o'ynaydi, ya'ni yer osti suvlarini ozuqa olishida. Suvni yaxshi o'tkazuvchi aeratsiya mintaqasi tuproqlari orqali atmosfera yog'inlari oson sizib o'tadi va yer osti suvlari yuzasiga shimilib etib boradi. Tabiatda kechadigan jarayonlarni shakllanishida tuproqning ahamiyati katta bo'lganligi uchun, uni atrof-muhitining alohida muxim komponenti sifatida ajratishni lozim deb hisoblanadi.

Atrof-muhitni shakllanishida erning yagona suv qobig'ining rejimi va balansi alohida o'rin tutadi. Bu qobiq atmosfera suvlaridan, yer usti va osti suvlaridan tashkil topadi va bir-biri bilan bog'liq, global suvning aylanma xarakatida qatnashadi. Tabiatda suvni aylanma xarakati jarayonida litosferaning yuqori qismida tarqalgan yer usti va osti suvlarining shakllanishi va tiklanishida xal qiluvchi rol o'ynaydi. Yerda suvni aylanma xarakatida atmosfera muhim o'rin tutadi. Aslida bu global jarayon planetamizda, inson, atrof-muhit va biosfera uchun nihoyatda qimmatli chuchuk suv resurslari bilan ta'minlaydi.

Gidrosfera erning suv qobig'ini tashkil etadi va planetamizning 71% maydonini qoplaydi. Okean, dengiz va daryo suvlari tabiatdagi aylanma xarakatdagi qatnashadigan suvlarning asosiy qismi va fauna, flora rivojlanadigan asosiy muhit hisoblanadi. Shunday qilib gidrosfera, inson yashaydigan va ishlab-chiqarish faoliyatini yuritadigan muxim komponent hisoblanadi. Planetamiz ostida, suv qobig'ining, barcha yer osti suvlari qatlamlarini o'z ichiga olgan, yer osti qismi gidrogeosfera joylashgan.

Gidrogeosfera kesimining yuqori qismida, yer osti suvi oqimlari faol bo'lgan qismida-asosan chuchuk yer osti suvlari shakllangan va tabiatdagi suvning aylanma xarakatida faol qatnashadi. Yer osti suvlari tarqalgan asosiy maydonlarda, yer osti suvlari tog' jinslari, tabiiy gazlar va mikroorganizmlar bilan birgalikda geologik muhitning gumid va arid turlari tarqalgan.

Abadiy muzlik jinslari yaxlit (butun) tarqalgan maydonlarda yer osti suvlari qattiq holatda tarqalgan. Ulardan pastda ko'pincha yuqori minerallashtirilgan suyuq yer osti suvlari tarqalgan. Bu maydonda geokriologik turdagi geologik muhit shakllanadi.

Gidrogeosferaning yana bir muhim jihati shundaki, yer osti suvlari faqat tog' jinslari bilan emas, balki tabiiy gazlar bilan xam bog'liq. Ma'lumki planetamizda doimiy ravishda gaz kamayish jarayoni sodir bo'layapti.



Gidrogeosferaning yuqori qismida yer osti suvlarida tabiiy gazlardan kislorod, azot va ozroq serovorod gazlari ko'proq uchraydi.

Shunday qilib, tabiiy, jumladan yer osti suvlari atrof-muhitining tarkibiy qismini tashkil qiladi va inson xayotida va faoliyatida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Yer osti suvlari bilan bog'liq yana bir muhim jixat, tuproq qatlamidagi tarqalgan suvlarning mavjudligidir (suv bug'i, tuproq va tog' jinslarining namligi, tuproq suvlari) Ular xam atrof muhitni shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Bu suvlarsiz tuproq qatlamida tirik jonzotlar bo'lmaydi.

Shunday qilib, inson yashaydigan va ishlab-chiqarish faoliyati yuritadigan atrof muhit-aniq ifodalangan va o'ta xarakatchan dinamik tizimni tashkil qiladi, uning asosiy tarkibiy qismlari (komponentlari) doimo o'zaro bog'liqlikda rivojlanadi. qonuniyatlarni buzilishi, insonning faoliyatlari ta'sirida yuzaga keladi va xar doim atrof-muhitni holatini va xususiyatini o'zgarishiga olib keladi.

#### Atrof muhitga texnogen yuk.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi jarayonida litosferaning yuqori qismini evolyutsion o'zgarishini baxolashda, bashoratlashda "atrof muhitga bo'ladigan texnogen yuk" tushunchasi muxim o'rin tutadi. Aynan texnogen yuk geologik muhitning tabiiy xususiyatlari bilan birgalikda, injenerlik tizimlarini loyixa qilishning dastlabki (boshlang'ich) bosqichlarida (tog'-kon, qishloq va suv xo'jaligi, gidrotexnik, shaxar qurilishi va boshqalar) texnogen jarayonlarning umumiy yo'nalishini va atrof-muhitga ularning salbiy ta'sirini belgilab beradi.

Bu ilmiy tushunchani sifat toifalari inson faoliyatining umumiy yo'nalishi mazmuni bilan aniqlanadi. Masalan, yer yuzasida fuqaro va sanoat qurilishi asosiy texnogen yuk ta'sirini geologik muhitning asosiy komponenti bo'lgan tog' jinslari boshidan kechiradi. Shu sababli injenerlik inshootini barqarorligini ta'minlash maqsadida inshoot zaminida joylashgan tog' jinslarining fizik – mexanik xususiyatlari baxolanadi xamda bu inshootlarni ekspluatatsiya qilishda rivojlanadigan texnogen jarayonlarni rivojlanishini bashorat qilanadi. Masalan, erlarni zax bosishini yoki sho'rlanishini.

Xuddi shunga uxshash, misolni O'zbekiston sharoiti misolida ko'rmoqchi bo'lsak, suv va qishloq xo'jaligi kompleksi ta'sirida ulkan texnogen yuk atrof-muhitga, xususan geologik muhitga ta'sir ko'rsatadi. Bu ta'sirlar atrof-muhitining asosiy komponentlari bo'lgan tuproqlarda, tog' jinslarida, yer osti va yer usti suvlarida keskin o'zgarishlar ro'y beradi, erlarni gidrogeologik – meliorativ xolatini o'zgartiradi, tabiiy sharoitini buzadi va nixoyat turli masshtabdagi salbiy texnogen jarayonlar sodir bo'ladi.

Kompleks xarakterdagi ulkan texnogen yuklarning sifat ko'rsatgichlarini baxolash, texnogen jarayonlarning umumiy yo'nalishini aniqlashga, ularni salbiy ta'sirini va atrof-muhitni ximoya qilish choralarini aniq topishga va tadqiqotlarining mazmunini tanlashga imkon beradi.

Texnogen yukni aniqlash bilan birgalikda injenerlik faoliyatini atrof-muhitga ta'sirini ifodalaydigan mikdoriy ko'rsatgichlarni baxolash juda muhimdir.

### Texnogen jarayonlar.

Xar bir ijtimoiy jamiyat o'z ishlab-chiqarish kuchlarini rivojlantirish uchun tabiiy resurslardan foydalanadi. Tabiiy resurslar bu faqat ma'danlar, o'simlik, xayvonot dunyosi, tuproq, suv emas, balki inson yashaydigan va faoliyat ko'rsatadigan yer qobig'ining yuqori qismi xisoblanadi.

Savol paydo bo'ladi, insonning injenerlik va xo'jalik faoliyati yuritadigan tabiiy muhitda qanday jarayonlar yuz beradi?

Gidrogeologik, meliorativ, injener-geologik sharoitlarining texnogen o'zgarishlari ro'y beradi va atrof-muhit yangi xolat va xususiyatga o'tadi.

Bu turli yo'nalishdagi texnogen jarayonlarning shakllanish mexanizmini o'rganish, ularning tabiatini o'rganish, ularni atrof-muhitga ta'sir darajasini baxolash - ya'ni jarayonlarning salbiy ta'sirini oldini olish yoki maksimal chegaralashni o'rganish orqali chora-tadbirlar qo'llash barkeror iktisodiy tarakkiyotning asosiy shartlaridan biridir.

Texnogen jarayonlar deyilganda, yer qobig'ining yuqori qismida, tabiiy resurslarni qo'llashga yo'naltirilgan, turli xil injenerlik faoliyati ta'sirida, shakllanadigan yoki sodir bo'ladigan jarayonlar tushuniladi. Bularga gidrotexnik, irrigatsion, meliorativ inshoatlarni ekspluatatsiya qilishda namoyon bo'ladigan gidrogeologik-meliorativ, injener-geologik, gidrokimyoviy texnogen jarayonlarni kiritish kerak. Bu jarayonlar atmosfera, gidrosfera, gidrogeosfera, tuproq muhitida sodir bo'ladilar.

Xuddi shunday texnogen jarayonlar kompleksi mexanizmi sug'orilayotgan massivlarda kuzatiladi. Kuchsiz tabiiy drenalangan erlarda sug'orish suvlaridan bo'ladigan infiltratsiya natijasida sizot suvlari satxi qo'shimcha ozuqa oladi va sizot suvlari jadal ko'tarila boshlaydi va erlarni botqoqlanishiga olib keladi va sizot suvlari bug'lanadi. Oqibatda , o'zgargan, buzilgan gidrokimyoviy rejim barpo bo'ladi, sizot suvlarining minerallasganligi oshadi va tuproqlarda qayta sho'rlanish ro'y beradi. hamda injener geologik muhitni yomonlashtiradigan, atrof-muhit paydo bo'ladi. Masalaga kengroq qaralsa, atrof-muhitdagi o'zgarishlar yakka ta'sirdan emas, balki kompleks texnogen ta'sirlar ostida sodir bo'ladi. Bu jarayonlar yer qobig'ining yuqori qismida, turli-tuman, turli ko'lamda bo'ladilar, ular xarakteri va shakllanishi sharoiti jihatdan gidrogeologik, meliorativ-tuproq, injener-geologik jarayonlardir.

Atrof-muhitga ta'sirning xarakteri bo'yicha texnogen jarayonlar ijobiy va salbiy bo'ladilar. Ijobiy jarayonlarga saxro xududlarini gullagan voxalarga sug'orish natijasida aylanishini, yirik irrigatsion kanallarni ekspluatatsiya qilish natijasida ularning ostida chuchuk suv resurslarini ortishini va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Ammo, atrof-muhitga bo'ladigan texnogen ta'sirlar natijasida sodir bo'ladigan jarayonlar, aksariyat salbiy jarayonlar, texnosferada jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi-ya'ni atmosfera havosi ifloslanishi, tuproq tarkibi

buzilishi, yer osti suvlari ifloslanishi, yer usti suvlari sifati buzilishi, hayvonot va o'simlik olamining ayrim turlarini yo'qolishi va oqibatda erning atmosfera, gidrosfera, gidrogeosfera, biosferasida ekologik muvozanat buzilishiga sabab bo'ladi.

Inson faoliyati ya'ni, texnogen yuk ta'sirida tabiiy muhitda global va lokal ekologik o'zgarishlar ro'y beradi. Demak, ekologik baxolash jarayonining asosiy ob'ekti bo'lib insonning turli-tuman faoliyati (texnogen yuk) ta'sirida sodir bo'ladigan jarayonlar va ular keltirib chiqaruvchi oqibatlar hisoblanadi. Odatda ekologik baxolash va ekspertiza o'tkazish jarayonida ko'proq salbiy oqibatlarga e'tibor beriladi. Agar e'tibor faqat inson faoliyati natijasida kelib chiqadigan salbiy oqibatlar bilan cheklansa, baxolash jarayonini to'laqonli o'tkazildi deb bo'lmaydi, ya'ni salbiy oqibatni keltirib chiqaruvchi salbiy jarayon ochib berilmaydi, asosiy keltirib chiqaruvchi sababi isbotlanmaydi, va muammo bir tomonlama echiladi. Shu sababdan ekologik baxolash va ekspertiza, salbiy oqibatlarga olib keluvchi jarayonlarni sinchiklab o'rganish va u keltirib chiqargan salbiy oqibatlarni inobatga olishdan tashkil topishi kerak. quyidagi 1-jadvalda atrof-muhitga bo'ladigan ayrim texnogen faoliyatlarning turlari, ularning ta'sirida sodir bo'ladigan ekologik jarayonlar va ularning ta'sirida sodir bo'ladigan salbiy oqibatlarning shakllari keltirilgan.

1-jadval

<b>№</b>	<b>Texnogen yuk</b>	<b>Texnogen jarayonlar</b>	<b>Atrof-muhitga texnogen ta'sirlarning shakllari (oqibat).</b>
1.	Yirik massivlarda sug'orish ishlari.	1.Sug'orish suvlari infiltratsiyasi. 2.Aeratsiya mintaqasi tuzlarining yuvilishi. 3.Aeratsiya mintaqasi tuproq va tog' jinlarini o'zgarishi. 4.Sizot suvlari sathining ko'tarilishi. 5.Sizot suvlari kimyoviy tarkibini o'zgarishi. 6.Sizot suvlari satxidan bug'lanish. 7.Sizot suvlari kapillyar hoshiyasidan aeratsiya mintaqasiga suvning sarflanishi. 8.Sizot suvlari tuz kontsentratsiyasining ortishi yoki kamayishi. 9.Tuproqlarda tuz	1.Erlarni botqoqlanishi . 2.Tuproqlarni sho'rlanishi yoki tuz to'planishi. 3.Erlarni ekologik sharoiti o'zgarishi. 4.Suffoziya va karst hodisalari ro'y berishi 5.Yerlarni cho'kishi va o'pirilishi. 6.Yer osti suvlarini katta maydonlarda ifloslanishi. 7.Yerlarning reliefi o'zgarishi 8.Sug'orish maydoni ostida chuchuk suv qatlamini shakllanishi 9.Sizot suvlarini katta maydonlardagi ifloslanishi. 10.Aeratsiya mintaqasi

		<p>to'planishi.</p> <p>10. Azot, fosfor, kaliy va kompleks o'g'itlarni tuproqlardagi miqdori o'zgarib turishi.</p>	<p>tuproq va jinslarining namligi darajasi ortishi</p> <p>11. Sizot suvlarida o'zgargan texnogen rejimlar barpo bo'lishi</p> <p>12. Daryo suvlari dalalardan tashlanadigan oqava suvlar hisobiga ifloslanishi</p>
2.	Irrigatsion va magistral kanallar	<p>1. Kanal suvlarining infiltratsiyasi va filtratsiyasi.</p> <p>2. Sizot suvlarining satxini ko'tarilishi.</p> <p>3. Kanalning ta'sir mintaqasida sizot suvlari satxi va bosimini o'zgarishi.</p> <p>4. Kanallar atrofida chuchuk suv linzalarini shakllanishi.</p> <p>5. Asosdagi va muhitdagi tog' jinslarini fizik xususiyatlarini o'zgarishi.</p> <p>6. qirg'oqdagi tog' jinslarini yuvilishi.</p>	<p>1. Yerlar botqoqlanishi.</p> <p>2. Tuproqlarni sho'rlanishi.</p> <p>3. Chuchuk suv linzalari konlari hosil bo'lishi.</p> <p>4. Yer osti suvlari resurslari ortishi.</p> <p>5. qirg'oqlar cho'kishi, yuvilishi va qulashi.</p>
3.	Kollektor-zovur va vertikal zovur tizimlari.	<p>1. Sizot suvlari sathini pasayib borishi.</p> <p>2. Tuproqlarda tuz yuvilish jarayonini kechishi.</p> <p>3. Zovur suvlari sarfi ortib borishi.</p> <p>4. Sug'oriladigan tuproqlarda meliorativ holat yaxshilanib borishi.</p> <p>5. Suvli qatlamlarda suv almashinuvi ro'y berishi va gidrodinamik muvozanat buzilishi.</p> <p>6. Suvli qatlamlarda suffoziya va karst jarayoni sodir bo'lishi.</p> <p>7. Minerallashgan suvlarni chuchuklashishi</p> <p>8. Kollektor-zovur suvlarining daryolarga tashlanishi natijasida daryo suvlari ifloslanib borishi.</p>	<p>1. Sug'oriladigan erlarning tuzi yuviladi.</p> <p>2. Yerlarni umumiy gidrogeologik-meliorativ holati yaxshilanib boradi.</p> <p>3. Sug'orish dalalarning reliefi o'zgaradi.</p> <p>4. Suffoziya jarayonlari ta'sirida karst, cho'kish, o'pqqonlar hosil bo'ladi.</p> <p>5. Texnogen-buzilgan irrigatsion rejimlar barpo bo'ladi.</p> <p>6. Kollektor-zovur qirg'oqlari atrofida cho'kish, qulash, surilish va loyqa bosish hodisalari ro'y beradi.</p> <p>7. Yer usti suvlari, xususan daryo suvlari kollektor-zovur suvlarini tashlanishi hisobiga</p>

			ifloslanadi.
4.	Suv omborlari.	<p>1.Suv omborlaridan filtratsiyaga yo'qotish (filtratsiya) jarayoni.</p> <p>2.Filtratsiya ta'sirida yer osti suvlari sathini intensiv ko'tarilishi.</p> <p>3.Suv omborlari qirg'oqlari surilishi, qulashi</p> <p>4.Tog' jinslarini fizik-mexanik xossalari o'zgarib borishi.</p> <p>5.Injenerlik inshootlarining deformatsiyasi.</p> <p>6.Yer osti va usti suvlar orasidagi bog'lanish buzilishi.</p> <p>7.To'g'on asosida rivojlanadigan suffoziya jarayoni.</p>	<p>1.Sug'oriladigan maydonlarda botqoqlanish ro'y beradi.</p> <p>2.Suv resurslari ortadi.</p> <p>3.Sug'oriladigan maydonlarda tuproqlar sho'rlanadi va meliorativ holat yomonlashadi.</p> <p>4.Mavjud injenerlik inshootlari asoslarini suv bosadi, inshootlar deformatsiya beradi va buziladi.</p> <p>5.Oqim sarflari ortadi.</p> <p>6.To'g'onlar, suv ombori va atrofdagi erlar cho'kadi.</p> <p>7.Sanoat-fuqaro inshootlari fundamentlarini suv bosadi, atrof-muhitni sanitar holati buziladi.</p>
5.	Yirik suv tortib oluvchi inshootlar kurilishi	<p>1.Yer osti suvlari depression egri chizig'ining pasayib borishi.</p> <p>2.qatlamlar orasidagi gidravlik munosabatni o'zgarishi va turli xil tarkibli suvlarning aralashuvi.</p> <p>3.Suv tortib oluvchi inshootlardan turli masofada joylashgan ifloslangan va minerallashgan suvlarning tortilishi.</p> <p>4.Yer osti suvlari kimyoviy tarkibini o'zgarib borishi.</p> <p>5.quduqlar atrofi qatlamlarida mexanik va kimyoviy suffoziya jarayoni.</p> <p>6.Bosimli qatlamlarda bosimni pasayishi.</p>	<p>1.Yer osti suvlari ifloslanadi.</p> <p>2.Yer osti suvlari zahiralari kamayib boradi.</p> <p>3.Karst hodisasi ro'y beradi, yerlar cho'kadi va relief o'zgaradi.</p> <p>4.Sug'orish maydonlar atrofida zaharli moddalar quduq tomoniga tortiladi. Kimyoviy va bakteriologik ifloslanish kuzatiladi.</p>
6.	Yirik industrial shaharlar	1.Sizot suvlarining keng maydon bo'ylab ifloslanishi.	1.Shaxar hududlarini suv-zax bosadi, botqoqlanadi.

		<p>2.Sizot suvlarini satxini maydon bo'ylab ko'tarilishi, bosimi va o'zaro nisbati o'zgarishi.</p> <p>3.Sizot suvlarini kuduklarda ko'tarilishi va ifloslanishi.</p> <p>4.Yangi texnogen o'ziga xos rejimni shakllanishi.</p> <p>5.Ko'p sonli suv tortib oluvchi quduqlardan suvni tortib olish rejimi o'zgarib turishi.</p> <p>6.Suvli qatlam va gruntlarining fizik-mexanik xossalarini o'zgarishi</p> <p>7.Yer usti suvlari havzalari ifloslanishi.</p> <p>8.Yirik suv oluvchi inshootlari bilan ifloslangan yer osti va usti suvlari tortilishi.</p> <p>9.Suvli qatlamlar, aeratsiya mintaqasi tog' jinslari va tuproqlarida zararli tuzlar, pestitsidlar va zararli moddalar to'planib borishi.</p> <p>10.Suvli qatlamlar, aeratsiya mintaqasi tog' jinslarida modda almashinuvi jarayoni ro'y berishi, yangi tuz kompleksi hosil bo'lishi, yuvilishi.</p>	<p>2.Yer yuzasi reliefi o'zgaradi, cho'kadi, so'riladi, inshootlar deformatsiya beradi, inshootlar buziladi.</p> <p>3.Suvli qatlamlarda suffozion-karst, surilish hodisalari ro'y beradi.</p> <p>4.Yer osti kommunikatsiyalari buziladi.</p> <p>5.Yer osti suvlari zahiralarning miqdori o'zgaradi va ifloslanadi (kimyoviy, biologik).</p> <p>6.Xalq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy holatiga zarar etadi.</p> <p>7.Asos jinslarining deformatsion va mustahkamligi darajasi uzgaradi</p>
7.	Sanoatlashtirilgan chorva mollari ob'ektlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash.	<p>1.Komplekslardan chiqadigan oqovalar ta'siridan yer osti suvlari ifloslanadi.</p> <p>2.Oqovalarni tashlanishi oqibatida yer usti suvi havzalari ifloslanadi.</p> <p>3.qayta ishlangan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda chiqindilar ta'siridan tuproqlar, tog' jinslari va yer osti suvlari ifloslanadi.</p>	

1. Asosiy tushunchalar.
2. Atrof muhit – Inson faoliyati amalga oshiriladigan tashki muhit. Bunga atmosfera xavosi, suv resurslari, yer va boshqa barcha tabiiy resurslar, jumladan flora va fauna, moddiy ob'etlar, inson va ularning uzaro ta'siri kiradi.
3. Rejalashtirilgan xujalik yoki boshka turdagi faoliyat - Atrof muhitga ta'sir etishi mumkin bulgan va uni amalga oshirish uchun konunda belgilangan tartib asosida mutasaddi organ tomonidan karor kabul kilinishini talab kiluvchi xar kandy faoliyat yoki faoliyatning o'zgarishidir. Bu kontseptsiyalar ishlab chikish, sotsial-iktisodiy rivojlanishning (ma'muriy tuzilma, xalk xujaligi tarmogi va x.o. uchun) istikbolli dasturi va rejasini yaratishni xam o'z ichiga oladi.
4. Ta'sir - Rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof muhit xolatida uzgarish keltirib chikaruvchi yoki unga sabab buluvchi xar kandy jixatlaridir. Ta'sir odamlarning sogligi va xavfsizligi, flora, fauna, tuprok, atmosfera xavosi, suv resurslari, iklim, landshaft, tarixiy obidalar va boshka moddiy ob'ektlar xolati yoki mazkur omillar orasidagi o'zaro bogliklik xamda ularning madaniy meros yoki ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish va boshka sharoitlarda ko'rinadigan o'zgarish natijasidir.
5. Atrof muhitga bo'ladigan ta'sirni baxolash (AMTB) –rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish tugrisidagi karorni kabul kilishdan oldin utkazilishi shart bulgan va ekologik bezarar boshkaruv karorlarini kabul kilishga yordam beradigan jarayondir.
6. Jamoatchilik ishtiroki –jamoatchilikni rejalashtirilayotgan faoliyat va uning atrof muhitga kursatadigan extimoliy ta'siri tugrisilda xabardor kilish xamda AMTB jarayonida jamoatchilik fikrini e'tiborga olish maksadida amalga oshiraladigan tadbirlar majmui.
7. Ishtirokchilar –AMTB jarayonida ishtirok etadigan jismoniy va yuridik shaxslar.
8. Ekologik monitoring –Atrof muhitni muxofaza kilish va tabiiy resurslardan foydalanish maksadida karor kabul kilishni ta'minlash uchun xizmat kiladigan atrof muhit xolati va antropogen ta'sirni kuzatish, baxolash va bashorat kilish xamda ekotizimlarda kechadigan uzgarishlar tendentsiyalarini aniklash tizimi.
9. Loyixadan keyingi taxlil –Uz vaktida tuzatish kiritish va AMTB jarayonini takomillashtirish maksadida rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish jarayonida (kurilish, ekspluatatsiya va buzish) amalga oshirish kuzda tutilgan tadbirlarning samaradorligini urganishga yunaltirilgan kompleks tadbirlar
10. AMTB materiallari –rejalashtirilgan faoliyatning atrof muhitga kursatadigan ta'sirini baxolash natijasida tayyorlangan xujjatlar majmui.

AMTB jarayonini utkazishdan maksad – rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof muhitga shu bilan birga sotsial iktisodiy va boshka soxalarga kursatadigan salbiy ta'sirini va uning okibatlarini minimallashtirish imkoniyatlarini aniklashdir.

# 1 – BOB ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASHNING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOYILLARI

## 1.1. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tushunchasi mohiyati

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik oqibatlarini tizimli ravishda tahlil qilish va baholashni, manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarni, tahlil va maslahatlashuvlar natijalarini mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish, loyihalash, tasdiqlash va amalga oshirishda hisobga oluvchi jarayondir.

— Mazkur ta'rifga muvofiq atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash:

— baholash natijasida olingan oddiy ma'lumotlar yoki hujjatlargina bo'lib qolmay, balki butun bir jarayondir;

ma'lum bir qoidalarga amal qiluvchi tizimli jarayondir;

mo'ljallangan faoliyatning faqat rejalashtirish boskichlari bilan chegaralanmaydi, balki ushbu faoliyatni amalga oshirish boskichlarini ham o'z ichiga oladi.


Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni:

mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga bo'ladigan potentsial ta'sirlarini tahlil (bashorat) qilish va ularni e'tiborga molikligini baholashni;

barcha uchun maqbul bo'ladigan qarorlarni izlash maqsadida manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashishni;

mo'ljallanayotgan faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qilish jarayonida ta'sirlarni bashorat qilish va maslahatlashuvlar natijalaridan foydalanish kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Uni sxema tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:



Ko'pincha, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning odatiy sxemalarida ushbu tarkibiy qismlar jarayonning ketma-ket keluvchi bosqichlari sifatida qaraladi. Ushbu jarayon ta'sirlarning bashorati, uning natijalarini manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish va mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish borasidagi qarorlarni bashorat va muhokama qilish natijalarini hisobga olgan holda qabul qilishni o'z ichiga oladi. Lekin bunday «chiziqli» modelga mahkam yopishib olish yaxshi samara bermaydi va unga amalda rioya qilinmaydi. Masalan, atrof-muhitga faoliyat natijasida bo'ladigan ta'sirlarni aniqlash yoki faoliyatning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash zaruriyati bor-yo'qligini



aniqlash davridayoq jamoatchilik bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish yaxshiroq samara beradi. Shuning uchun AMBTB tarkibiy qismlariga izchil ketma-ket keladigan bosqichlar sifatida emas, balki AMBTB jarayonining zaruriy qismlari sifatidagina yondoshish lozim.

## **1.2. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tamoyillari**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni o'tkazishning turli mamlakatlardagi tartiblari faoliyatning qaysi turlari uchun AMBTB o'tkazilishi, uni kim o'tkazishi, uning natijalari qanday qarorlarda va qay tarzda hisobga olinishi kabi jihatlari bilan bir-biridan farq qiladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalarini qarorlar qabul qilishda hisobga olishning majburiylik darajasi ham turli mamlakatlarda turlichadir. Lekin ushbu turlichalikka qaramay barcha joylarda AMBTBning samarali tizimi uchta asosiy tamoyilga amal qiladi. Bular **birlamchilik, komplekslik va demokratiklik** tamoyillaridir.

**Birlamchilik tamoyiliga** ko'ra, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash ishlari mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish yuzasidan asosiy qarorlar qabul qilinguniga qadar o'tkaziladi, hamda uning natijalaridan qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda foydalaniladi. qabul qilingan qarorlar oqibatini tahlil qilish AMBTB vazifasiga kirmaydi.

Birlamchilik tamoyiliga asosan, AMBTBni nafaqat mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish mumkinligi borasida qarorlar qabul qilingunga qadar, balki faoliyatning loyihasi to'g'risidagi asosiy qarorlar chiqarilishidan oldinoq o'tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini tahlil qilish birlamchilik tamoyiliga amal qilishning eng muhim yo'llaridan hisoblanadi. Mazkur faoliyat maqsadiga etishish yo'lida faoliyatni amalga oshirishning bir necha muqobil variantlarini ko'rib chiqish va ularni taqqoslash, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari bo'yicha qarorlarni erkin qabul qilinishiga imkoniyat yaratadi.

**Komplekslik tamoyili** mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sirilarining barcha omillarini hisobga olish va ularni ta'sirlar natijasida tabiiy muhitning barcha komponentlari (havo, suv va tuproq), shuningdek ijtimoiy muhitda yuz beradigan o'zgarishlar bilan birgalikda ko'rib chiqishni nazarda tutadi. Bu tamoyil tabiiy muhitni komponentlarga bo'liish asosida real muhitni tasavvuriy soddalashtirishga asoslanadi. Aslida esa biz jamiyat bilan uzviy bog'liq hisoblangan yagona tabiiy tizimga egamiz. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning vazifasiga nafaqat tabiiy muhit ayrim komponentlarining «standart va me'yorlar»iga qanchalik rioya qiliniyotganligini nazorat qilish, balki mo'ljallanayotgan faoliyatning ta'siri oqibatida umuman tabiiy-ijtimoiy tizim qanday javob berishini tushunish ham kiradi.

Mo'ljallangan faoliyatning turli ta'sirlarini bir ish tartibi doirasida ko'rib chiqilishi, hamda ular haqidagi ma'lumotlarni yagona hujjatda tasvirlanishi komplekslilik tamoyilining amaldagi ifodasidir.

AMBTB jarayonining ilmiy-texnik tadqiqot bo'lmay, balki maqbul qarorlar qabul qilish vositasi ekanligi demokratiklik tamoyilining ifodasidir. Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga bashorat qilinayotgan ta'sirlari cheklanmagan miqdordagi odamlar va tashkilotlarning manfaatiga dahl qiladi, ular ko'pchiligining esa mazkur faoliyatga nisbatan hech qanday rasmiy aloqasi yo'q. Bunday holatda turli ko'rinishdagi ruxsatnoma, litsenziya va loyihalashtirish me'yorlari tomonlarning manfaatlarini himoya qilish vositalari bo'lib xizmat qilishi mumkin. Demokratiklik tamoyili esa qarorlarni qabul qilish jarayonida manfaatdor tomonlarning bevosita ishtirok etishi huquqini tan olinishi lozimligini nazarda tutadi. Shunday qilib, demokratiklik tamoyiliga asosan barcha manfaatdar tomonlar AMBTB jarayonida ishtirok etish imkoniyatlariga ega bo'lishlari va ularning fikri xulosani ishlab chiqish va AMBTB natijalaridan foydalanishda ekspertlarning xulosalari bilan bir qatorda hisobga olinishi lozim.

Demokratiklik tamoyilining yana bir muhim jihati shundaki, manfaatdor tomonlarning ishtirokini ta'minlash uchun AMBTB barcha ishtirokchilar uchun ma'lum va tushunarli qoidalarga muvofiq o'tkazilishi majburiydir, ya'ni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning reglamentli ish tartibi hamda mazkur ish tartibi doirasida jarayon qatnashchilarining huquq va burchlari aniq belgilangan bo'lishi lozim.

Odatda nodemokratik AMBTB protseduralari, qarorlar qabuli yopik xolda amalga oshiriladiganda «Texnokratik» tartibga qarama – qarshi ko'yiladi. Bunday tizimlarda, mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri aksariyat ilmiy texnik xarakterga ega deb qabul kilinadi va uni ko'rib chiqishda ekspert fikri asosiy deb hisoblanadi va qaror qabul kiluvchi mutaxassis fikri asosiy deb hisoblanadi. qarorlar qabul qilishda demokratiklik tamoyiliga amal qilinmasligi, jarayonning yopiqligi bunday tizimlarda qarorlar norasmiy muzokara va kelishuvlar asosida, ayrim nufuzlik manfaatdor tomonlarning bosimi ostida qabul qilinishiga olib keladi. Oqibatda AMBTBning rostmanaligiga putur etkaziladi.

### **1.3. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti**

Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti hisoblanadi.

**Ta'sir deganda mo'ljallanayotgan faoliyatning amalga oshirilishi oqibatida atrof-muhitda to'liq yoki qisman sodir bo'ladigan o'zgarishlar tushuniladi.**

Ta'sirlar bashoratlari va ushbu ta'sirlarni yumshatish uchun bajarilishi lozim bo'lgan tadbirlarni ishlab chiqish AMBTB jarayonining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tizimli tabiati ayrim muhit va ta'sir manbalari uchun belgilangan standartlar yordamida hisobga olinishi mumkin bo'lmagan to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatilmaydigan va yig'ilib boruvchi xususiyatga ega ta'sirlarni ham aniqlash imkonini beradi. Boshqa tarafdin esa bunday tizimli tahlil va uning natijasini amaliyotda qo'llash

mumkin bo'lishi uchun AMBTB muhim va asosiy ta'sirlarga yo'naltirilishi lozim. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash doirasidagi ta'sirlar nafaqat fizik miqdorlar, balki ularni jamiyatdagi ayrim ijtimoiy guruhlar va fuqarolar uchun ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan ham ko'rib chiqilishi lozim.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash kontekstida atrof-muhit deganda nima tushuniladi? AMBTB jarayonida ko'rib chiqish predmeti sifatida birinchi navbatda atrof-muhitga, ya'ni tabiiy muhit, atrof-muhitning komponentlari, landshaft kabilarga bo'ladigan ta'sirlar tan olinadi. Tarixiy-madaniy qadriyatlar AMBTB jarayonida ko'pchilik hollarda ko'rib chiqilsa, mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri bilan u yoki bu darajada bog'liq bo'lgan tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlari AMBTB jarayonida doimo ko'rib chiqiladi.

Atrofdagi tabiiy muhit sifatining yomonlashuvi mahalliy aholi sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi va ijtimoiy (masalan, rekreatsiya imkoniyatlari qisqarishi oqibatida hayot kechirish sifatining yomonlashuvi) hamda iqtisodiy (masalan, ko'chmas mulklar narxlarining pasayishi) xarakterdagi oqibatlarga olib keladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash davomida bunday oqibatlarni ko'rib chiqish, hatto buning uchun qonuniy asoslar bo'lmagan taqdirda ham, o'ta muhimdir. Shuning uchun ham AMBTB ta'sirlarni jamiyat, fuqarolar va ularning ayrim guruhlari uchun ahamiyatli ekanligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqishi lozim. AMBTB doirasida atrof-muhit va ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bo'ladigan ta'sirlarni alohida alohida qilib ajratib ko'rsatish ancha murakkab hisoblanadi. Shuning uchun hozirgi kunda ijtimoiy-iqtisodiy muhitga bo'ladigan ta'sirlar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarning ajralmas qismi bo'lishi lozimligi to'g'risidagi tasavvurlar rivojlanib bormoqda. Ushbu muammo AMBTB sohasidagi mutaxassis va tadqiqotchilarning faol muhokama predmetiga aylangan bo'lsada bu borada aniq bir tizim va qoidalar hali hanuz ishlab chiqilmaganligi ko'p hollarda bahsli vaziyatlarga ham olib kelmoqda. Shuning uchun qaror qabul qiluvchi idoralar mazkur masalaga alohida e'tibor qaratishlari muhimdir.

Faoliyatning qaysi turlari AMBTBning predmeti bo'lishi mumkin? Mo'ljallanayotgan faoliyat loyihasi, ya'ni xo'jalik ob'ekti loyihasi AMBTBning predmeti hisoblanadi. Lekin odatda loyihalar biri-biridan atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlarning ko'lami va xarakteri jihatidan farq qiladi. Avval ta'kidlanganidek, AMBTB tizimining maqsadi inson faoliyatining atrof-muhitga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlarini kamaytirish hisoblanadi. Tizimning samarali bo'lishi uchun asosiy e'tibor ta'sir darajasi yuqori bo'lgan loyihalarga yo'naltirilishi lozim. To'liq miqyosdagi AMBTBni barcha turdagi loyihalar uchun o'tkazish yaxshi samara bermaydi, shuning uchun uni yirik loyihalar uchungina o'tkazilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Vaholanki, yirik loyihalarning ta'sirlarida atrof-muhitning turli tarkibiy qismlari orasidagi bog'liqliklar yaqqol ko'zga tashlanadi. Bundan tashqari yirik loyihalar o'ziga xos darajada noyob

sanaladi va amaldagi me'yor va standartlar bunday loyihalarni baholash uchun odatda yetarlicha imkon bermaydi.

Kichik miqyosdagi loyihalarni baholash uchun esa o'sha belgilangan me'yor va standartlarni qo'llash yetarli sanaladi. Bunday loyihalarga nisbatan soddalashtirilgan ko'rinishdagi AMBTBni qo'llash ham mumkin. Nostandart sharoitda amalga oshirilishi mo'ljallangan standart ko'rinishdagi kichik loyihalar odatda maxsus ko'rib chiqiladi, masalan, noyob tabiiy kompleks yaqinida amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan kichik miqyosli loyiha. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni o'tkazish uchun tub aholining jiddiy xavotiri ham asos bo'lishi mumkin.

Yirik loyihalardan tashqari sezilarli ekologik oqibatlariga olib keladigan yuqori darajadagi tashabbuslar, ya'ni turli reja va dasturlar, sohaviy rivojlanish sxemalari, me'yoriy aktlar loyihalari ham atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti bo'lishlari mumkin.

#### **1.4. AMBTB jarayoni ishtirokchilari**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning samarali tashkil qilingan tizimlari huquq va burchlari rasmiy belgilab qo'yilgan ishtirokchilarning ish tartibini ham o'z ichiga oladi.

##### **1. Faoliyat tashabbuskori**

Mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish (loyihalash) va amalga oshirish uchun ma'sul bo'lgan yuridik yoki fizik shaxs faoliyat tashabbuskori sanaladi. Davlat hokimiyati organlari yoki xususiy kompaniyalar (tashkilotlar) ham faoliyat tashabbuskori bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston sharoitida faoliyat tashabbuskori qonunchilik hujjatlari bilan belgilab qo'yilgan bo'lib, u ekologik ekspertizaga topshirilayotgan hujjatlarning buyurtmachisidir.

“Ifloslovchi sarf-harajatlarni to'lashi lozim“ hamda “faoliyat tashabbuskori mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik jihatdan xavfsiz ekanligini isbotlab berishi lozim” kabi tamoyillardan kelib chiqqan holda aksariyat AMBTB tizimlarida AMBTBni o'tkazish bilan bog'liq barcha sarf harajatlar faoliyat tashabbuskori zimmasiga yuklatiladi. O'zbekiston qonunchiligiga asosan ham mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik xavfsizligini isbot qilish ma'suliyati uning tashabbuskoriga yuklatiladi. Ma'lumki, to'liq miqyosda olib boriladigan AMBTBlar katta miqdordagi sarf-harajatlarni talab qiladi va bu harajatlarni davlat byudjetiga yuklash to'g'ri hisoblanmaydi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'sirlarini bashorat qilish, bashorat natijalarini yorituvchi hujjatlarni tayyorlash, hamda uni jamoatchilik bilan muhokama qilish kabi ishlar faoliyat tashabbuskorining AMBTBni o'tkazishdagi asosiy vazifalari sanaladi.

##### **2. Maxsus vakolatli tashkilotlar**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni yoki belgilangan faolliyatga u yoki bu darajada aloqador bo'lgan tashkilot va

muassasalar maxsus vakolatli tashkilotlar hisoblanadi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida mazkur tashkilotlar odatda uchta asosiy funksiyasini bajaradilar.

### **AMBTB jarayoni ustidan nazorat**

Bu vazifani odatda atrof-muhitni muhofaza qilish qo'mitasining tashkilotlari yoki AMBTB bo'yicha maxsus agentliklar, davlat tomonidan tashkil etiladigan davlat bo'limlari yoki mustaqil bo'limlar bajaradi. Ularning vazifasiga atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tartibiga rioya qilinishini nazorat qilish hamda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash bo'yicha tuziladigan hujjatlar sifatini tekshirish kiradi. qaror qabul qilish uchun ma'lumotlarning yetarliligi, ularning ishonchliligi va ta'sirlarning to'g'ri aniqlanganligi mazkur tekshirishning asosiy predmeti sanaladi.

### **Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari bo'yicha qaror qabul qilish**

Amalda barcha davlatlarda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi to'g'risidagi qaror davlat organlari tomonidan ruxsatnoma va litsenziyalar berish orqali qabul qilinadi. Bunda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish to'g'risidagi qarorni chiqarish uchun AMBTB ma'lumotlari asos bo'lib xizmat qiladi. Odatda AMBTB xulosalari bo'yicha qaror qabul qilish AMBTB sifatini nazorat qiluvchi tashkilot, ya'ni tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi tomonidan bajariladi.

Ayrim hollarda faoliyat tashabbuskori AMBTB natijalarini hisobga olgan holda uni amalga oshirish haqida mustaqil ravishda qaror qabul qilishi mumkin. Bunday vaziyatni AMBTBni nazorat qiluvchi davlat tashkilotining o'zi faoliyat tashabbuskori bo'lgan hollarda uchratish mumkin.

### **Mo'ljallangan faoliyatning alohida jihatlarini muvofiqlashtirish**

Turli bo'g'indagi maxsus tashkilotlar, agentliklar yer-suv va o'rmonlar holati hamda aholi salomatligi uchun ma'suldirlar. Bu tashkilotlar mo'ljallanayotgan faoliyatning alohida jihatlarini muvofiqlashtirishlari lozimdir. Masalan, mavjud suv resurslaridan foydalanish miqdori, chiqindilar miqdori va boshqalarni.

Bunday funksiyalarni aksariyat AMBTB tizimlarida davlat tashkilotlari bajaradilar. Xalqaro tashkilotlarning (Jahon banki, Osiyo taraqqiyot va tiklanish banki kabi) AMBTB tizimlarida «maxsus vakolatli tashkilotlarning» vazifalarini mazkur xalqaro tashkilotlarning bo'limlari bajaradilar. Ular moliyalashtirishga talabgorlik qilayotgan faoliyat tashabbuslarini belgilangan ish tartibiga rioya qilinishini nazorat qiladi, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash hujjatlari sifatini baholaydi, hamda mablag' ajratish to'g'risida qarorlar qabul qiladi.

### **3. Boshqa manfaatdor tomonlar**

har qanday yirik loyihani amalga oshirilishi va uning ekologik jihatlarini jamiyatning, shu jumladan ko'plab tashkilotlar va muassasalarning, ijtimoiy guruhlar va ayrim fuqarolarning manfaatlariga ta'sir o'tkazadi. Manfaatlarni mazkur tomonlar bilan muvofiqlashtirish, hech bo'lmaganda mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirishda yuqoridagi tomonlar

manfaatlarini hisobga olish, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning eng muhim jihati hisoblanadi. Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro muloqotlar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining "maslahatlashuvlar va jamoatchilik ishtiroki" bo'limi doirasida olib boriladi.

Manfaatdor tomonlarning baholash jarayonidagi roli quyidagilardan iboratdir:

- ular o'zlarining, ba'zida esa ma'lum guruhlarining manfaatlarini ifoda etishadi;
- ular atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash uchun zarur va muhim hisoblangan axborotlarni berishadi.

Faoliyatning u yoki bu jihatiga aloqador bo'lgan davlat tashkilotlari (masalan, maxsus agentliklar) yoki mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashda manfaatdor tomonlar bo'lishlari mumkin. Davlat tashkilotlari o'z vakolatlari doirasida hududdagi aholining manfaatlarini faoliyat uchun ruxsatnoma berish vaqtida albatta e'tiborga olishlari lozim. Ayrim davlat tashkilotlari, maslahatlashuvlar jarayonida ishtirok mobaynida AMBTBni bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni olish uchun manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshqa davlat tashkilotlari esa atrof-muhitga ta'sirlarni baholash ishlarini to'g'ri yo'lga solib turishadi va baholash hujjatlariga nisbatan o'z fikr-mulohazalarini tavsiya tariqasida ifodalashadi. Nixoyat, ayrim davlat tashkilotlarining o'zlari AMBTB predmeti hisoblangan faoliyatni amalga oshirishlari mumkin. Bu omil rejalashtirish jarayonida tashabbuskor tomonidan hisobga olinishi lozim, buning uchun esa ushbu tashkilotlar o'zaro aloqada ishlashlari lozim. Amalda barcha milliy AMBTB tizimlarida, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash davomida hamkorlikda ish olib borilishi lozim bo'lgan davlat tashkilotlarining ro'yxati belgilab qo'yilgan.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida aloqa o'rnatilishi lozim bo'lgan tomonlar faqat davlat tashkilotlari bilan chegaralanmaydi. Vaholanki nodavlat tashkilotlari (masalan, ilmiy muassasalar) aynan mazkur ta'sirlarni bashorat qilish yoki ularni miqyosini baholash uchun zarur bo'lgan qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lishlari mumkin. Va nihoyat keng jamoatchilik ommasi, ya'ni loyiha amalga oshiriladigan xududdagi aholi manfaatdor tomon bo'lishi mumkin. Sanab o'tilgan tomonlar rasmiy belgilangan vakolatlarga, nazorat qilish yoki farmoyish berish huquqlariga ega bo'lmasalarda, ularni AMBTB jarayoniga jalb qilish ko'plab nizoli vaziyatlarni oldini olishga imkoniyat yaratadi.

#### **4. AMBTBni bajaruvchilar**

AMBTBning ma'lum qismlarini bajarish uchun jarayon qatnashchilari yuqori malakali mutaxassislarni jalb qilishlari mumkin. Masalan faoliyat tashabbuskori AMBTBning hujjatlarini ishlab chiqish yoki atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar to'g'risida bayonotni (AMBTTB) tayyorlash uchun maxsus tashkilotlarning xizmatidan foydalanishi mumkin. Davlat tashkilotlari AMBTB hujjatlari sifatini aniqlash uchun maslahatchilarni, jamoatchilik esa mo'ljallanayotgan faoliyatning turli jihatlarini baholash

uchun mustaqil ekspertlarni jalb qilishlari mumkin. Mazkur chetdan taklif qilinadigan bajaruvchilar jarayonning mustaqil ishtirokchilari bo'lmay, ular faqatgina taklif qiluvchi belgilangan masalalarni hal qiladi xolos, ular ishining sifati uchun esa taklif qiluvchi ma'sul hisoblanadi. Ammo mazkur bajaruvchilarning malakasi AMBTBning sifatli bo'lishida muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, bunday bajaruvchilarning faoliyat yuritish huquqi odatda davlatning ma'sul tashkilotlari tomonidan litsenziyalanadi.

### **5. AMBTBni o'tkazish uchun ma'sullar**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni bir necha elementlardan iborat. Mazkur elementlar uchun (AMBTBni tayyorlash, uning sifatini nazorat qilish, faoliyat yuzasidan qaror chiqarish) jarayonning turli ishtirokchilari mas'ul hisoblanishadi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning asosiy qismi, ya'ni AMBTB uchun zarur ma'lumotlarni to'plash, ta'sirlarni bashorat qilish, ularni miqyosini baholash va atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning yakuniy hujjatlarini tayyorlash eng muhim sanaladi. Odatda jarayonning mazkur qismi manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar o'rnatishni talab qiladi. **AMBTBning aksariyat tizimlarida mazkur ishlarni bajarish ma'suliyati faoliyat tashabbuskori zimmasiga yuklatilgan.**

Mazkur masalada AQShning Kaliforniya shtati va Yevropaning Estoniya davlatida sal boshqacharoq yo'l tutiladi. Ularning tizimlarida faoliyat tashabbuskori AMBTBni bajaruvchini tender asosida aniqlab uning faoliyatini moliyalashtirsada, AMBTBni bajaruvchi faoliyat tashabbuskoriga emas, balki to'g'ridan-to'g'ri federal hukumatga hisobot beradi.

Yuqoridagi bu ikki yondoshuvdan qaysi biri samaraliroq ekanligi to'g'risida hali-hanuz bir to'xtamga kelinmagan bo'lsada, faoliyatni loyihalash va AMBTB jarayonlari orasidagi o'zaro bog'liqlik loyihaga vaqtida o'zgartirishlar kiritilishiga imkoniyat yaratadi. Natijada ham faoliyat loyihasi, ham AMBTBning sifatli bo'lishiga erishiladi.

Shuning uchun ko'plab mutaxassislar va amaliyotchilar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning «asosiy qismini» faoliyat tashabbuskorining mas'uliyatida bo'lishini yoqlashadi va samaraliroq deb hisoblashadi. Biroq bunda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni va hujjatlar sifati nazoratining mustaqilligi doimo ta'minlanishi lozim.

## **2 – BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASHNING ASOSIY ELEMENTLARI**

Mo'ljallanayotgan faoliyatni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholashning asosiy elementlari odatda me'yoriy hujjatlar bilan tasdiqlangan bo'ladi. Ushbu elementlar aksariyat hollarda baholash jarayonida alohida bosqich sifatida, ba'zi hollarda esa ularning bir nechtasi o'zaro birlashgan shaklda ishtirok etadi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonini sxematik tarzda tasavvur qilish jarayonni to'liqroq tushunish va uning elementlarini yaxshiroq anglash uchun imkoniyat yaratadi.

### **2.1. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining umumiy sxemasi**


Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining umumiy sxemasini quyidagi shakldagiday tasavvur qilish mumkin (1-rasm).

### **2.2. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining aschosiy elementlari**

Mo'ljallanayotgan faoliyatni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash jarayoni AMBTB o'tkazilishining zarurligi to'g'risida qaror qabul qilishdan boshlanadi. Ushbu qaror faoliyat tashabbuskori yoki davlat idoralari tomonidan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan va AMBTB o'tkazilishi lozim bo'lgan faoliyatlar ro'yxati hamda mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'sirlarini dastlabki baholash natijalari asosida qabul qilinishi mumkin. Dastlabki baholash norasmiy holatda ham, maxsus belgilab qo'yilgan jarayon tarzida ham o'tkazilishi mumkin. Mazkur bosqichda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning ob'ekti aniqlab olinadi. Baholash ob'ektining aniq ko'rsatilishi mo'ljallanayotgan faoliyatni faqat bir qisminigina baholash hollarini oldini oladi. Masalan, yo'l qurilishi ko'zda tutilayotgan holatda, AMBTB faqat yo'lning qurilayotgan uchastkasi uchungina emas, balki mazkur yo'lga tutashuvchi qo'shimcha yo'llar va yo'l bo'ylab barpo qilinadigan barcha ob'ektlar, ya'ni ushbu yo'l tufayli yuz beradigan barcha o'zgarishlarni hisobga olgan holda o'tkaziladi.

Keyingi bosqich AMBTB vazifalarini aniqlashdan iborat bo'lib, unda o'rganilishi shart bo'lgan eng ahamiyatli ta'sirlar, mo'ljallanayotgan faoliyatning baholash jarayonida tahlil qilinadigan va taqqoslanadigan muqobil variantlari aniqlanadi. Odatda shu bosqichda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni o'tkazishning dasturlari tuziladi. Mazkur dasturlarga jamoatchilik bilan maslahatlashuvlar, zaruriy kelishuvlar va boshqa tadbirlarni kiritilishi asosiy shartlardan sanaladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning vazifalarini tashabbuskor yoki AMBTBni bajaruvchining o'zlari bevosita yoki davlat hokimiyati organlari va manfaatdor tomonlar ishtirokida aniqlashadi va rejalashtirishadi. Odatda AMBTB dasturi yoki texnik topshirig'i rasmiy





1-rasm. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining umumiy sxemasi

xarakterga ega bo'lib, davlat organlari tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Kutilayotgan ta'sirlarni bashoratlash, tahlil qilish va ularni ahamiyatligini baholash AMBTB jarayonining asosiy bosqichi hisoblanadi. Bunda nafaqat ta'sir o'tkazuvchi omillarning fizik qiymatlari (zararli

moddalarning hajmi yoki konsentratsiyasi), balki ta'sirlar oqibatida atrof-muhitning turli qismlarida (suv, havo, landshaft, fauna va flora) ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar hamda ular orasidagi bog'liqliklar atroflicha o'rganilishi lozim. Shu bilan birga mo'ljallanayotgan faoliyatning aholi sog'lig'i, tarixiy-madaniy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy holatga ko'rsatadigan ta'sirlari ham batafsil o'rganilishi lozim. Bunda mo'ljallanayotgan faoliyat amalga oshirilishining oqibatlari nafaqat miqdoriy, balki ahamiyatlilik jihatidan ham baholanishi shart. Mo'ljallanayotgan faoliyatni muqobil variantlarini taqqoslash va ular orasidan eng maqbulini tanlab olish imkoniyatlarini yaratish uchun kutilayotgan ta'sirlar barcha variantlar uchun o'rganib chiqilishi lozim. AMBTBning mazkur bosqichi odatda faoliyat tashabbuskori yoki uning buyurtmasi asosida bajaruvchi tashkilot tomonidan amalga oshiriladi.

**Ta'sirlarni yumshatish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish.** Ta'sirlarni baholash jarayonida to'planajak ma'lumotlar faoliyatning muqobil variantlaridan birini tanlashga yoki ta'sirlari kamaytirilgan yangi loyihaviy yechimlar qidirishga olib keladi. Ta'sirlarni yumshatish deganda odatda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni oldini oladigan yoki kamaytiradigan (masalan, tozalash inshootlarini qurish yoki chiqindilarni kamaytiruvchi texnologiyalarni qo'llash), atrof-muhitga yetkaziladigan zararni yo'qotadigan yoki kamaytiradigan amallar hamda zararni qoplash uchun to'lovlar tushuniladi. Bunga tevarak-atrofni obodonlashtirish, faoliyat tashabbuskori tomonidan mahalliy aholiga ko'rsatiladigan xizmat baholarini kamaytirish va ayrim hollarda mahalliy aholiga to'g'ridan-to'g'ri badal to'lash kabi tadbirlar misol bo'ladi. Tanlangan tadbirlar asoslangan, ekologik samarador bo'lishi va ular AMBTB hujjatlarida aniq aks ettirishi lozim. Odatda bunga tashabbuskor va bajaruvchi ma'sul sanaladilar.

**Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning yakunlovchi hujjatlarini** (atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar to'g'risida bayonot - AMBTTB) tuzish faoliyat tashabbuskorining vazifasi hisoblanadi va odatda uning topshirig'iga asosan loyiha hujjatlarini ishlab chiquvchi tashkilot yoki boshqa maxsus tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladi. AMBTB bo'yicha hujjatlar birinchi navbatda mo'ljallanayotgan faoliyat bo'yicha tushunarli qarorlarni qabul qilishga yordam berishi lozim. Bundan tashqari ushbu hujjatlar manfaatdor shaxslar va tashkilotlar uchun mo'ljallanayotgan faoliyat va uning ta'sirlari to'g'risida to'liq axborot berishi lozim. Shuning uchun mazkur hujjatlarda ta'sirlarni baholashning asosiy xulosalarini qisqa va tushunarli shaklda ifodalanishi muhim sanaladi.

**Maslahatlashuvlar va jamoatchilik ishtiroki.** Manfaatdor tomonlar bilan o'zaro aloqalar – maslahatlashuvlar va jamoatchilikning ishtiroki atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning barcha bosqichlarida maqsadga muvofiqdir. Masalan, AMBTB vazifalarini aniqlash bosqichida atrof-muhitga ta'sir etuvchi qaysi omillar jamoatchilikni ko'proq tashvishga solishi to'g'risidagi fikrlarni bilish va ularni inobatga olish AMBTBni samarali bo'lishi uchun foydalidir.

Ba'zi mamlakatlarda maslahatlashuvlar va jamoatchilikning ishtiroki AMBTBda alohida bosqich sifatida qaraladi. Bu bosqichning asosiy mazmuni AMBTB yakunlovchi hujjatlarini muhokama qilish va unga nisbatan fikr-mulohazalar bildirishdan iboratdir. jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar ma'lum muddat davomida mazkur hujjatdan foydalana oladilar va o'z mulohaza va takliflarini bildirishlari mumkin. Xuddi shu vaqtning o'zida hujjatlar davlat tashkilotlari va boshqa tashkilotlarga rasmiy izoh va takliflar olish uchun yuboriladi. Ushbu bosqichda jamoatchilik eshituvini o'tkazish va ular natijalarini ta'sirlarni baholash bo'yicha hujjatlarga kiritish keng tarqalgan talablardan sanaladi.

**AMBTB to'liqligi va sifatini baholash.** Aksariyat hollarda AMBTB natijalaridan foydalanuvchi shaxslarning AMBTB sifatini baholash imkoniyatiga ega emasliklari tufayli AMBTB hujjatlarining sifatini tekshirish talab qilinadi. Bunday tekshiruv odatda maxsus tayinlangan doimiy ishlovchi komissiya, tabiatni muhofaza qilish vazirligi tomonidan tayinlanadigan litsenziyalik ekspertlar yoki tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tomonidan o'tkaziladi. Mazkur baholash jarayonida manfaatdor tomonlarning ishtiroki ham ta'minlanadi. O'zbekiston sharoitida ta'sirlarni baholash yuzasidan taqdim etiladigan hujjatlarining to'liq va to'g'riligi odatda davlat ekologik ekspertizasini o'tkazish paytida tekshiriladi.

**qaror chiqarishda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalarini hisobga olish.** Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning maqsadi, ekologik omillar bilan bir qatorda texnik va iqtisodiy omillarni ham hisobga oluvchi qarorlarni chiqarishga imkoniyat yaratishdir.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholashning oraliq va yakuniy natijalaridan manfaatdor tomonlar quyidagi hollarda foydalanishadi:

- loyihachilar - loyihaning atrof-muhitga minimal ta'sir etuvchi yechimlarini tanlashda va ta'sirlarni yumshatish tadbirlarini rejalashtirishda;
- tashabbuskor - mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini tanlashda;
- kredit-moliya tashkilotlari - mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish uchun mablag' ajratish yuzasidan qarorlar qabul qilishda;
- tabiatni muhofaza qilish uchun mas'ul tashkilotlar - tabiatdan foydalanish uchun ruxsatnomalar berish va tabiatdan foydalanish shartlarini kelishishda;
- boshqa davlat nazorat organlari, hukumat va o'z-o'zini boshqarish organlari - mo'ljallanayotgan faoliyatni litsenziyalash va ruxsatnoma berish uchun qaror chiqarishda.

**Loyihadan keyingi bosqichlar.** AMBTB jarayonining samaradorligini baholash natijalarini nafaqat faoliyatni rejalashtirish bosqichida hisobga olinishiga, balki faoliyatni amalga oshirish davrida ularga nechog'lik amal qilinayotganligiga ham bog'liqdir. Shuning uchun hozirda asosiy e'tibor mo'ljallanayotgan faoliyat tasdiqlangandan so'ng o'tkaziladigan AMBTB bosqichlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda AMBTB hujjatlariga salbiy ta'sirlarni yumshatish tadbirlarini bajarilishini to'liq

yorituvchi ekologik menedjment rejasi ham kiritilmoqda. Ekologik menedjment rejasiga ta'sirlarning haqiqiy miqyoslari monitoringi va ularni bashorat qilingan miqyoslar bilan taqqoslash dasturi ham kiritiladi. Bunday yondoshuv butun AMBTB tizimning boyishiga yaxshi imkoniyatlar yaratadi.

### **3-BOB. ATROF-MUHITGA TA'SIRLARNI BAHOLASH JARAYONINING BOSHLANG'ICH BOSQICHLARI**

#### **3.1 AMBTBni o'tkazishning zaruriyati to'g'risida qaror**

AMBTB mo'ljallanayotgan faoliyatning qaysi turlari uchun o'tkazilishi lozim? Mo'ljallanayotgan faoliyatlar atrof-muhitga ta'sirlarni baholash bilan qanchalik keng qamrab olingan bo'lsa, ekologik qonunchilik shunday darajada qattiq qo'lday va atrof-muhit shunchalik darajada yaxshi muhofaza qilinadigandek tuyuladi. Ya'ni mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik baholanishi o'zini oqlaydiganday hisoblanadi. Ba'zi tizimlarda yuqoridagidek yo'l tutiladi va barcha turdagi faoliyatlar uchun AMBTB o'tkazish talab qilinadi.

Biroq yoppasiga AMBTB o'tkazishdan tiyilishga undovchi jiddiy sabablar mavjud bo'lib, ulardan biri iqtisodiy mazmundagi sababdir: barcha tashabbus loyihalari uchun to'liq masshtabda AMBTBni o'tkazishni talab qilish va amalga oshirish ishbilarmonlar (ayniqsa, kichik va o'rta biznes) yo'lida keraksiz byurokratik g'ovlarni vujudga keltirishi mumkin. Bunday amaliyot, o'z navbatida ushbu (AMBTB) jarayonda ishtirok etuvchi yoki uni nazorat qiluvchi davlat organlaridan ulkan resurslarni talab qiladi.

Boshqa sabab esa AMBTB jarayonini rostlab turuvchi me'yorlar bilan bog'liq. Masalan, neft terminali va avtomobil yonilg'isi quyish shoxobchasiga (AYOQSH) AMBTBning bir xil standartlarini qo'llash ba'zi bir qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Ya'ni AMBTBning ish tartibi neft terminali loyihasiga mos kelsa, AYOQSH loyihasini amalga oshirishda ushbu me'yorlarni bajarish imkoniyati yo'q va bu narsa o'z-o'zidan ishni boshlanishidanoq qonunlarni buzilishiga olib keladi va korruptsiyaga zamin yaratadi. Aksincha vaziyatda esa, ya'ni AMBTBning ish tartibi AYOQSH loyihasiga mos bo'lsa, bu o'z-o'zidan neft terminaliday xavfli loyihalarni atrof-muhitga ta'sirlarni baholash standartlarini keskin pasaytirib yuboradi. Shunday qilib barcha turdagi faoliyatlarni bir xilda baholash atrof-muhit muhofazasi o'rniga loyihalarni amalga oshirishda noo'rin vaqt sarfiga, buyurtmachi va davlatni keraksiz sarf-harajatlar qilishga, AMBTBni o'tkazishning umumiy standartlarini pasayishiga va ma'lum qonunbuzarliklarga olib keladi.

*Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, atrof-muhitga ta'sirlarni baholashning mazmuni va ish tartibi mo'ljallanayotgan faoliyatning potentsial ekologik xavfiga mos kelishi lozim.*

Shuning uchun, ko'p davlatlarda to'liq hajmda AMBTB o'tkazish faqat ayrim turdagi faoliyat turlari uchungina talab etiladi.

**AMBTB zarur bo'lgan faoliyat turlarini aniqlash tizimi quyidagi shartlarni qoniqtirishi lozim:**

▪ **Atrof-muhit uchun potentsial xavfli bo'lgan barcha loyihalarning atrof-muhitga ta'sirlarini ko'rib chiqilishini ta'minlashi.** Tarixiy tajribalardan ma'lumki ayrim turdagi loyihalarning (masalan, atom stantsiyalari, neft quvurlari, axlatlarni yoquvchi zavodlar) ekologik xavfi yuqori darajadadir. Bunday loyihalar uchun AMBTB o'tkazilishi albatta shart. Ba'zi loyihalarning (masalan, issiqlik elektrostantsiyasi) xavflilik darajasi esa ularning qo'llanish ko'lamini bilan bog'liq. Bunday sharoitda AMBTB ularning kattaligi «chegaralangan qiymatdan» oshgandagina (masalan: elektrostantsiyada issiqlik quvvati ma'lum chegaradan o'tgandan so'ng) lozim bo'ladi.

▪ **AMBTB o'tkazish uchun qaror qabul qilishda maxaliy sharoitlarni hisobga olish.** AMBTB o'tkazish zarurligini loyihaning nafaqat turi va ko'lamini aniqlaydi. Masalan, gap maxalliy ahamiyatga ega bo'lgan yo'l haqida bormoqda deylik, bunday loyiha, odatda atrof-muhitga kuchli ta'sir qilish xususiyatiga ega emas va ushbu loyiha uchun AMBTB o'tkazish talab qilinmaydi. Ammo xuddi shunday kattalikdagi yo'l «milliy bog'», ya'ni qo'riqxonadan hududidan o'tsa, loyiha oqibatlarini ancha jiddiy bo'lishi mumkin. Shuning uchun ushbu holatda AMBTB o'tkazish maqsadga muvofiq sanaladi. Shunday qilib, AMBTB o'tkazish uchun qaror qabul qilishda maxaliy sharoitlarni hisobga olish zarurdir.

▪ **AMBTBni o'tkazish uchun qaror qabul qilishda mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro muloqotga kirishish.** «Milliy bog'» bilan bog'liq misolda mahalliy sharoitlar oddiygina hisobga olinishi mumkin, masalan barcha milliy bog'lar loyihalariga AMBTBning majburiy talablarini kiritish orqali. Ammo shunday holatlar bo'lishi mumkiniki maxalliy sharoitlar o'ziga xos bo'lishi va bu o'ziga xoslik alohida rasmiy huquqiy holat bilan belgilangan bo'lmasa. Masalan gap alohida muhofaza qilinmagan tabiiy yodgorlik haqida bormoqda desak. Mazkur ob'ekt loyiha amalga oshirilishi natijasida zarur bo'lishi mumkin. Ushbu ob'ekt to'g'risida mahalliy hokimiyat organlari, jamoat tashkilotlari va mahalliy aholi yaxshi xabardor. Shuning uchun ham, AMBTBni o'tkazish uchun qaror qabul qilishda mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlar bilan o'zaro muloqotga kirishish maqsadga muvofiqdir. Bu narsa axborotlar olish va manfaatdor tomonlar fikrlarini e'tiborga olish imkonini beradi, hamda kelajakda nizolar chiqishini oldini oladi.

▪ Vanihojat, resurslarni iqtisod qilish va ularni xaqiqatdan ham ekologik jihatdan xavfli bo'lgan loyihalarni AMBTBsigacha sarflash maqsadida ekologik jihatdan xavfli bo'lmagan oddiy faoliyat turlari uchun soddalashtirilgan AMBTB o'tkazish yoki umuman o'tkazmaslik.

### **3.2 AMBTB o'tkazish lozim bo'lgan faoliyatlarni tanlash**

AMBTB ob'ektini aniqlashning ikki prinsipi mavjud. Birinchi yondoshuv barcha faoliyatlarni (loyihalarni) atrof-muhitga

ta'sirlarini dastlabki baholashga asoslanadi. Bunday baholash natijasida AMBTBni o'tkazishga zaruriyat bor yoki yo'qligi to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Bunda ish odatda atrof-muhitga ta'sirlarni dastlabki baholash hujjatlarini nashr qilish bilan tugatiladi, unda «kuchli ta'sirning» yo'qligi bayon qilinadi yoki keng ko'lamda AMBTB o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Atrof-muhitga ta'sirlarni dastlabki baholash yordamida loyihalarni tanlash tizimining afzalligi uning moslashuvchanligidir: u loyihalarda mahalliy sharoitlar o'ziga xosliklari, qonunlar, manfaatdor tomonlar fikrlari va boshqa omillarni hisobga olish imkonini beradi. Bunday tizim AMBTB o'tkazish zarurligi to'g'risidagi qaror qabul qilish bosqichining o'zidayoq jamoatchilik ishtirokiga imkoniyat yaratadi. Atrof-muhitga ta'sirlarni dastlabki baholash keng ko'lamli AMBTB o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish uchun xizmat qiladi va o'rganilishi talab etiladigan ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashga xizmat qiladi. Dastlabki baholash ma'lum darajada to'liq baholashda bajariladigan ta'sirlarni aniqlash va bashorat qilish eng qulay loyiha yechimlarni izlash, jamoatchilikni ma'lumotlar bilan ta'minlash va ularni fikrini hisobga olish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish kabi vazifalarni ham bajaradi. Shuning uchun u ekologik nuqtai nazardan xavfi kam bo'lgan loyihalar uchun soddalashtirilgan baholash tartibi sifatida qaralishi mumkin.

Shu bilan birga bunday baholashning o'ziga xos kamchiliklari ham bor. Birinchidan, u barcha xavfli loyihalarni atrof-muhitga ta'sirlarini baholanishi o'tkazilishini kafolatlamaydi va uni jarayon ishtirokchilari ixtiyorida qoldiradi. Bu esa ma'lum sharoitlarda suiste'mollarga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, u barcha loyihalar uchun dastlabki baholash o'tkazilishini talab qiladi, bu esa faoliyat tashabbuskori va davlat organlari resurslariga qo'shimcha og'irlik keltiradi. Shunday bo'lsada atrof-muhitga ta'sirlarni baholashni dastlabki va to'la qamrovli turlarga bo'linishi barcha faoliyat turlari uchun bir xil tarkibli AMBTB nazarda tutilgan milliy tizimlarda ularning samaradorligini oshirish uchun real yo'l hisoblanadi.

Faoliyatlarni (loyihalarni) tanlashning ikkinchi usuli AMBTB o'tkazish ob'ekti hisoblanadigan «faoliyatlar turlari» ro'yxatidan foydalanishiga asoslangan. Odatda atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risidagi qonunlar tarkibida AMBTB o'tkazish majburiy hisoblangan ekologik jihatdan xavfli sanalgan faoliyat turlari ro'yxati keltiriladi. Masalan, Evropa hamjamiyatining atrof-muhitga ta'sirlarni baholash to'g'risidagi 85/337 Direktivasining 1-ilovasida bunday faoliyat turlarining ro'yxati keltirilgan. Ba'zi hollarda esa AMBTB o'tkazish talab qilinmaydigan faoliyat turlarining ro'yxati ham keltiriladi. Masalan, AQShda Atrof-muhit sifati bo'yicha Kengash AMBTB umuman talab qilinmaydigan faoliyatlar turlari ro'yxatini belgilaydi.

Faoliyat turlari me'yoriy ro'yxatlarining afzalligi uni qo'llashning oddiyligi va ekologik xavfli loyihalar uchun AMBTB o'tkazilishini kafolatlanganligidir, kamchiligi esa uning moslashuvchan emasligi va

AMBTB o'tkazish zarurligi to'g'risida qaror chiqarishda jamoatchilik va manfaatdor tomonlar ishtiroki imkoniyatining yo'qligidir. Ikkala usul: dastlabki baholash va me'yoriy ro'yxatlar o'ziga xos afzallik va kamchiliklarga egadir. Shuning uchun ularning kombinatsiyasini ishlatish AMBTB tizimining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Shunday qilib, o'z tarkibiga:

- me'yoriy ro'yxatga kiritilgan ekologik xavfli loyihalarda majburiy ravishda to'liq miqyosli AMBTB o'tkazish;
- kengaytirilgan ro'yxatga kiritilgan loyihalar uchun soddalashtirilgan dastlabki AMBTB o'tkazish va uning asosida to'liq miqyosli AMBTB o'tkazish zarurligi to'g'risida qaror qabul qilish;
- yuqoridagi ro'yxatlarning hech biriga kirmagan loyihalar uchun manfaatdor tomonlarning tashabbusi bilan dastlabki yoki to'liq miqyosli AMBTB o'tkazish imkoniyatining mavjudligi kabi elementlarni olgan tizimgina faoliyatni AMBTB ob'ektiga kiritishning samarali tizimi sanaladi.

### **3.3. AMBTB vazifalarini aniqlash**

AMBTBni o'tkazishning asosiy maqsadi qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlarida ekologik omillarni hisobga olishdan iboratdir.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar to'g'risidagi bayonot (AMBTB) hujjatlarining qisqa va lo'nda bo'lishi qaror qabul qiluvchilar ishini yengillashtiradi. Shuning uchun AMBTB jarayonining avvalida hujjatga kiritilishi lozim bo'lgan savol va masalalarni aniq belgilab olish ish yuritishni ancha yengillashtiradi.

Vazifalarni aniqlash bosqichining maqsadi asosiy e'tiborni qaror qabul qilishda muhim rol o'ynovchi ta'sirlarga qaratishdan iboratdir. quyidagilar bosqichning asosiy vazifalari sanaladi:

- AMBTB «ob'ekt»i chegaralarini aniqlash, ya'ni mo'ljallanayotgan faoliyat doirasida ta'sirlari o'rganilishi lozim bo'lgan ish turlarini aniqlash;
- AMBTB jarayonida bashorat va tahlil qilinadigan, hamda ahamiyatliligi baholanadigan e'tiborga molik ta'sirlarni aniqlash.
- qaror qabul qilishda kam rol o'ynovchi ta'sirlarni ko'rib chiqishdan olib tashlash;
- AMBTB jarayonida o'rganiladigan muqobil variantlar doirasini aniqlash;
- AMBTBni o'tkazish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyojlarni aniqlash va birlamchi ma'lumotlarni olish;
- ta'sirlarni bashorat qilish va baholash uchun tavsiya qilinadigan usullarni aniqlash;
- zaruriy kelishuvlar va qonuniy talablarni aniqlash;
- AMBTB o'tkazish rejasini ishlab chiqish, ekspertlarga beriladigan muddat va qo'yiladigan talablarni aniqlash;
- manfaatdor tomonlar bilan o'zaro hamkorlik, xususan jamoatchilikni xabardor qilish va ishtirokini ta'minlash rejalarini ishlab chiqish.

Vazifalarni shakllantirish AMBTB bo'yicha bir-ikki mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Shakllantirilgan vazifalar asosida AMBTBni o'tkazadigan ekspert guruhi tarkibi aniqlanadi va AMBTB o'tkazish uchun texnik topshiriq tuziladi. Bunda guruhga jalb qilinadigan mutaxassislarning malakasi va ularni jalb qilish muddatlari aniq ko'rsatilishi talab etiladi.

AMBTB vazifalarini aniqlash turli davlatlarda turlicha olib boriladi. Ba'zi mamlakatlarda (masalan, AQShda) bu ish faoliyat tashabbuskori tomonidan amalga oshiriladi va u AMBTBni o'tkazuvchi ekspertlar guruhi uchun texnikaviy topshiriqni shakllantiradi. Boshqa mamlakatlarda esa AMBTB vazifalarini aniqlash jarayoni ustidan davlatning maxsus vakolatli organlari rahbarlik qiladi. Masalan, Slovakiyada bunday organlar ta'sirlarni baholash bo'yicha hujjatlarda nimalar bo'lishi to'g'risida maxsus qarorlar nashr qiladi. Kanadaning Ontario shtatida esa AMBTB vazifalarini aniqlovchi hujjat faoliyat tashabbuskorlari tomonidan tayyorlanadi va atrof-muhit muhofazasi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

#### **AMBTB vazifalarini aniqlash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:**

- **Tizimlilik va mahalliy sharoitlarni hisobga olish.** Agar AMBTB ixtiyoriylik asosida o'tkazilsa, u o'zining tub mazmunini yo'qotadi. Ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashga tizimli yondoshuvga bajaruvchining hukumat organlari hamda jamoatchilikka AMBTB jarayonida yechiladigan vazifalar doirasini tanlash o'ta erkin emasligini ko'rsatishga imkoniyat yaratadi.
- **Manfaatdor tomonlarning ishtiroki.** Turli manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuvlarsiz atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarning ahamiyatlisi va AMBTB jarayonida o'rganilishi lozim bo'lganlarini to'liq aniqlash ancha qiyin hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy va madaniy yodgorliklar, ta'sirchan ekotizim va aholi guruhlari to'g'risidagi ma'lumotlar AMBTBning boshlang'ich bosqichlarida turli davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik bilan maslahatlashish asosidagina olinishi mumkin. Bunday maslahatlashuvlarning afzalligi manfaatdor tomonlar jarayonga boshlang'ich bosqichlardayoq qo'shilishidadir, bu esa keyingi bosqichlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldini olishga yordam beradi. Ma'lumki keyingi bosqichlarda AMBTB ni ishlab chiquvchilarga asosan "Nima uchun bu ta'sirlarni yoki atrof-muhit komponentlarini o'rganmadingiz" degan savol beriladi. Manfaatdor tomonlar va jamoatchilik ishtiroki esa bunday savolga o'rin qoldirmaydi.
- **hujjatlashtirilganlik.** Ushbu tamoyil odatda birinchi ikki masalani bajarish mexanizmi hisoblanadi. AMBTB vazifalarini aniqlovchi texnik topshiriq, AMBTB bo'yicha alohida hujjat yoki uning bir qismi ko'rinishidagi hujjatlarni tuzish buyurtmachi va bajaruvchining AMBTBni rejalashtirish va manfaatdor tomonlarni xabardor qilishga o'ziga xos yondoshuvlarini asoslash uslubidir. Albatta bunday hujjat manfaatdor tomonlar, shu jumladan jamoatchilik uchun ochiq bo'lishi zarur.



### 3.4. Dastlabki baholashda ahamiyatli ta'sirlarni aniqlash usullari

O'rganilishi lozim bo'lgan ahamiyatli ta'sirlarni aniqlash bosqichning asosiy vazifalaridan biridir. Ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashning ro'yxatlar, matritsalar va so'rovnomalar kabi bir necha usullari mavjud.

**Ro'yxatlar usuli.** Ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashning eng oddiy usuli, yashash muhiti komponentlarining to'liq ro'yxatini ko'rib chiqish va ularning orasidan mo'ljallanayotgan faoliyat natijasida kuchliroq ta'sir ostiga tushadiganlarini ajratishdan iborat. Bunday usulga **ro'yxatlar usuli** deyiladi. Atrof-muhit komponentlari ro'yxati odatda 50-100 banddan iborat bo'ladi va u odatda AMBTB bo'yicha o'quv va boshqa metodik qo'llanmalarda keltiriladi. Ro'yxatning afzalligi, undan foydalanishning osonligidadir, kamchiligi esa loyihani amalga oshirishning turli bosqichlarda yoki uning turli jihatlari bilan bog'liq holda yuzaga keladigan ta'sirlarni hisobga olishning qiyinligidadir.

**Matritsalar usuli.** XX asrning 70-yillari boshida amerikalik ekolog Leopold ahamiyatli ta'sirlarini matritsa yordamida aniqlashni taklif qildi. Uning taklif qilgan matritsasi ustunlarida faoliyat turlari va loyihani amalga oshirishning turli bosqichlari (maydonchani tayyorlash, qo'shiluvchi yo'llarini qurish, chiqindilarni to'plash, foydalanishni to'xtatish va boshqa), qatorlariga esa atrof-muhitning komponentlari mos keladi (yer osti suvlari, flora va fauna) aks ettiriladi. qatorlar va ustunlarning kesishgan yerida shartli belgilar yordamida ahamiyati, oldindan aytib berish darajasi, ta'sir etish tabiati va boshqa ma'lumotlar keltiriladi (1-jadval).

Matritsalar ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashda ro'yxatlarga nisbatan ko'proq yordam beradi. Matritsa yordamida avvalgi loyihalar tajribasini oson hisobga olish mumkin. Bundan tashqari, matritsalar nafaqat atrof-muhitda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ahamiyatli o'zgarishlarni, balki jiddiy ekologik okibatlariga olib keladigan loyiha elementlarini ham ko'rsatadi. Matritsa va ro'yxatlarning kamchiligi to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydigan va bilvosita ta'sirlarni aniqlashga moslashmaganligidadir. Masalan, yer osti suvlariga bo'ladigan ta'sir ekotizimda o'zgarishlarga olib keladi, ammo oddiy matritsa yordamida uni aniqlash va tasvirlash oddiy ish emas. Bundan tashqari juda ko'p ustun va kolonkalardan iborat bo'lgan matritsalar qo'llash uchun juda og'ir. Shuning uchun to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydigan ta'sirlarni tizimli ravishda aniqlash uchun, ikkinchi darajali matritsalar qo'llaniladi.


**Tarmoqlar usuli.** Ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashning yana bir usuli tarmoqlar usulidir. U mo'ljallanayotgan faoliyat natijasida ta'sir ostiga (to'g'ridan to'g'ri bo'lmasa ham) tushadigan atrof-muhit komponentlarini belgilab olishdan iborat (3-rasm).

1-jadval Tog'oldi hududlarda sug'orishni rivojlantirishni atrof-muhitga ta'sirlarning ahamiyatlilarini aniqlash matritsasi

Faoliyat turlari	Tayyorgarlik ishlari			qurilish		Ekspluatatsiya			
	Sug'orish tarmoqlari o'tadigan yerlar	Ekin ekiladigan maydonlar	Yo'llar	Sug'orish tarm	Zovurlar qurish	Suvdan foydalanish	Yerga ishlov berish	Ekinlarga kimyoviy ishlov berish	Oqova-suv tarm chiqarib yuborish
Xavo; shu xududda	qm	qm	-	qm	qm	-		-	*
mintaqada (kis.yomg'ir)									
Global (iqlim)			-			-			
Suvlar: yer usti			-	qm	qm	um	-	-	um
yer osti									um
Tuproq va geologiya	-	qm	-				um	-	-
Ekotizimlar; quruqlik	-	-	-	-	-			-	
suv			-			-		-	um
Landshaft/vizual	-	-	-	-	-		-		-
Ijtimoiy						-	-	-	-

### Ta'sirlar tavsifi:

- salbiy
- q o'rganishni talab qiladi
- qm qisqa muddatli
- + ijobiy
- \* yumshatish tadbirlariga bog'liq
- um uzoq muddatli
- eng muhim



3-rasm – Tog' oldi hududlarida sug'orishni rivojlantirishni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini ahamiyatlilarini tarmoq usulida aniqlash

Mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'sirlarini bashorat qilish va ularni ahamiyatligini aniqlash AMBTB jarayonining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu bosqichning asosiy maqsadi faoliyatning muqobil sanalgan har bir variantini amalga oshirilishi natijasida atrof-muhitda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishini aniqlash, hamda bu o'zgarishlarning nechog'li muhim va ahamiyatli ekanligini baholashdan iborat bo'lib u:

- atrof-muhitning mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sir etishi mumkin bo'lgan komponentlarini o'rganish;
- mo'ljallanayotgan faoliyat oqibatida atrof-muhitda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bashorat va tahlil qilish;
- ularni ahamiyatligini baholash asosida amalga oshiriladi.

Atrof-muhitga ta'sirlarni bashorat va tahlil qilish bosqichi ahamiyatli ta'sirlarni aniqlashning dastlabki bosqichi bilan uzviy bog'liq hisoblanadi, chunki dastlabki bosqichda tanlab olingan ta'sirlar bu yerda bashorat va

tahlil qilinadi. Boshqa tomondan qaraganda, ta'sirlarning ahamiyatligini bashorat qilish va baholash natijalari AMBTB hujjatlarining asosini tashkil qiladi va ulardan mo'ljallanayotgan faoliyat to'g'risida loyihaviy, ma'muriy va boshqa qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi natijasida ta'sir ostiga tushadigan atrof-muhit komponentlarini o'rganish va tavsiflash hamda atrof-muhitda bo'ladigan o'zgarishlarning bashorati va tahlili odatda mutaxassislar tomonidan maxsus ilmiy usullardan foydalanish yordamida amalga oshiriladi.

## **4.1 Atrof-muhitni tavsiflash**

### **4.1.1. Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlarining tavsifi**


Atrof-muhit to'g'risida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishda AMBTB o'tkazilishini asosiy maqsadi mo'ljallanayotgan faoliyat bo'yicha qarorlar qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olish ekanligini esdan chiqarmaslik muhimdir.

Atrof-muhit holatini uzundan-uzoq tavsiflash qaror qabul qiluvchilar ishini yengillashtirmaydi. AMBTB jarayonida tabiiy muhitning qaror qabul qilish uchun kerakli bo'lgan komponentlari holatigina tahlil qilinishi etarli hisoblanadi. Shuning uchun ta'sirlar bashorati davomida to'liq o'rganiluvchi o'zgarishlar yuz beradigan atrof-muhit komponentlarinigina tanlab olish zarur. Bunda quyidagi savollarga e'tibor qaratish muhimdir:

- komponentlarning holatiga mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sir qiladimi?
- mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishga bu komponentlar ta'sir etadimi?
- ular jamaotchilik uchun qanday ahamiyatga ega?

Tabiiy muhitning mavjud holatini tavsiflashning faoliyatni ko'rilayotgan variantlari oqibatlarini to'liq tushunishga imkoniyat beradigan darajasi yetarli sanaladi. Mavjud holatni uzundan-uzoq tavsiflash atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonotni yaxshilamaydi.

Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi bayonotni tayyorlashda tabiiy sharoitni tavsiflash va atrof-muhit komponentlarini tanlash uchun tizimli jarayonni qo'llash tavsiya qilinadi (Canter L.W., 1996 y.) (4-rasm).



4-rasm. AMBTB hujjatlarida tavsiflanadigan atrof-muhit komponentlarini tanlab olish

Atrof-muhitni tavsiflanishi lozim bo'lgan komponentlarining ro'yxati mo'ljallanayotgan faoliyat va kutilayotgan ta'sirlarning turiga bog'liq.. Mo'ljallanayotgan faoliyat uchun avval bajarilgan dastlabki baholash hujjatlarini tahlil qilish atrof-muhitning qaysi tabiiy sharoitlari va komponentlarini tavsiflash zarurligini aniqlashda muhim rol o'ynashi mumkin. Atrof-muhitni tavsiflashga tayyorgarlik ko'rishda kutilayotgan ta'sirlar chegarasini yana bir bor aniqlashtirib olish lozim.

Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlarini tavsiflash bilan bir qatorda faoliyat amalga oshiriladigan hududdagi ijtimoiy-iktisodiy muhitning eng muhim tarkibiy qismlari aniqlanishi va tavisflanishi lozim. Chunki AMBTB o'tkazishda atrof-muhit bir butun tabiiy-ijtimoiy tizim sifatida qaraladi va atrof-muhitdagi o'zgarishlar aksariyat hollarda ijtimoiy-iktisodiy harakterdagi oqibatlariga olib keladi.

Atrof-muhitning hozirgi holati va uni o'zgarish tendentsiyalarini tahlil qilishda fond ma'lumotlari, adabiy manbalardan foydalanish, izlanishlar o'tkazish va o'z ma'lumotlarini to'plash mumkin.

Atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarning ko'p qismini davlat tashkilotlari, ilmiy muassasalar, oliy o'quv yurtlari va jamoat tashkilotlaridan olish mumkin.

4.1 -jadval - Atrof-muhit holati to'g'risidagi ma'lumotlarning ayrim manbalari  
(O'zbekiston sharoitida)

Tabiiy sharoit va atrof-muhit komponentlari	Ma'lumotlarni qaerdan olish mumkin
Atmosfera havosini ifloslanishi darajasi	Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Iqlim	Uzgidromet fond ma'lumotlari
Suv resurslari miqdori va sifati	Uzgidromet fond ma'lumotlari, qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Tuproq sharoitlari, o'simliklar	qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi
Resurslardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish	Makroiqtisodiyot vazirligi
Ijtimoiy-iktisodiy jihatlar va aholi sog'ligi	Statik hisobotlar, SES, aholi o'rtasidagi so'rovnomalar

AMBTB jarayonida tabiiy sharoit nafaqat ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinishi, balki jamoatchilikka va qaror qabul qiluvchi shaxslarga uning noyobligi, qadrliligi, nozikligi va boshqalar to'g'risida xulosa chiqarishga imkoniyat yaratadigan so'zlar bilan tavsiflanishi lozim. Masalan, ma'lum biologik turning yashash muhitini tavsiflashda, bu turning kamyobligi, uni yashash muhitini o'ziga xosligi va nozikligi kabi ma'lumotlar alohida ko'rsatilishi lozim.

Odatda atrof-muhitning amaldagi holati quyidagilar bilan taqqoslanadi.

- belgilangan standartlar bilan;
- umumiy muhit sifati bilan (mamlakat, mintaqa yoki dunyo miqyosida);
- ko'p yillik ma'lumotlar bilan;

#### 4.1.2. Atrof-muhit holatining o'zgarishi

AMBTBning mazkur bosqichdagi natijasi atrof-muhitning amaldagi holatini tahlil qilishgina bo'lmay, balki mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish tufayli atrof-muhitda yuz beradigan o'zgarishlarni bashorat qilish orqali atrof-muhitning kelajakdagi holati qanday bo'lishini tushunishdan iboratdir. Atrof-muhitning mavjud holati esa bashorat qilinayotgan holatning boshlang'ich hisoblash nuqtasigina sanaladi.

Atrof-muhitning kelajakdagi holati nafaqat insonning xo'jalik faoliyati, balki tabiiy jarayonlar tufayli o'zgarishi ham mumkin. Shuning uchun faoliyatning muqobil variantlari ko'rib chiqilayotgan vaqtda ushbu omil nazardan chetda qolmasligi lozim. Muhitdagi o'zgarishlar esa miqdoriy jihatdan ham, ahamiyatlilik jihatidan ham bo'lishi mumkin.

**Misol 1.** Rejalashtirilayotgan yo'l kottej qurilishiga ajratilgan bo'sh maydondan uzoq bo'lmagan joydan o'tadi. hozirgi kundagi holatda yo'lning ta'sirida yuzaga keladigan shovqinlar va ifloslanish jiddiy muammo tug'dirmaydi, lekin kelajakda qurilajak kottedjda yashovchilar katta noqulayliklarga duch kelishlari aniq.. Shuning uchun muhitning shovqindan ifloslanishi tahlili AMBTBga kiritilishi lozim va uning ahamiyatligini baholashda kelajakda qurilajak posyolkada yashovchi aholi uchun yuzaga keladigan noqulayliklar albatta hisobga olinishi zarur.

**Misol 2.** Yer osti suvga oluvchi inshooti qurilishi rejalashtirilyapti. Bu suv oluvchi inshoot hududdagi yer usti suvlari oqimlari va suvli-botqoq yerlar holatiga ma'lum darajada ta'sir etadi. Suv oluvchi inshootning bu yerlarning holatiga ta'sirini baholash uchun tabiiy o'zgarishlar dinamikasini maksimal darajada aniq baholash zarur. Aks holda bir necha yil yoki o'n yillar mobaynida yuz berayotgan tabiiy o'zgarishlar tarkibidan suv oluvchi inshootning ta'sirini ajratib olishning iloji bo'lmaydi.

Atrof-muhit holatining tabiiy o'zgarishlarini bashorat qilish ancha qiyin vazifa sanaladi. Bu o'zgarishlarni baholash uchun izlanishlar o'tkazish katta miqdordagi resurslar va vaqtni, ba'zi hollarda esa boshqa harajatlarga nisbatan bir necha marta ko'p mablag'larni talab qiladi. Shuning uchun, amaliyotda kuzatuv ma'lumotlari yetishmagan ko'pgina holatlarda bashoratlash aniqligini pasaytirish hisobiga tadqiqotlar hajmi cheklanadi.

#### **4.2. Ta'sirlarning xarakteri, kattaligi va ahamiyatligi**

AMBTB jarayonida atrof-muhitga ta'sirlarni bashorat qilish loyihaviy, boshqaruv va boshqa qarorlarni qabul qiluvchi shaxslar hamda manfaatdor tomonlar uchun axborotlar tayyorlash vositasidir. Ta'sirlarni baholash natijalariga suyanib qaror qabul qiluvchi hukumat organlari, shaxslar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar mo'ljallanayotgan faoliyatning tavsiya qilinayotgan variantlaridan (faoliyatdan voz kechiladigan variant ham) qay biri afzalroq ekanligi to'g'risida fikr yurita oladilar.

Atrof-muhitga ta'sirlarni bashorat qilishni amalga oshirish uchun potentsial ta'sirlarning tahlili qanday o'tkazilishi lozimligini aniqlab olish muhimdir. Bunda avvalo AMBTBda "ta'sir" so'zi nimani anglatishini aniq belgilab olish lozim. Odatda "ta'sir" so'zi ishlatilganda u yoki bu narsaning ta'siri ko'zda tutiladida, hodisa yoki jarayonning oqibati qamrab olinmaydi. Mo'ljallanayotgan faoliyatni tahlil qilish jarayonida "ta'sir" deganda ifloslantiruvchi moddalarning tashlanayotgan miqdorlari, chiqindilarning miqdori, suv olish hajmi, foydalanishdan chiqarilayotgan yer maydonlari va boshqalarni nazarda tutish mumkin.

AMBTB endi o'tkazila boshlagan dastlabki davrlarda kiritilgan ingliz tilidagi "impact" ya'ni "ta'sir" atamasi "nima ta'sir etadi" va "oqibatda nima sodir bo'ladi" degan ma'nolarni birgalikda anglatadi. Shunday qilib, ta'sirlarni tahlil qilish yoki baholash nafaqat "turli chiqindi va tashlamalar,

olinadigan resurslar nimaga ta'sir etishi"ni bashorat qilish va tavsiflashni, balki ular oqibatlarni, ya'ni "ta'sir omillarini" ta'siri natijasida atrof-muhitda, aholi sog'ligi va turmush kechirish sifatida yuz beradigan o'zgarishlarni ham o'z ichiga oladi. Mo'ljallanayotgan faoliyatning amalga oshirilishi oqibatida yuzaga keladigan ana shu o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar mazkur faoliyatga taalluqli qarorlarni qabul qilish uchun eng muhim hisoblanadi.

*Mo'ljallanayotgan faoliyatning ko'lamini bilishning o'zigina qaror qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olishga yordam bermaydi.* Yuqorida keltirilgan suv olish inshooti misolida ko'rib chiqadigan bo'lsak, inshootning umumiy ko'rsatkichlarini, masalan, rejalashtirilayotgan suv olish hajmini bilishning o'zi masalan, ob'ekt qurilishi uchun bank tomonidan kredit ajratish kabi qarorlarni qabul qilishda) ekologik omillarni hisobga olmaydi. Buning uchun, muayyan hajmdagi suvni ma'lum vaqt birligi ichida olinishi tufayli atrof-muhitda yuz beradigan o'zgarishlarni bilish talab qilinadi. Bunda o'zgarishlarni avvaldan aytib berish uchun sabab-oqibat aloqalarini kuzatish, atrof-muhitning bir xil komponentlaridagi o'zgarishlar boshqa komponentlarda qanday o'zgarishlarga olib kelishini, ya'ni bilvosita ta'sirlarni tahlil qilish lozimdir.

Biroq mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirilishi natijasida atrof-muhitda yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlar (daryo suvining kamayib ketishi, botqoqlashgan hududlar maydonining qisqarishi) to'g'risidagi ma'lumotlar qaror qabul qiluvchilar uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Muammoni to'g'ri yechish uchun baholashning ta'sirlar ahamiyatliligi yoki ta'sirlarning muhimligi kabi maxsus bosqichlari mavjud. Bizning misolda, suv oluvchi inshoot hududida suvli-botqoqli yerlar maydonining qisqarishi kritik omil sifatida qaralmaydi, sababi ta'sir mintaqasining yaqinida bunday yerlarni maxsus muhofaza qilish uchun katta milliy bog' yaratilgan. Shunday qilib barcha aniqlangan ta'sirlar uchun ularning harakteri tahlil qilingan hamda kattaligi va ahamiyatliligi baholangan bo'lishi lozim.

#### **4.2.1. Ta'sirlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish**


Ta'sirlarni bashorat qilish odatda atrof-muhitning alohida komponentlari bo'yicha amalga oshiriladi. Keyinchalik turli muhitlardagi qanday o'zgarishlar o'zaro aloqada bo'lishi va atrof-muhitga ta'sirlarning barcha komponentlar bo'yicha umumiy ahamiyatliligi tahlil qilinadi.

Odatda atrof-muhitning:

- 1) havo muhiti;
- 2) suv muhiti (yer usti suvlari);
- 3) tuproqlar va yer osti suvlari;
- 4) shovqin muhiti;
- 5) ekotizimlar, o'simlik va hayvonot dunyosi;
- 6) landshaft va ko'z oldimizdagi muhit;
- 7) ijtimoiy-iqtisodiy holat, shu bilan birga aholi sog'ligi ham;
- 8) madaniy-tarixiy meroslar kabi komponentlarga bo'ladigan ta'sirlar baholanadi



Amerikalik olim Kanter (Canter L.W., 1996) ta'sirlarni bashorat qilishning olti bosqichlik ish tartibini tavsiya qilgan (5-rasm) va ta'sirlari ahamiyatini baholash va kamaytirish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish uchun yuqorida ko'rsatilgan atrof-muhit komponentlarining birinchi ettisidan foydalangan (4.2-jadval).



5-rasm. Ta'sirlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish sxemasi

## 4.2-jadval - Ta'sirlarni tahlil qilish tartibi

	<b>Xavo muhiti</b>	<b>Yer usti suvlari</b>	<b>Tuproqlar va yer osti suvlari</b>	<b>Shovqin bilan ifloslanish</b>	<b>O'simlik va hayvonot dunyosi</b>	<b>Ijtimoiy iqtisodiy ta'sirlar</b>
<b>Yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlarni aniqlash</b>	Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar turlari va miqdorini hamda ularning ta'sirlarini aniqlash	Suv manбайдan olinadigan toza suv va suv muhitiga tashlanadigan chiqit suvlarning miqdorini aniqlash	Tuproq unumdor qatlamini olib tashlash, Axlatlarni joylashtirish, Yer osti suv manбайдan olinadigan toza suv miqdorini aniqlash	qurilish davrida (qurilish texnikasining turlari), shovqinlar Ob'ektni ekspluatatsiya qilish davridagi (uskunalarning turlari) shovqinlar	Yerlarni egallab olish, Ekotizimlarga toksikantlarni tushishi Shovqin va boshqa turdagi aziyatlar Boshqa turdagi o'simlik va hayvonlarning kelib qo'shilishi	Ish o'rinlari soni (qurilish va ekspluatatsiya), faollikka ta'sir Jamoatchilik fondlaridan to'lovlar va ushbu fondlariga tushumlar Yerdan foydalanishdagi o'zgarishlar va kelgusidagi qurilishlar Ko'chmas mulk narxlarining o'zgarishi Sanitar-epidemiologik holatga ta'sir, kommunal xo'jalik, transport, ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqalarga ta'sir Rekreatsiya (dam olish) imkoniyatlariga ta'sir
<b>Mavjud sharoitlarni tavsiflash</b>	Ta'sir mintaqasini aniqlash Mavjud ob-havo sharoitlari va havo muhitini ifloslanganlik darajasini aniqlash	Mavjud suv oqimi miqdori, suv sifati va suvdan foydalanish turlarini baholash	Tuproq tiplari va yerdan foydalanish, Hidrogeologik sharoitlar va yer osti (grunt) suvlaridan foydalanish	Shovqinning mahalliy sharoit uchun odatiy darajasi; o'lchash ma'lumotlari Aholining joylashuvi	Ta'sir rayonidagi biologik turlar ro'yxati, bioxilma-xillik, kam uchraydigan turlar, Yashash muhitini tavsifi, biotoplar, ekotizimlar va suktessiyalar	“Ta'sir mintaqasini” (masalan, ma'muriy tuman) aniqlash Ta'sir mintaqasidagi ijtimoiy iqtisodiy va demografik holat bo'yicha statistik ma'lumotlarni yig'ish
<b>Mavjud talab va qoidalar bilan tanishish</b>	havo bo'yicha REM, iflosliklarni tarqalishini hisoblash bo'yicha yo'riqnomalar	Suv bo'yicha REM, suvdan foydalanish bo'yicha chegaralashlar	Yer va yer osti suvlaridan foydalanish bo'yicha chegaralashlar	Shovqinning REMlari, JSST standartlari	AMqqlar, hayvonlar va o'simliklarni himoya qilish choralarining mavjudligi	Sanitar-gigienik talablar suv ta'minoti, kanalizatsiya tarmoqlarini tashkil etish bo'yicha talablar
<b>Ta'sirlar kattaligini oldindan aytib berish</b>	Massalar balansi modellari va tarqalishlar modellarini	Massalar balansi usuli, aralashib ketish modeli, suv ekotizimlari	Suv sifatatini aniqlash metodlari (shunga o'xshash loyihalar)	Shovqin tarqalishi modellari (turli darajadagi)	Sifat uslublari (yashash joylarining tahlili va mo'ljallanayotgan faoliyatning ularga	Tavsif uslublari (miqdor va sifat) Iqtisodiy modellar Xuddi shunday loyihalar

	Xavo muhiti	Yer usti suvlari	Tuproqlar va yer osti suvlari	Shovqin bilan ifloslanish	O'simlik va hayvonot dunyosi	Ijtimoiy iqtisodiy ta'sirlar
	qo'llash	modellari			ta'sirlari) Ekotizimlarning miqdoriy modellari Xuddi shunday loyihalar ta'sirlarini tahlili	ta'sirlari Rivojlanish muqobil variantlarini taqqoslash
	Iflosliklarni muhitlararo taqsimlanishi va transformatsiyasi modellari					
<b>Ta'sirlar ahamiyatligini baholash</b>	Ta'sirlarni standartlar bilan taqqoslash Aholining kritik guruhlari, ekotizimlarning nozik retseptorlari va madaniy merosga bo'ladigan ta'sirlarni aniqlash	Ta'sirlarni standartlar bilan taqqoslash Kritik suv ekotizimlari, suvdan foydalanish turlariga ta'sirlar	<b>Yer va yer osti suvlaridan foydalanish bo'yicha talablar bilan taqqoslash</b>  Tuproq maydonlar yo'qotilishini ekspert bahosi	Ta'sirlarni standartlar bilan taqqoslash Aholi uchun mumkin bo'lgan shovqin darajasi turini (o'xshash loyihalar bo'yicha) Ekotizimlarga ta'sirlar	Turlarning kamyobligi Turlarning ekotizimdagi rollari Ekotizimlarning noyobligi Ekotizimlarning ta'sirchanligi/ barqarorligi Turlarning iqtisodiy jihatdan qadriligi	Talab va standartlar bilan taqqoslash Rayon uchun geografik jihatdan belgilangan o'rtacha kattalik bilan taqqoslash Davomiylik, ta'sir ostiga tushgan aholi, ta'sirlarning ortga qaytuvchanligi hamjamiyat uchun ahamiyatligini baholash
<b>Ta'sirlarni yumshatish chora-tadbirlarini aniqlash va loyihaga kiritish</b>	Betartib chiqindi chiqarishni kamaytirish Axlatlarni yoqishni chegaralash Tartibli chiqarilayotgan chiqidilarni tozalash Yo'llarda avtomobillar (dvigatellar) va yoqilg'i turlarini chegaralash	Suvdan samarali foydalanish sxemalari Chiqit suvlarni - -tartibsiz tashlashni kamaytirish Eroziyani bartaraf qilish Tozalash inshootlari Chiqit suvlarni yig'ish va tozalashni tashkil etish	Eroziyani nazorat qilish, yerdan aylanma foydalanish, tuproq rekultivatsiyasi Suv ist'emol qilish samaradorligi Yer osti suvlariga tushadigan iflosliklarni chegaralash	Shovqindan himoya to'siqlari qurilish ishlari grafigi. Texnika va uskunalar uchun standartlar ob'ektni joylashtirish, inshootlarni loyihalash	Ta'sirlarni bartaraf qilish (masalan, o'tish zonalari) Oqibatlarni yumshatish (masalan rekultivatsiya yoki yangi o'rmonzorlar barpo qilish)	Ta'sir turiga bog'liq bo'lib o'z ichiga tabiiy atrof-muhitga bo'ladigan turli (ijtimoiy –iqtisodiy oqibatlariga olib keluvchi) ta'sirlarni yumshatish tadbirlari olishi mumkin. Kommunal va mahalliy xizmatlarni yaxshilash bo'yicha tadbirlarni, mahalliy byudjetga badallar ham o'z ichiga olishi mumkin va boshqalar

4.2-jadval atrof-muhitning yuqorida tilga olingan yetti komponenti uchun mo'ljallangan bosqichlarning mazmunini qisqacha ifodalaydi. Tarixiy-madaniy merosga ta'sirni baholash boshqacharoq o'tkaziladi, chunki ta'sir hududidagi tarixiy-madaniy ob'ektlarni aniqlamasdan turib mo'ljallanayotgan faoliyatning potentsial ta'sirlarini aniqlash mumkin emas. Faoliyatning tarixiy-madaniy ob'ektlarga ta'sirini kamaytirish esa odatda faoliyat amalga oshiriladigan hududni, faoliyat mazmunini o'zgartirishgacha olib keladi.

Tarixiy-madaniy merosga ta'sirni baholash odatda quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

Birinchi bosqich o'z tarkibiga tarixiy-madaniy, diniy yodgorlik va ob'ektlar kabi ma'lum madaniy, tarixiy va arxeologik resurslar ro'yxatini oladi. Ular to'g'risidagi ma'lumotlarni mahalliy xokimiyat, tarixiy-madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish jamiyati, yodgorliklarni davlat ro'yxati, oliy ta'lim yurtlari va ilmiy muassasalardan olish mumkin.

Ikkinchi bosqich –ro'yxatga kiritilmagan, lekin mahalliy aholi uchun va kichik sonli millatlar uchun ahamiyatliligi katta bo'lgan madaniy va boshqa resurslarni aniqlashga bag'ishlanadi. Bu ma'lumotni dala usullari (mahalliy aholidan so'rab-surishtirish, maydonchalarni ko'rish va boshqalar) yordamida olish mumkin.

Uchinchi bosqida rejalashtirilyotgan faoliyat ta'sir etadigan tarixiy-madaniy ob'ektlarning ahamiyatliligi aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda aniqlangan ob'ektlarni tarixiy-madaniy yodgorliklar toifasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

To'rtinchi bosqichda rejalashtirilyotgan faoliyatni amalga oshirishning qurilishdan to' ekspluatatsiyadan chiqarilgunga qadar barcha bosqichlarda tarixiy-madaniy merosga ko'rsatadigan ta'sirlari aniqlanadi. Ushbu ta'sirlar bevosita (masalan, tarixiy binoni buzib tashlash) va bilvosita (masalan, faoliyat ta'sirida bo'ladigan tuproq eroziyasi, uning oqibatida esa arxeologik ob'ekt nuraydi), hamda ahamiyatli va ahamiyatsiz bo'lishi mumkin.

Beshinchi bosqichda muqobil variantlar orasidan afzali tanlanadi yoki ta'sirlarni kamaytirish choralari ko'riladi (masalan, loyiha miqyosini o'zgartirish, yodgorliklarni saqlash, qayta tiklash va muhofaza qilish (buzib tashlash o'rniga, ob'ektlarni boshqa yerga o'tkazish, arxeologik qadriyatlarini asrab qolish. Bundan tashqari, agar mo'ljallanayotgan qurilish arxeologik topilmalar bo'lishi mumkin bo'lgan hududda olib borilayotgan bo'lsa (arxeologik topilmalar AMBTB jarayonida aniqlanmagan bo'lsa ham) qurilish va ekspluatatsiya jarayonida arxeologik qadriyatlar chiqib qolishini hisobga oluvchi harakatlar rejasini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

#### **4.2.2. Ta'sirlar bashorati to'g'ri bajarilganligini baholash**

Yuqorida aytilganidek ta'sirlar bashoratini har bir sohaning o'z mutaxassislari bajarishlari mumkin. Shu bilan birga AMBTB jarayonining tashkilotchilari va uning sifatini nazorat qiluvchilar ham ta'sirlar bashorati qanchalik to'g'ri bajarilganligini baholay bilishlari lozim.

Bunda ular quyidagi savollarga javob izlashlari lozim:

1) Ta'sirlar umuman bashorat qilinganmi?

Ko'pchilik hollarda faoliyat tashabbuskorlari amaldagi me'yor va standartlarga asoslanib faqat nima ta'sir etishini, ya'ni ta'sir manbalari va omillari (axlatlar, oqovalar, resurslar va yerlarni muomaladan chiqarish va boshqalar) hisobinigina bajaradilar. Bunda mazkur omillar ta'sirida atrof-muhitda va insonlar sog'lig'ida ro'y beradigan o'zgarishlar va ushbu o'zgarishlarning ahamiyatliligi kabi masalalarga yetarli e'tibor berilmaydi.

*Misol. Axlat yondiruvchi zavodni loyihalashda atrof-muhitga chiqarib tashlanadigan dioksinning miqdori yiliga 14 g deb baholangan. Ammo dioksinning bu oqimi inson salomatligi uchun qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini buyurtmachi ham, bajaruvchi ham hujjatlarda ko'rsatishmagan (aslida bu miqdor Gollandiyadagi har qanday axlat yondiruvchi zavodning bir yilda tashlaydigan chiqindilari miqdoriga teng xolos).*

2) qanday ta'sirlar bashorat qilingan, o'ta ahamiyatlilarimi yoki ikkinchi darajalilarimi?

Ma'lumki mo'ljallanayotgan faoliyatning barcha ta'sirlarini tahlil qilishni iloji yo'q.. Shuning uchun atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning samarali bo'lishi uchun butun e'tiborni eng muhim ta'sirlar tahliliga qaratish maqsadga muvofiqdir. Biroq katta hududlarga ta'sir etuvchi faoliyatlar oqibatlarining bashorati hamda bilvosita, yig'ilib boruvchi va qiyin aniqlanadigan ta'sirlarning tahlili texnik jihatdan murakkab va ko'p mablag' talab qilishi, hamda mo'ljallanayotgan faoliyatini zararli qilib ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ko'p hollarda bajaruvchi ikkinchi darajali ta'sirlarni aniq tahlil qilib, ahamiyatlilarni e'tibordan chetda qoldiradi. Ana shuning uchun ham ta'sirlar tahlilining aniqligi ularning potentsial jihatdan jiddiyligiga qay darajada mos kelishini nazorat qilish muhimdir.

3) Ta'sirlar bashorati miqdoriymi yoki sifat ko'rsatkichlari bo'yicha bajarilganmi?

Bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablar mavjudligi tufayli ta'sirlarni miqdoriy jihatdan aniq bashorat qilishning imkoni yo'q bo'lishi mumkin. Masalan, tarixiy-madaniy meroslarga ta'sirlar kabi ayrim ta'sirlarni miqdoriy jihatdan ifodalab bo'lmaydi. Biroq ta'sirlarni miqdoriy jihatdan bashorat qilinmaganligiga tashabbuskorning ta'sirlarni haqiqiy miqyosini ko'rsatishni hohlamasligi yoki murakkab usullarni qo'llashga sarflanadigan harajatlardan qochishi kabi sub'ektiv omillar ham sabab bo'lishi mumkin. har ikki sub'ektiv holat ham ta'sirlarni faqat sifat jihatidan baholanishiga olib keladi va bunday baholashda asosan umumiy ifodalashlar ishlatiladi, masalan, "noyob turlarga ta'sir unchalik yuqori emas" kabi. AMBTB hujjatlari sifatini nazorat qilishda doim miqdoriy bashorat mavjud

imkoniyat va zaruriyat doirasida o'tkazilishi kerakligiga e'tibor qaratish lozim.

4) Ta'sirlar bashorati uchun qanday usullardan foydalanilgan?

To'g'ri kelmaydigan usullardan foydalanish inson, moliyaviy va axborot resurslarining yetishmasligi hamda ta'sirning haqiqiy miqyosini ko'rsatishga istak yo'qligi bilan bog'liq sanaladi.

*Misol.* Avtoyo'lni qayta ta'mirlash bo'yicha bir xalqaro loyihaning TIA bosqichini «Atrof-muhitga ta'sirlarni baholash» qismida flora va faunaga ta'sir ko'rib chiqilgan. Loyiha matniga ovchilar va atrof-muhit muhofazasi qo'mitalaridan hayvonot va o'simlik turlarining tarqalishi haqida olingan ma'lumotnomalar kiritilgan. Mualliflarning o'zlari esa tadqiqot usuli sifatida loyiha amalga oshiriladigan hududga safar uyushtirishgan. Ta'sirlarni biologik turlar uchun sezilarli yoki sezilarli emasligi to'g'risidagi ularning baholash xulosalarini esa, aynan «biz yo'ldan avtomobilda ketayotganimizda yovvoyi hayvonlar yo'l yuziga chiqmadi va uning yaqinida ham ko'rinmadi» tarzida ifodalash mumkin xolos.

### **4.3. Ta'sirlar ahamiyatligini baholash**

Faoliyatni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash jarayonida shunday vaziyatlar yuzaga keladiki, bunda kutilayotgan ta'sirlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini aniqlash lozim bo'ladi, masalan:

- mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash to'g'risida qaror qabul qilish vaqtida kutilayotgan ta'sirlar to'liq tadqiq qilinishi uchun yetarli darajada ahamiyatli ekanligini baholash lozim.
- to'liq o'rganilishi lozim bo'lgan ta'sirlarni aniqlashda ham xuddi shunday muammo paydo bo'ladi, ya'ni ekspert guruhiga maxsus shug'ullanadigan mutaxassisni taklif qilish uchun ta'sirning ahamiyatligini aniq bo'lishi lozim.
- muqobil variantlarni tanlash yoki ta'sirlarni yumshatish choralarini belgilashda, ta'sirlarni ahamiyatligini ularni bartaraf qilish va yumshatish bo'yicha choralarni amalga oshirish uchun sarflanadigan qo'shimcha sarf-harajatlarni oqlaydimi degan savolga javob berilishi lozim.
- hukumat organlari tomonidan AMBTB ob'ekti yuzasidan qarorlar qabul qilishda, mo'ljallanayotgan faoliyat amalga oshirilishi natijasida keladigan ijtimoiy-iqtisodiy foyda bashorat qilinayotgan ekologik zarardan balandmi va bu zarar qanchalik ahamiyatli degan savollarga javob topish lozim bo'ladi.
- jamoatchilik va boshqa manfaatdor (mutaxassis bo'lmagan) shaxslarga AMBTB xulosalari to'g'risida axborot berishda ta'sirlar ahamiyatligini aniqlashning o'ziga xos muammolari yuzaga keladi. Odatda, ilmiy tadqiqotlar natijasida olingan raqamlar (masalan, loyihani amalga oshirish oqibatida 900 ga maydondagi jarliklarning maydoni 15 yil ichida 20 % ga ortishi mumkin) jamoatchilikka kamdan-kam narsani anglatadi, ya'ni ular ushbu hodisaning qanchalik ahamiyatligini

bilishnigina istaydilar, buning uchun AMBTB xulosalari umum qabul qilingan qadriyat va mezonlar asosida ifodalanishi lozim. Xuddi shu ifodalash jarayoniga ta'sirlarni ahamiyatliligini baholash deyiladi.

### **Ta'sirlar ahamiyatliligini baholash usullari**

Ta'sirning ahamiyatliligi uning turi (shovqin, radiatsiya, ayrim moddalarni havoga chiqarib tashlash va boshqalar), fizik kattaligi va uni paydo bo'lish ehtimolligi bilan bevosita bog'liqdir. Kattalik tushunchasi bir necha omillarni o'z ichiga oladi, ta'sir tezligi (masalan, KBT5 ko'rsatkichi daryoda 10 m<sup>2</sup>/1 gacha ko'tarilishi), ta'sir ko'rsatish muddati, ta'sirning tarqalish miqyosi. Bunda ta'sirlarni tarqalish miqyosi mazkur omilning ta'siriga uchrayotgan maydon ko'rinishida (masalan, radiatsion darajaning ortishi aniqlangan xukukning maydoni) ham, aholi soni ko'rinishida ham hamda jamiyat uchun qadri bo'lgan maxsus muhofaza qilinadigan hudud, madaniy yodgorliklar va boshqalarning mavjudligi tarzida ham baholanishi mumkin.

Ta'sirlar ahamiyatliligini baholash bo'yicha bir necha usullar mavjud. Ta'sirlar ahamiyatliligini baholashning eng sodda va keng qo'llaniladigan usuli ularni universal standartlar bilan solishtirish usuli hisoblanadi. Standartlar miqdoriy (masalan, ifloslantiruvchi moddalarning ruxsat etilgan miqdorlari) yoki sifat me'yorlari (masalan, maxsus muhofaza qilinadigan hududlarda yoki madaniy yodgorliklar atrofida xo'jalik faoliyatining ayrim turlariga qo'yiladigan chegaralashlar) ko'rinishida bo'lishi mumkin.

- Ammo, ahamiyatlilikni baholash uchun standartlarni qo'llashning chegaralangan ekanligini esda tutish lozim:
- ko'p ta'sir turlari uchun standartlar mavjud emas;
- ko'pchilik standartlar taxminiy ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan, shuning uchun ularning qo'llanish sohalari chegaralangan;
- standartlar «ta'sirning boshlanish nuqtasi» tushunchasiga asoslangan, ammo ko'pchilik ta'sir turlari chegara qiymatiga ega emaslar va ta'sir ularning o'ta kichik qiymatlarida ham yuz berishi mumkin;
- standartlar to'g'ridan-to'g'ri bo'lmaydigan ta'sirlar va yig'ilib boruvchi ta'sirlarni hisoblash olish uchun to'g'ri kelmaydi;
- standartlarni aniq bir sharoitga xarakterli bo'lgan o'ziga xoslikni hisobga olish uchun kamdan-kam hollarda qo'llash mumkin.

Ta'sir kattaligini aniqlash usullarining yana biri ko'rilayotgan parametrning qiymatini uning mazkur hududdagi o'rtacha qiymati bilan solishtirish usulidir. Ushbu usul ahamiyatlilikni baholashda mahalliy sharoitni hisobga olish imkonini beradi. Masalan, AMBTB xulosasida «loyiha natijasida 15 ga yerdagi daraxtlar yo'q qilinadi» deyilsa ta'sirning ahamiyatliligi to'g'risida tasavvur qilish ancha qiyin, agar xuddi shu narsa mazkur hujjatda «loyiha natijasida tumandagi daraxtzorlarning 28 % i yo'q qilinadi» deb yoziladigan bo'lsa ta'sirning ahamiyatliligini baholash ancha yengillashadi.

Atrof-muhit holati parametrlari ko'rsatkichlarini mazkur hududdagi tabiiy holat ko'rsatkichlari bilan solishtirish usuli yuqoridagi usullarga yaqin usul sanaladi.

**Ta'sirlar kattaligini ham standartlar, ham xarakterli ko'rsatkichlar bilan solishtirish** usuli ta'sirlar ahamiyatliligini baholashning ob'ektiv usuli sanaladi. Ayni vaziyatda ta'sirlarning ahamiyatliligini ularni ijtimoiy qadriyatlar va turli manfaatdor tomonlarning manfaatlari bilan solishtirmay baholab bo'lmaydi.

### **Ta'sirlar ahamiyatliligini baholashning me'yorlashtirish va darajalash usuli**

Ta'sirlar kattaligini standartlar va xarakterli ko'rsatkichlar bilan solishtirish faqatgina bir turdagi ta'sir ahamiyatliligini baholash imkonini beradi. Bunday baholash asosida AMBTBning muayyan bosqichida ta'sirni keyinchalik batafsil ko'rib chiqiladigan ta'sirlar sirasiga kiritish yoki uni yumshatish bo'yicha choralar ishlab chiqilishi to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin. Turli tabiatli bir necha ta'sirlarni umumiy ahamiyatliligini baholash uchun esa boshqacharoq ish tutish lozim bo'ladi. Bunday extiyoj odatda mo'ljallanayotgan faoliyat amalga oshirilishining bir necha muqobil variantlari yoki loyiha qarorlari variantlarini ularni atrof-muhitga ta'sirlari nuqtai-nazaridan taqqoslash lozim bo'lgan paytlarda tug'iladi. Atrof-muhitga ta'sirlarning nafaqat kattaliklari balki ularning xarakteri ham variantlar orasida biri-biridan keskin farq qilishi va variantlar orasida ta'sirning barcha turlari kichik bo'ladigani umuman uchramasligi mumkin.

Turli parametrlarga turli "daraja"lar berish bu turli tabiatli ko'rsatkichlardan qay biri muhimroq ekanligini aniqlash jarayonidir. Ba'zilar me'yorlashtirishni mutaxassislar (chunki ular aholi sog'ligi va ekotizimlar barqarorligi uchun qaysi parametrlar zarurligini yaxshi bilishadi) o'tkazgani ma'qul deyishadi, lekin ta'sirlar ahamiyatliligini aniqlash qarorlar qabul qilishga olib boruvchi jarayon ekanligini hisobga olsak qaror qabul qilishni texnik mutaxassislarga ishonish to'g'ri bo'larmikin. Jamiyatdagi turli guruhlarining fikri hatto suv havzasi uchun suvdagi kislorod miqdori va uning sho'rligidan qay biri muhim degan masalada ham turlichadir (masalan baliqchilar kislorod muhim deyishsa, chorvachilar suvning sho'rligi muhim deyishadi). Shuning uchun suv yoki havoning ifloslanishidan qaysi biri muhimroq ekanligi to'g'risida turli kelishmovchiliklar bo'lishi mumkin.

Shuning uchun shunday yondoshuvlar mavjudki, bunda mutaxassis ekspertlar faqat ayrim nisbatan bir-biriga o'xshash parametrlarga, qolgan turli tabiatli ta'sirlarga esa aholining turli qatlamlari va manfaatdor tomonlar daraja belgilaydilar.

Ushbu yo'nalishdagi masalalarni yechish uchun bir qator usullar ishlab chiqilgan bo'lib ulardan biri o'zida ta'sirlarning ob'ektiv tavsifi va ijtimoiy ahamiyatini mujassamlashtirgan "me'yorlashtirish va darajalash" usulidir.



Bu usul davomida bashorat qilinayotgan ta'sirlar avval me'yorlashtiriladi, ya'ni yagona shkala bo'yicha o'lchamsiz ko'rsatkichga keltiriladi. Masalan ifloslantiruvchi modda kontsentratsiyasining REM yoki shu parametrlarning hududdagi tabiiy qiymatiga nisbati aniqlanadi.

Navbatdagi bosqichda nisbatlari aniqlangan parametrlarga muhimligiga qarab darajalar beriladi. Masalan, yuqorida tilga olingan suv havzasida gidrologik rejimning o'ziga xosligi va baliqlarni o'lishi hodisalari bilan bog'liq sanalgan kislorod kontsentratsiyasining kamayishi mineralizatsiyaning oshishiga nisbatan juda ahamiyatli jihatdir. Shuning uchun suvdagi kislorodni kontsentratsiyasi - 3, suvning mineralizatsiyasi esa -1 darajasini oladi.

Keyingi bosqichda me'yorlashtirilgan ko'rsatkichlar ularni darajalariga ko'paytiriladi va ular o'zaro qo'shiladi. Bunday qo'shish tabiiy muhitning har bir alohida komponenti uchun yoki hamma komponentlari uchun bajarilishi mumkin. hisob-kitoblarning natijasi ko'rilayotgan variant uchun ta'sirlar ahamiyatliligining miqdoriy qiymati hisoblanadi va u xuddi shunday tartibda hisoblangan boshqa variantlar ta'sirlarining ahamiyatliligi ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Taqqoslash natijasida esa eng maqbul variantni tanlab olish uchun xizmat qiladi.

Ta'sirlar ahamiyatliligini aniqlash usullarini ishlab chiqishda noaniqlik, tushunish muommasi va manfaatlar nizosi kabi qiyinchiliklarga ham to'qnash kelish mumkin.

Noaniqlik. Tabiiy tizimlardagi o'zgarishlarni yetarli darajadagi aniqlikda bashorat qilish uchun bilim va resurslar doim ham yetarli bo'lavermaydi. Buning ustiga mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sir etayotgan tizimlar sof tabiiy bo'lmay, balki tabiiy ijtimoiydir, bu esa vazifani yanada murakkablashtiradi.

Tushunish muommasi ta'sirlarning ahamiyatliligini o'zlari uchun ahamiyati yo'q shaxslar tomonidan aniqlanishi mumkin emasligi bilan bog'liq. Ahamiyatlilikni aniqlash ta'sirlarning mohiyatini to'g'ri tushunish va ularni hayotning ma'lum tomonlari bilan solishtirish bilan bog'liq. Afsuski tor doiradagi mutaxassislik va mavjud holat to'g'risida kam tasavvurli shaxslar tomonidan qarorlar qabul qilish amaliyoti tushunish muammosini yanada murakkablashtiradi.

Manfaatlar nizosi ta'sirlar ahamiyatliligini aniqlashdagi eng jiddiy to'siq hisoblanadi va u doimo "kim uchun ahamiyatli?" degan savol tufayli yuzaga keladi. Yangi yo'l qurilishi natijasida qishloq hovuzi yo'qolib ketishining ahamiyatliligi shu qishloq aholisi uchun juda katta bo'lgani holda, mazkur yo'l tutashtiruvchi ikki shahar aholisi uchun esa ahamiyatsizdir.

Garchi ta'sirlar ahamiyatliligini aniqlashning barcha tomonlar uchun to'liq mos keladigan yo'li bo'lmasada, uning ba'zi umumiy tamoyillari ishlab chiqilgan:

1. Miqdoriy usullardan vosita sifatida foydalanish. Miqdoriy usullar (standartlar bilan taqqoslash, me'yorlashtirish va darajalash) ahamiyatlilikni aniqlashda soxta ob'ektivlikni yuzaga keltirishi mumkin. Ularning

ahamiyatini oshirib yuborish va qaror qabul qilishni darajalash va standartlarni hisobga olishlar bilan almashtirish mumkin emas. Miqdoriy usullar AMBTBni amalga oshiruvchi ekspertlar, qaror qabul qiluvchi shaxslar va jamoatchilik bir-birlarini o'zaro tushunishlari uchun vosita sifatidagina xizmat qiladi. Ular yordamida keraksiz ma'lumotlar tashlab yuborilishi va manfaatdor tomonlarning e'tibori haqiqatda muhim hisoblangan muammolarga jalb qilinishi mumkin.

2. Manfaatdor tomonlarni jalb qilish. Ahamiyatlilikni baholashda manfaatdor tomonlarning, birinchi navbatda mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sir etadigan tomonlarning fikri to'liq e'tiborga olinishi lozim. Manfaatlarni tomonlar orasidagi nizolar va jamiyatning turli guruhlari o'rtasidagi kelishmovchiliklar miqdoriy usullar bilan yashirilmay, qaror qabul qiluvchi shaxslar va jamoatchilikka ochiqdan-ochiq ma'lum qilinishi lozim. Bunday vaziyatlarni hal qilishning eng to'g'ri yo'li hisob-kitoblarni aniq bajarish emas, balki manfaatdor tomonlar bilan muhokama, kelishuv va barchani qanoatlantiradigan yechimlarni izlashdir.

### **Ta'sirlar ahamiyatlilikini baholashning sifati**

Ta'sirlarning ahamiyatlilikini AMBTB jarayonida qanchalik sifatli baholanganligini quyidagi mezonlar yordamida aniqlash mumkin:

- Ta'sirlarning ahamiyatlilikini va ularning kattaligi o'rtasida aniq chegara mavjud.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashlar ko'pchiligining kamchiligi ularning mualliflari ta'sirlarning ahamiyatlilikini aniqlashga ham urinmay bashorat qilayotgan kattaliklarni ko'rsatish bilan chegaralanishidir. Bunday holatda AMBTB o'zining asl vazifasini bajarmaydi, chunki ta'sirlarning kattaligini ularning ahamiyatlilikini aniqlamay bashorat qilish ekologik jihatdan to'g'ri sanaladigan qarorlar qabul qilishga imkon bermaydi.

- Ahamiyatlilikni aniqlash usuli hamda uning doirasida qilingan barcha taxmin, birlamchi shart va yo'l qo'yilgan chegaralashlar aniq ifodalangan.

Ahamiyatlilikni aniqlashning keng tarqalgan kamchiliklaridan biri foydalanilgan usullarning noaniqligidir. Misol: "Loyihani amalga oshirish natijasida havoda faqat suv bug'larining miqdori ortadi xolos, bu arzimagan ekologik oqibatdir". Muallif qanday qilib bunday xulosaga kelganligini hech ham tushuntirib bo'lmaydi.

- Ahamiyatlilikni aniqlash jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar fikrini hisobga oladi.

Shunday qilib, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash doirasida ta'sirlarni tahlil qilish o'z tarkibiga ikki elementni: ta'sirlar fizik kattaligini bashorat qilish va ularning ahamiyatlilikini baholashni oladi.

**Ta'sirlar kattaligini bashorat qilish** odatda atrof-muhitning turli komponentlari uchun bashorat qilishning turli usullaridan (matematik

modellashtirish kabi) foydalanish asosida amalga oshiriladi. qo'llanilayotgan usullarning aniqligi atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash vazifalariga mos kelishi va ta'sirlar ta'sir omillarining oddiy ifodasi shaklida emas, balki atrof-muhitdagi o'zgarishlar shaklida bashorat qilinishi uchun ekspert guruhining kuchini eng ahamiyatli ta'sirlarni bashorat qilishga yo'naltirish muhimdir.

**Ta'sirlar ahamiyatliligining bashorati** ularni bir-biri va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan solishtirish uchun amalga oshiriladi. Ahamiyatlilikni baholashning ko'plab usullari mavjud va ularni tanlash texnikaviy topshiriq talablari, amaldagi qonunchilik va aniq joyga bog'liqdir. Aholining turli guruhlari uchun turli ahamiyatliklarni hisobga olgan holda bajarilgan ahamiyatlilikni baholash to'g'ri hisoblanadi.

## **5-bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida maslahatlar va jamoatchilik ishtiroki**

### **5.1. Jamoatchilik ishtirokining mohiyati**

Jamoatchilik ishtiroki manfaatdor tomonlar o'rtasidagi o'zaro aloqaning tarkibiy kismi sifatida, AMBTB jarayonining muhim elementi hisoblanadi. U turli guruhlar manfaatlarini muvofiqlashtirish va AMBTBning turli masalalarini yechishda muhim vosita sanaladi. AMBTB jarayonida jamoatchilikning ishtiroki fuqarolarning axborot olish va ekologik jihatdan ahamiyatli qarorlarni qabul qilishda ishtirok etish kabi xuquqlarini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

AMBTB jarayonida "jamoatchilik ishtiroki" deganda qaror qabul qilish uchun mas'ul fuqaro va tashkilotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liq uzluksiz jarayon tushuniladi (Canter, L.W., «Ekologik baxolash»1996).

Mazkur jarayonda:

1. Ekologik muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda tegishli muassasa va tashkilotlarning ehtiyojlarini inobatga olish mexanizmi va jarayonlari haqida jamoatchilikda yaqqol va to'la tasavvurni hosil qilish uchun sharoit yaratiladi.

2. Jamoatchilik jarayonlarning borishi va mavjud holati, loyiha, reja va dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish, baholash siyosatini shakllantirish yoki uni o'tkazish haqidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

3. Barcha manfaatdor fuqarolar zahiralardan foydalanish, qarorlarning muqobil variantlari, boshqaruv tizimi loyihasi, shuningdek, qabul qilingan qarorga aloqador ma'lumotlar haqida o'z nuqtai nazarlarini bildirish va ehtiyojlarini ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Ushbu ta'rif jamoatchilik ishtirokining quyidagi muhim jihatlarini aks ettiradi: u uzluksiz jarayon; bu jarayon ishtirokchilarga ma'lum bo'lgan muayyan qoidalar bo'yicha kechadi; muloqot xususiyatiga ega, ya'ni, jamoatchilik qayd etilgan faoliyat to'g'risida ma'lumot olibgina qolmay,

shu bilan birga o'z nuqtai nazarini ham bildiradi. Ushbu ta'rifga yana bir muhim jihatni kiritish lozim. "Ishtirok" tushunchasi muloqotdan tashqari, qarorlar qabul qilish jarayonida jamoatchilik fikrini inobatga olishni ham nazarda tutishi lozim. Ya'ni, AMBTB tizimi ushbu holatning inobatga olinishini ta'minlovchi me'yor va mexanizmlarni ham o'z ichiga olishi lozim.

UNEP (BMTning atrof-muhit bo'yicha dasturi) ma'lumotlariga ko'ra jamoatchilikning samarali tashkil etilgan ishtiroki o'z ichiga quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarni qamrab oladi:

- manfaatdor guruhlar va shaxslarni aniqlash;
- ishonchli ma'lumotlarni auditoriya uchun tushunarli shaklda o'z vaqtida taqdim etish;
- qaror qabul qiluvchi va manfaatdor tomonlar o'rtasidagi muloqot;
- muloqot natijalaridan qarorlar qabul qilishda foydalanish;
- ikki tomonlama aloqa – qabul qilingan qarorlar va ularni qabul qilishga jamoatchilikning ishtiroki qanday ta'sir ko'rsatganligi to'g'risidagi axborotlarni berish.

AMBTB da jamoatchilikning ishtiroki quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

1) jamoatchilik ishtiroki mutlaqo sezilmaydigan vaziyat (qaror qabul qiluvchi tomon fuqarolarni taklif qilinayotgan qarorlarning foydali ekanligiga ishontirsa-da, ularga zarur ma'lumotlarni bermaydi va ularni qaror qabul qilish jarayoniga jalb etmaydi);

2) fuqarolarning fikrlari inobatga olingan vaziyat (fuqarolar tomonidan takliflar bildiriladi va ular qaror qabul qilish jarayonida inobatga olinadi, biroq, ayni vaqtda mazkur holatni kafolatlovchi mexanizm mavjud emas).

Jamoatchilikni qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokining darajasi loyiha mazmuni, uning atrof-muhitga ko'rsatuvchi ta'siri, ta'sir ko'lami, amaldagi qonunchilik talablari, jamoatchilikning ma'lum hudud ekologik holati uchun mas'ulligi va boshqa ijtimoiy-ekologik omillarga bog'liq hisoblanadi.

AMBTB da jamoatchilik ishtirokini o'rganish "jamoatchilik" tushunchasi mohiyatini aniqlashtirishni taqazo etadi. Ayrim manbalarda (jumladan, "Atrof-muhitga ta'sirni baholash konventsiyasi" (E'OK, 1991), "Axborot olish mumkinligi to'g'risidagi konventsiya" (E'OK, 1998)) ushbu tushunchaga "bir yoki bir necha fizik yoki yuridik shaxs" deya ta'rif beriladi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash nuqtai nazaridan "manfaatdor jamoatchilik" tushunchasini qo'llash ham ahamiyatli sanaladi. Zero, "manfaatdor jamoatchilik" deganda atrof-muhitga taalluqli masalalar bo'yicha qaror qabul qilish jarayonidan manfaatdor bo'lgan jamoatchilik tushuniladi.

AMBTB jarayonida ishtirok etuvchi jamoatchilik amalga oshirilishi mo'ljallanayotgan faoliyat ta'siri doirasida bo'lishi kerak. Ma'lum mintaqada esa jamoatchilik mahalliy aholi hisoblanadi. Mahalliy aholi

tomonidan AMBTB rejasining ishlab chiqilishiga e'tibor qaratilmaganda ham ob'ekt ekspluatatsiyasi davrida yuzaga keluvchi nizolar aholini qiziqitirmaydi deyish mumkin emas. Shu sababdan ham tegishli hududlarda mahalliy aholini bevosita AMBTB loyihasining muhokamasi va qarorlarni qabul qilish jarayoniga faol jalb etish maqsadga muvofiqdir. Zero, ehtimoli bo'lgan har qanday ta'sir tabiiy zahiralardan foydalanishdagi mavjud tartibni (dam olish, baliqchilik, ov) buzilishi, o'ziga xos iqtisodiy (yangi ish o'rinlarining barpo qilinishi, ko'chmas mulk narxini o'zgarishi), ijtimoiy o'zgarishlarga (mahalliy aholi ijtimoiy tarkibining o'zgarishi, ishchi kuchining ko'chishi, boshqa hudud yoki davlatlardan arzon ishchi kuchining oqib kelishi) olib kelishi mumkin. Bu esa mahalliy aholi fikrini o'rganishni talab qiladi.

Loyiha amalga oshirilishidan manfaatdor bo'lmagan fuqarolar (masalan, atrof-muhitni muhofaza qiluvchi jamoat tashkiloti, noyob hayvon yoki qushlar turlarini saqlashga urinayotgan biologlar guruhi va boshqalar) ham loyiha yuzasidan muayyan fikrlarni bildirishlari mumkin.

Shuningdek, jamoat (nodavlat, notijorat) tashkilotlari ham jamoatchilik sifatida bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ammo bir yoki bir necha faol jamoat tashkilotlariga asoslanish (ishonch bildirish) to'g'ri emas. Jamoat tashkilotlarning jamoatchilik bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlashlari juda muhimdir. Bordi-yu, ularning manfaatlari hisobga olinmasa, u holda ular tashabbuskor guruhlar yoki boshqa norasmiy birlashmalarni tuzishlari mumkin.

AMBTBda jamoatchilik ishtirokini ta'minlashda aholi ekologik savodxonligining bir xil darajada emasligini nazarda tutish zarur. Etnik, kasbiy, ijtimoiy hamda diniy e'tiqodlari nuqtai nazardan fuqarolar ma'lum vaziyatni turlicha baholashlari mumkinligini e'tiborga olish lozim.

## **5.2. Jamoatchilikning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni bosqichlaridagi ishtiroki**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash bosqichlarida jamoatchilikning ishtiroki quyidagicha kechadi:

1) boshlang'ich bosqich - jamoatchilikning ishtiroki faoliyat tashabbuskoriga qimmatli, zarur axborotlarni to'plashga imkoniyat yaratadi, loyiha qarorlarining sifatini yaxshilaydi, yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan nizolarni qisman kamaytiradi; jamoatchilik ishtiroki qanchalik erta tashkil qilinsa, yuzaga keluvchi muammolarning oldini olishda shunchalik yaxshi samaraga erishiladi;

2) AMBTBning zarurligi to'g'risidagi qarorni qabul qilish bosqichi – jamoatchilikning ushbu loyiha yuzasidan xavotiri darajasi hamda loyiha qarorlarini qabul qilish jarayonida ishtirok etish xohishi aniqlanadi;

3) AMBTB vazifalarini aniqlash bosqichi - jamoatchilikni ko'proq qaysi muammo xavotirga solayotganligi, shuningdek, keyingi bosqichlarda ustuvor o'rin egallashi mumkin bo'lgan muammolar aniqlanadi, turli manfaatdor guruhlar bilan aloqa o'rnatish zarur qo'shimcha ma'lumotlarini

olish imkonini beradi, jamoatchilik ishtiroki asosida reja yoki dasturlar ishlab chiqiladi;

4) ta'sirlar ahamiyatini bashoratlash va baholash bosqichi - manfaatdor tomonlar bilan maslahatshuvlar tashkil etiladi;

5) AMBTBni muhokama qilish bosqichi - AMBTB bo'yicha fikrlar o'rganiladi, loyiha qarorlari qayta tahlil etiladi; muqobil variantlar dastlabki loyiha bilan taqqoslanadi;

6) AMBTB sifatini tizimli baholash bosqichi – jamoatchilikning dastlabki barcha bosqichlardagi ishtiroki natijalari o'rganiladi, jamoatchilik tomonidan qabul qilingan qarorlarga sud orqali yoki ma'muriy tartibda o'zgartishlar kiritiladi;

7) mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish bosqichi - AMBTB loyihasida belgilangan vazifalar bajariladi.

### **5.3. Jamoatchilik ishtiroki dasturi**

Dastlabki rejalashtirish jamoatchilik ishtiroki jarayonining samarasini ta'minlovchi muhim shart sanaladi. AMBTB jarayonida jamoatchilik ishtiroki dasturini rejalashtirish va amalga oshirishda aniq maqsadlar ifodalangan bo'lishi, shuningdek, jarayonning turli bosqichlarida tashkilotchilarga o'z faoliyatlarini baholash va tuzatish imkonini beruvchi samaradorlik mezonlari ishlab chiqilgan bo'lishi lozim. Shu bilan birga jamoatchilik ishtiroki dasturi AMBTB jarayonining har bir bosqichi uchun ishtirok vazifalari va shakllarini, shuningdek, alohida tadbirlarni o'tkazish rejalarini nazarda tutishi lozim.

Jarayon alohida bosqichlari va tadbirlarning maqsad hamda vazifalari ham mavjud qonunchilik talablari, ham turli jamoatchilik guruhlarining mo'ljallanayotgan faoliyati xususiyatlari, manfaat va imkoniyatlarini inobatga oluvchi muayyan sharoit negizida ishlab chiqilishi lozim. Tomonlar o'zaro hamkorligini samarali bo'lishi uchun, uning maqsadi barcha ishtirokchilarga ma'lum va tushunarli bo'lishi, hamda jarayon tashkilotchisi tomonidan rasmiy ravishda e'lon qilinishi lozim.

Maqsadi ishtirokchilar uchun noaniq bo'lgan tadbir yoki dasturlar nafaqat foydasiz bo'ladi, shu bilan birga kutilmagan natijalarni beruvchi favqulotda holatlarni ham keltirib chiqaradi.

Jamoatchilikning AMBTBning muayyan bosqichlaridagi ishtirokining vazifalari, ma'lum tadbirlarning vazifalari ularning AMBTB umumiy jarayonidagi o'rinlarini belgilab beradi. Bunday vazifalar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ma'lumot berish;
- jamoatchilik ishtiroki afzalliklarini aniqlash;
- g'oyalarni ishlab chiqish, muammo qarorlarini izlash;
- loyiha qarorlari bo'yicha sharhlar va takliflarni olish;
- muqobil echimlarni baholash;
- nizoli vaziyatlarni engish va u yoki bu masalalar bo'yicha kelishuvga erishish.

qo'yilgan vazifalar jamoatchilik ishtirokining shakli va usullarini tanlashni aniqlaydi. Jamoatchilik ishtirokining ko'plab shakllari (manbalarda 50 ga yaqin shakl va usullar ko'rsatilgan) mavjud.

**Jamoatchilikni axborot bilan ta'minlash** AMBTB jarayonida yuzaga keladigan umumiy vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifa, odatda, axborot materiallarini chop etish, teleko'rsatuv va radio eshittirishlar tayyorlash, axborot varaqalari, bukletlar, tahliliy risolalar tarqatish orqali amalga oshiriladi. Nashr ishlarini tayyorlashda mahalliy o'ziga xosliklar, aholining u yoki bu murakkablikdagi axborotni qabul qilishga tayyorlik darajasi, ijtimoiy va etnik guruhlarning o'ziga xosliklari inobatga olinishi lozim. Mazkur shakllar jamoatchilikni ko'proq tashvishlantiruvchi yirik loyihalarni amalga oshirishda axborot berish uchun yetarli bo'lmasligi mumkin. Shu sababli yetarli darajada axborot berish imkoniyatiga ega seminarlarni tashkil etish yoki loyiha joriy etiladigan ob'ektlarga o'xshash ob'ektlarga ekskursiya uyushtirish ko'proq samara beradi.

Bir qator shakllardan jamoatchilikdan axborot olish vositasi sifatida foydalanish mumkin. Bular maslahatlashuvning turli shakllari (yuzma-yuz va telefon muloqotlari), yozma sharhlarni yig'ish va boshqalardir. Shuningdek, jamoat fikrini o'rganish sotsiologik tadqiqotlar ham shular jumlasidan sanaladi.

Jamoatchilik ishtirokning ayrim shakllari jamoatchilikning qaror qabul qilishdagi ishtirokini, qaror qabul qiluvchi tomonlar va jamoatchilikning o'zaro hamkorligini ifodalaydi.

Jamoatchilik fikrini o'rganish - jamoatchilik bilan ishlashning rasmiy va tarkibiy usullaridan biri. Fikrlarni o'rganish bir necha o'zaro bog'liq maqsadlar - jamoatchilikni axborot bilan ta'minlash, muammo bo'yicha turli fikrlarni muhokama qilish, kelishtiruvchi va birgalikda qo'llash imkoni bo'lgan qarorlarni ishlab chiqish. Jamoatchilik fikrini o'rganish muhokama mavzularni aniq belgilash, muhokama etiluvchi mavzular bo'yicha axborotlarni dastlabki tarqatish, tadbirlarni tashkil etilishi va o'tkazilishini hujjatlashtirishga imkon beradi. Jamoatchilik fikrlarini muvaffaqiyatli o'rganilishi, odatda, uni tayyorlashga yo'naltirilgan muhim harakatlarning natijasi bo'ladi.

Dumaloq stol –u qadar rasmiy bo'lmagan tadbir bo'lib, odatda ochiq munozaralar tashkil qilishga bag'ishlanadi. Jamoatchilik fikrini o'rganish va dumaloq stol atrofidagi muloqotlarning vazifalari o'xshashdir. Ularning farqi faqat tashkil qilinish miqyosi va natijalarni rasmiylashtirishdagina seziladi.

Kichik guruhlardagi norasmiy uchrashuvlar tomonlarning pozitsiyalari, ularning maqsad va qadriyatlarini aniq o'rganishga imkon beradi. Bunday uchrashuvlarda faoliyat bilan bog'liq muhim takliflar ishlab chiqilishi va keyinchalik mazkur takliflar jamoatchilik eshituvlari doirasida muxokama predmeti bo'lishi mumkin.

Yig'inlar - bir necha ming kishidan oshmagan kichik jamoalarda aholii bilan olib boriladigan aholi bilan ishlashning an'anaviy shaklidir Yig'inlardan axborot bilan ta'minlash, mahalliy darajadagi muammolarni

muhokama qilish va ularni hal qilish uchun yondoshuvlarni ishlab chiqish uchun foydalaniladi.

Jamoatchilik ishtirokini ta'minlash uchun amaldagi mexanizmlardan, masalan, mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari qoshida tashkil etilgan maxsus maslahat yoki boshqaruv kengashlaridan ham foydalanish mumkin.

Bir qator mamlakatlarda jamoatchilik ishtirokining qonun bilan kafolangan o'ziga xos shakllari mavjud. Jumladan, O'zbekistonda jamoatchilik ekologik ekspertizasi ekologik ekspertiza to'g'risidagi qonunda maxsus band bilan belgilab qo'yilgan.

#### **5.4. Jamoatchilik ishtirokini tashkil etishning tamoyillari**

Jamoatchilik ishtirokini tashkil qilishdagi tegishli tadbirlarning muvaffaqiyati ko'p omillarga, jumladan jarayon ishtirokchilarini kelishuvga tayyorligi, ularining o'z asosiy va ikkilamchi maqsadlarini ajratib olish qobiliyatlari, loyihani amalga oshirish joyidagi qator ob'ektiv sharoitlarga bog'liq.

Mazkur bobda yoritilayotgan tamoyillarga amal qilish har doim ham muvaffaqiyat keltiravermaydi. Biroq ular mavjud kelishuv potentsialidan to'liq foydalanishga yordam beradi. Boshqacha aytganda jarayon tashkilotchilari tomonidan bu tamoyillarga e'tibor bermaslik yetarli asos bo'lmagan joylarda ham nizolarni yuzaga kelishiga olib keladi.

1. Faqat to'liq axborotga asoslangan ishtirokkina konstruktiv bo'lishi mumkin. Mo'ljallanayotgan faoliyatning detallari to'g'risida jamoatchilikka iloji boricha to'liq axborot berish har qanday maslahatshuvning, ayniqsa katta jamoatchilik ishtirokida o'tadigan muhokamalar muvaffaqiyatining zaruriy shartidir. Agar jamoatchilik mo'ljallanayotgan faoliyat to'g'risida hech qanday axborot olmagan bo'lsa yoki bunday axborotni faqatgina uchrashuvlar vaqtidagina olsa, mo'ljallanayotgan faoliyatga nisbatan agressiv munosabat, uni qabul qilmaslik yuzaga keladi. Agarda jamoatchilik axborotlar bilan o'z vaqtida va to'liq ta'minlangan bo'lsa jamoatchilik bilan uchrashuvlar vaqtida faoliyat uchun samarali bo'lgan konstruktiv takliflar ishlab chiqiladi.

2. Jamoatchilik muvaffaqiyatli ishtirokining muhim shartlaridan biri uchrashuvlar davomida mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini ko'rib chiqishdir. Muqobil variantlarni ko'rib chiqishsiz o'tkaziladigan tadbirlar o'ta samarasiz bo'ladi. Tadbirning maqsadi kerakli takliflarni ishlab chiqish bo'lmay, balki faoliyat yuzasidan fikrlarni bilish bo'lganda ham bir necha muqobil variantni o'rtaga tashlash yaxshi natijalarga olib keladi. Agarda jamoatchilik e'tiboriga birgina echim havola qilinsa, bu narsa jamoatchilikda hamma narsa avvaldan hal qilib bo'lingan ekan degan fikrni uyg'otadi. Bunday sharoitda faoliyat to'g'risidagi har qanday to'g'ri yechim ham ma'lum norozilik kayfiyatlarini yuzaga keltiradi va uni qabul qilinishini murakkablashtiradi.

3. "Ikki tomonlama aloqa" ning zarurligi, ya'ni bildirilgan fikr, taklif va talablarni qaror qabul qiluvchi tomonidan e'tiborsiz qoldirmaslik.



Jamoatchilik muhokamasi vaqtida aytilgan fikrlar qayd etilishi, har bir kamchilik tahlil qilinishi va ularga aniq javob berilishi lozim. Agar jamoatchilik muhokamasi vaqtida aytilgan kamchiliklar ahamiyatli yoki asosli deb topilsa, ular asosida loyiha qarorlariga ma'lum tuzatishlar kiritilishi lozim. Jamoatchilik muhokamasi vaqtida aytilgan fikrlar tahlili jamoatchilik ishtirokining asosiy hujjatlaridan sanaladi. Mazkur hujjatlar asosida jamoatchilik ishtiroki dasturi natijalari va ularning samaradorligi baholanadi.

*qo'shni mamlakatlarning birida bir loyiha tashabbuskori bir yil davomida ikki marta jamoat eshituvi o'tkazdi. Tashabbuskorning nuqtai-nazariga ko'ra bu tadbirlar muvaffaqiyatli va samarali bo'ldi. Lekin mazkur hududdagi jamoatchilik loyihaga bo'lgan o'zining salbiy munosabatini nafaqat o'zgartirmadi, balki jamoatchilik muhokamasi noto'g'ri tashkil qilinganligi to'g'risida bayonot bilan chiqdi. Jamoatchilik qayta eshituvlarni o'tkazishda hujjatlashtirilgan axborot bilan tanishish imkoniyati yaratilmaganligini, birinchi eshituvdagi fikrlar asosida loyiha qarorlarida biror bir o'zgarish qilinmaganligini tashkilotchilarning eng katta xatosi sifatida ko'rsatdilar.*

Lekin bu jihatlar jamoatchilik tomonidan aytilgan xar qanday talab yoki istaklar so'zsiz bajarilishi shartligini ko'rsatmaydi. Ularni inobatga olish jamoatchilik ishtiroki samaradorligining majburiy sharti emas va bundan tashqari jamoatchilikning talablari har doim ham oqilona va to'g'ri bo'lavermaydi.

*Yirik loyihaga bagishlangan jamoatchilik eshituvi vaqtida ayrim ishtirokchilar atrof-muhitning loyiha amalga oshirilgunicha ifloslantirilgani va loyiha amalga oshirish nazarda tutilgan maydoncha bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat uchun aholiga kompensatsiya to'lashni talab qildilar. Bunday talablarning asossiz ekanligini tashabbuskor o'zining asosli javoblari bilan isbotlab berdi. Natijada talabning asossiz ekanligi jamoatchilik tomonidan tan olindi.*

4. Yuqorida tilga olingan tamoyil va misollar loyihani tayyorlashning dastlabki bosqichlarida jamoatchilik ishtirokining muhimligini yaqqol isbotlamoqda. Loyiha yuzasidan asosiy qarorlar qabul qilinib bo'lingan bo'lsa loyihaga ayrim tuzatishlarni kiritish juda murakkabdir, shu bilan birga muqobil variantlarni ko'rib chiqish ham o'z ma'nosini yuqotadi. Demak jamoatchilikni kechikib jalb qilish loyiha qarorlariga o'zgartirish kiritish bilan bog'liq jiddiy moliyaviy sarflarga olib kelishi yoki jamoatchilik eshituvi vaqtida nizoli vaziyatlarni yuzaga keltirishi mumkin.

5. Jamoatchilik ishtiroki tadbirlari va ularning natijalarini hujjatlashtirilishini juda muhim ekanligini qayd etish lozim. Jamoatchilik ishtiroki samaradorligining muhim jihatlaridan biri jamoatchilik eshituvi natijalarini hujjatlashtirishdir. Ushbu hujjatlarda muammoli vaziyatlar yuzasidan kelishuvlar ham kelishmovchiliklar ham aks ettirilishi lozim. Aks holda uchrashuvlar tashkilotchisining harakatlari jamoatchilik tomonidan aldov sifatida qabul qilinishi mumkin. hujjatlarda kelishmovchiliklarning

aks ettirilishi esa kelgusida olib boriladigan muloqotlar uchun zamin hozirlaydi va nizoli vaziyatni ma'lum chegarada ushlab turishga imkoniyat yaratadi.

## **6-BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASH JARAYONIDA MO'LJALLANAYOTGAN FAOLIYATNING MUQOBIL VARIANTLARINI KO'RIB CHIQISH**

### **6.1. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqishning o'ziga xosliklari**

Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning turli xil variantlarini tahlil qilish va taqqoslash AMBTB ning muhim elementlaridan biridir. Odatda, AMBTB jarayonida mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqishga bag'ishlangan qism, AMBTB yakuniy hujjatlarining markaziy qismini tashkil qiladi.

AMBTB jarayonida muqobil variant deganda, maqsadga erishishning bir-birini inkor qiluvchi usullari tushuniladi.

Misol tariqasida alohida bir mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirish elektr energiyasi yetishmovchiligiga olib kelishi mumkinligi to'g'risidagi misolni ko'rib chiqsak. Bu muammoni elektr energiyasini tejash va undan samarali foydalanish tadbirlari, turli tipdagi (issiqlik, atom yoki gidroelektrostantsiya) elektrostantsiyalar qurish va boshqa hududdan energiyani import qilish kabi bir necha usullar bilan yechish mumkin. Mazkur usullar o'zlarining texnik va iqtisodiy tavsiflari bo'yicha, atrof-muhitga ta'siri ko'lami va xarakteri bo'yicha biri-biridan farq qilishi mumkin. Ushbu usullar orasidan maqbulini tanlab olish iloji boricha barcha omillarni hisobga olgan holda amalga oshiriladi. AMBTB jarayonida u yoki bu qarorni qabul qilish albatta mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqish asosida amalga oshirilishi lozim.

Ma'lum ma'noda qaror qabul qilish mavjud variantlar orasidan tanlashni o'tkazishdan iboratdir. Tanlovda ko'rilayotgan variantlar qanchalik sifatli tanlangan va ishlab chiqilgan, ularni amalga oshirish oqibatlari qanchalik to'liq aniqlangan, ularni taqqoslash qanchalik to'g'ri o'tkazilgan bo'lsa yakuniy natija (qaror) ham shunchalik sifatli bo'ladi. Agar faoliyat tashabbuskori mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish jarayonida faoliyatni amalga oshirishning muqobil variantlarini ko'rib chiqmasa, bunday rejalashtirishning natijasi qoniqarsiz bo'lishi turgan gap. Shuning uchun ham mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini ko'rib chiqish har doim ham zarur sanaladi.

Odatda rejalashtirishning dastlabki bosqichlarida ko'rib chiqiladigan variantlar ixtiyoriy va tasodifiy bo'ladi. Mo'ljallanayotgan faoliyat xarakterini belgilaydigan variantni tanlash loyihalash jarayonining boshlang'ich bosqichlarida manfaatdor tomonlarning ishtirokisiz amalga oshiriladi va hujjatlashtirilmaydi. Bunda tanlash asosan faoliyat

tashabbuskorining shaxsiy manfaatidan kelib chiqib, iqtisodiy va texnik mezonlar asosida amalga oshiriladi.

Shuning uchun, mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini ko'rib chiqishni AMBTB jarayoniga kiritishdan maqsad, ularni baholash va taqqoslashni bir tartibga solish va manfaatdor tomonlar uchun tushunarli qilishdan hamda optimal variantlarini tanlashda ekologik mezonlarni hisobga olishni ta'minlashdan iboratdir.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini o'z vaqtida ko'rib chiqish qaror qabul qilishda AMBTB natijalaridan foydalanishga yana bir imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyat taqqoslash asosida maqbul variantni tanlashdan iboratdir.

Bundan tashqari, mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqish ta'sirlarning ahamiyatligi va maqbulligini baholashda muhim rol o'ynaydi. U ta'sir ko'lamini nafaqat standart yoki chegaraviy qiymatlar bilan taqqoslash, balki faoliyatning boshqa muqobil variantlaridagi kattaliklari bilan taqqoslash inkoniyatini ham beradi.

Mo'ljallanayotgan faoliyatning ba'zi muqobil variantlari, masalan, faoliyatdan voz kechish ("hech narsa qilmaslik") va atrof-muhitni muhofaza qilishning eng yaxshi tadbirlarni ko'zda tutgan variantlari boshqa muqobil variantlarni ko'rib chiqish (baholash) uchun tayanch nuqta sifatida qabul qilinishi mumkin.

Shunday qilib, AMBTB ni sifatli bajarish uchun mo'ljallanayotgan faoliyatning bir nechta muqobil variantlarini ko'rib chiqish va ulardan ba'zilarini etarli darajada chuqur o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Maqsadga erishishga printsipial yondoshuv to'g'risidagi qaror mo'ljallanayotgan foaliyatni rejalashtirish jarayonida qabul qilinadigan qarorlarning muhimlaridan biri sanalsada, u yagona hisoblanmaydi, ya'ni loyihalash jarayonining boshidan to oxirigacha turli ko'rinishdagi ko'plab qarorlar qabul qilinadi, shu bilan birga loyihalashning oxiriga qarab variantlar ko'lamini tobora kamayib boradi va pirovardida qarorning bir necha variantigina qoladi. Mo'ljallanayotgan faoliyatning shu qarorlarga mos keladigan muqobil variantlari esa ular bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Shunday qilib ob'ektning turi (tipi) aniqlanganidan so'ng, uni joylashtirishning variantlari va asosiy xarakteristikallari ko'rib chiqiladi (masalan, issiqlik elektrostantsiyasi yoqilg'i sifatida ko'mirni ishlatadimi yoki gazni). Nihoyada loyihaning aniq detallari hamda aniqlangan ta'sirlarni kamaytirish va oldini olishga yondoshuvlarga muhokama predmeti bo'lib qoladi. Yuqorida qayd etilgan bo'g'inlarda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning turli variantlarni ko'rib chiqish davomida atrof-muhitga ta'sirlarni tahlil qilish va taqqoslash AMBTB ning umumiy maqsadiga erishishda katta yordam beradi.

Agar AMBTB ni bajarish jarayonida loyihani tanlangan texnologiya bo'yicha yoki tanlangan maydonda amalga oshirilishi yo'l qo'yib bo'lmaydigan oqibatlarga olib kelishi ma'lum bo'lib qolsa, qabul qilingan qarorlarni qayta ko'rib chiqish va mo'ljallanayotgan faoliyatning avval

inkor etilgan muqobil variantlariga qaytish to'g'ri sanaladi. Bunda mazkur muqobil variantlar bo'yicha avval o'tkazilgan taqqoslashlar qarorlarni qayta ko'rib chiqishni birmuncha yengillashtirishi mumkinligini qayd etish to'g'riroqdir.

Bir necha darajadagi qarorlarni qabul qilishda mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini real ko'rib chiqishni ta'minlash uchun AMBTB rejalashtirish va loyihalash bilan parallel o'tkazilishi lozim va bunda bajaruvchilar o'zaro yaqin aloqada bo'lishlari lozim.

## **6.2. Mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarining mumkin bo'lgan turlari**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarining quyidagi asosiy turlari ko'rib chiqilishi mumkin.

### **1) faoliyatdan voz kechish (“hech narsa qilmaslik”)**

Bu variant mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqish mo'ljallanayotgan faoliyatdan to'liq voz kechilgan holda, faqatgina atrof-muhit holatini tavsiflanishini nazarda tutadi. Aniqroq aytilsa bu variant yuqoridagi ta'rifga asoslanadigan bo'linsa - muqobil variant sanalmaydi, chunki u maqsadga erishishdan voz kechishni nazarda tutadi. Shu bilan birga uning ko'rib chiqilishi uslubiy nuqtai nazardan qaraganda juda muhim sanaladi. Chunki mazkur variant mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning turli variantlariga taalluqli foydalarni baholash va amalga oshirish mumkinligi to'g'risida qaror qabul qilish uchun tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.

### **2) maqsadga erishish yo'lidagi turlicha yondoshuvlar**

Bunga yuqorida tilga olingan iqtisodiyotni rivojlantirish natijasida yuzaga keladigan energiya tanqisligi muammosini elektrostantsiya qurish yoki boshqa hududdan energiya import qilish kabi tadbirlarini tanlash misol bo'la oladi. Ya'ni bunda vujudga keladigan energiya tanqisligi muammosini yechish uchun turlicha yondoshish kuzatilmoqda.

### **3) mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish uchun tanlanadigan hududlar**

Mo'ljallanayotgan faoliyat oqibatida vujudga keladigan ta'sirlar va ayniqsa ushbu ta'sirlarning ahamiyatligi faoliyatni amalga oshirish joyi bilan chambarchas bog'liqdir. Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish natijasida paydo bo'ladigan nizolarning aksariyat qismi ham faoliyatni amalga oshirish joyini tanlash bilan bog'liq. Shuning uchun faoliyatni amalga oshirish joylari variantlarini ma'nfaatdor tomonlar ishtirokida o'z vaqtida ko'rib chiqish juda muhim sanaladi. Zarur infratuzilmalarni mavjudligi, relief, tuproq xususiyatlari va boshqa omillar joylashtirish variantlarini tanlash erkinligini jiddiy chegaralasada, barcha hollarda bir necha muqobil maydonchalarni ko'rib chiqish foydadan o'zga narsani bermaydi. Ba'zi mamlakatlar AMBTB tizimlarida ob'ektlarni joylashtirish

variantlarini ko'rib chiqish xaqida maxsus talablar qabul qilingan. Ushbu maxsus talablar ayniqsa aloqa yo'llari va komunikatsiyalarni (yo'llar, quvurlar, elektr uzatish liniyalari) joylashtirishning turli variantlari uchun xosdir.

#### **4) mo'ljallanayotgan faoliyatning ko'lami**

Mo'ljallanayotgan faoliyatning ko'lami uning maqsadi bilan aniqlanadi, faoliyat ko'lamini o'zgartirilishi esa maqsaddan voz kechishga olib kelishi mumkin. Shunday bo'lsada ba'zi hollarda faoliyatni amalga oshirish ko'lamining bir necha variantlari ko'rib chiqilishi mumkin. Bunga yangi quriladigan aeroportning bir yoki ikki uchish-qo'nish yo'lakchali bo'lishi orasidagi tanlov, chiqindilar joylashtiriladigan poligonning o'lchamlari, yer osti boyliklari qazib olish bo'yicha ishlarning hajmlari va boshqalar misol bo'lishlari mumkin.

#### **5) mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlari**

Dunyo shaharlaridan biridagi (aniqrog'i, Toronto shahri, Kanada) aeroportni kengaytirish loyihasining asosiy varianti ikkita yangi uchish-qo'nish yo'lkasini qurishni nazarda tutgan bo'lishiga qaramay AMBTB da ko'rib chiqish uchun quyidagi muqobil variantlar tanlab olingan edi:

1. Mavjud aeroport inshootlaridan samaraliroq foydalanish;
2. Transport oqimini boshqa hududdagi aeroportlarga yo'naltirish;
3. Bitta qo'shimcha uchish-qo'nish yo'lkasini qurish (loyihadagi ikkitasi o'rniga);
4. Mavjud aeroportga qo'shimcha yangi aeroport qurish;
5. Mavjud aeroport o'rniga yangi aeroport qurish;
6. Yuqoridagi variantlar barchasi yoki bir nechasining kombinatsiyalari.

#### **6) ishlab chiqarish jarayoni va jihozlarning turli tiplari**

Bu faoliyatni amalga oshirish jarayonining turli bosqichlarida ko'rilishi mumkin bo'lgan muqobil variantlar guruhidir. Bu guruhga bir tomondan ob'ekt turlarini (GES, AES yoki issiqlik elektrostansiyasi) kiritish mumkin bo'lsa, boshqa tomondan aniq bir sexda amalga oshiriladigan ishlab-chiqarish jarayoni variantlarini ham kiritish mumkin.

#### **7) maydonchanning rejasi, ob'ektni joylashtirish va konstruktsiyasi**

Maydonchanning rejasi, ob'ektni joylashtirish va konstruktsiyasi ma'lum darajada mo'ljallanayotgan faoliyatning ta'sirini belgilaydi. Masalan, ishlab-chiqarish binolarining baland va past bo'lishlari ko'z oldimizdagi muhitning qay darajada o'zgarishini belgilaydi. havoni ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishining ahamiyatliligini ushbu iflosliklarni chiqaruvchi sexning yashash joylaridan nechog'li yaqin yoki uzoq joylashganligi belgilaydi.

#### **8) ob'ektning ishlash rejimi**

Ob'ektning ishlash rejimi ta'sirlarning kattaligi va ahamiyatliligiga ta'sir o'tkazishi mumkin. Ob'ektning ekspluatatsion rejimi aholi punktidan o'tadigan og'ir yuk mashinalarini faqat ish vaqtida yoki sutka davomida

harakatlanishini nazarda tutishi mumkin. Ob'ekt qurilishining vaqti hayvonlarni ko'chishi yoki baliqlarni uvuldiriq sochishga to'sqinlik qilmaydigan qilib tanlanishi mumkin. Bu holat ayniqsa katta suv havzalarida (daryolarda) gidrotexnik inshootlarni, ko'priklarni qurishda e'tiborga olinishi lozim.

### **9) ta'sirlarni yumshatish tadbirlarining variantlari**

Ta'sirlarni yumshatish tadbirlarining ham bir necha variantlari ko'rib chiqilishi lozim. Ular, ta'sirlarning dastlabki bashorati bajarilib bo'linganidan so'ng, ya'ni loyihalovchilar va AMBTB ni bajaruvchilarning oldida ta'sirlarni kamaytirish yoki ularni to'liq bartaraf qilish vazifasi turgan vaqtda ko'rib chiqiladi.

Ta'sirlarni yumshatish tadbirlarining muqobil variantlariga yuqorida tilga olingan ishlab chiqarish jarayoni va ob'ektni ishlash rejimini variantlari bilan bir qatorda mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sirlarini kamaytirish uchun amalga oshiriladigan tadbirlar (masalan, turli tipdagi tozalash inshootlarini qurish) ham kiradi.

## **7-BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASHNI HUJJATLASHTIRISH VA HUJJATLAR SIFATINI NAZORAT QILISH**

### **7.1. AMBTB jarayonida hujjatlashtirishning o'rni**

AMBTB natijalarini hujjatlashtirish AMBTB jarayonining markaziy elementlaridan biridir. Natijalarni hujjatlashtirish, ya'ni AMBTBning zarurligi haqida qarorlar qabul qilishdan to ta'sirlarni bashorat qilish asosida loyihaga o'zgartirishlar kiritish hamda mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish to'g'risida qaror qabul qilingunicha bo'lgan jarayonning hamma bosqichlarida arur.

AMBTB jarayonida paydo bo'ladigan ko'pgina masalalar hujjatlashtirish asosida yechilishi mumkin. hujjatlashtirilmagan natijalar qaror qabul qilish jarayonida qiyinchilik bilan hisobga olinishi mumkin va tizimli baholash predmeti bo'la olmaydi. Davlat organlari yoki boshqa manfaatdor tomonlar bilan AMBTB sifatini nazorat qilish har doim ham hujjatlashtirishni tahlil qilishga asoslangan. Shu bilan birga hujjatlar AMBTB jarayonida turli tomonlarning o'zaro hamkorligi uchun asos yaratadi.

Shu sabablarga ko'ra, AMBTB tizimi rivojlangan qator davlatlarda, hujjatlarning mazmunini belgilovchi, jarayonning u yoki bu bosqichlari natijalarini aks ettiruvchi, ularni nashr qilish yoki manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilishni aks ettiradigan maxsus talablar mavjud. Turli tizimlarda shunga o'xshash talablar qo'yilgan AMBTB bosqichlari quyidagilardir:

1. Dastlabki baholashning maqsadi to'liq masshtabli AMBTB o'tkazish zarurligi haqida qaror qabul qilishdan iborat.

2. AMBTB vazifalarini aniqlash. Masalan, Gollandiyada Scoping Guidelines, Finlandiya, Litva va Latviyada «AMBTB baholash dasturi» tayyorlanadi.
3. Davlat yoki nodavlat tashkilotlari tomonidan AMBTBning sifatini baholash. Niderlandiya va Slovakiya kabi mamlakatlarda AMBTB sifatini baholash natijalarini ifodalovchi hujjatlar tuziladi.
4. Mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirish haqida yakuniy qaror qabul qilish. Masalan, AQShda maxsus "qaror qabul qilish bayonnomasi" tuziladi. Bu hujjat mo'ljallanayotgan faoliyat haqidagi qaror AMBTB natijalarini qay darajada hisobga olishini tushuntiradi.
5. Salbiy ta'sirlarni kamaytirish tadbirlarini amalga oshirish rejasi hamda ekologik monitoring boshqaruv rejasida bayon qilinadi. Ularni tayyorlash Xalqaro bankning ekologik protseduralarida talab qilinadi.
6. Ammo barcha AMBTB tizimlarida AMBTB jarayonining asosiy natijalarini aks ettiradigan bosh hujjatni tayyorlash va uni manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish talablar amalda mavjud. Bu hujjat odatda "Environmental Statement" yoki "Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar to'g'risida bayonot" (AMBTB) deyiladi.

## **7.2. AMBTBning funksiyalari**

AMBTB atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tizimida quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

-mo'ljallanayotgan faoliyat bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydalaniladi;

- manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

AMBTB rivojlangan tizimlarda AMBTB foydalanuvchilarning keng doirasiga mo'ljallanadi va manfaatdor tomonlarga bo'lgan, mo'ljallanayotgan faoliyatning ekologik jihatlarini tushuntirish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bunda o'quvchi rolda qaror qabul qiluvchi shaxslar, manfaatdor jamoatchilikning vakillari, atrof-muhitni muxofaza qilish sohasida faoliyat yurituvchi olimlar, jamoat tashkilotlari, aholi vakillari va boshqalar qatnashishlari mumkin.

XX asrning 70-yillarning boshlaridan to hozirgi kunga qadar turli mamlakatlarda bunday hisobotlarni tayyorlash bo'yicha boy tajriba to'plangan. Bu tajriba me'yoriy va uslubiy hujjatlarda, tavsiyanomalarda, ilmiy nashrlarda aks ettirilgan. Bugungi kunda AMBTB natijalari bo'yicha tuziladigan hisobotning tarkibiy tuzilmasi va mazmuni haqida barqaror tasavvurlar shakllanib bo'lgan.

## **7.3. AMBTB ning tuzilishi va mazmuni**

Odatda AMBTB tarkibiga quyidagi ma'lumotlar kirishi zarur:

Amaldagi qonunchilik asoslari. Mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sir doirasi va uning AMBTB jarayoni yoritiladigan turli darajadagi me'yoriy-xuquqiy hujjatlarning qisqa tavsifi.

**Loyiha va uning muqobil variantlari to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar.** Loyihani amalga oshirishning maqsadlari hamda qo'yilgan maqsadga erishishning muqobil variantlari qisqacha yoritiladi. Bu qismga loyihaning asosiy tavsiflari, shu jumladan, foydalaniladigan resurslar, chiqindilarning xajmi, fizik ko'rsatkichlari, foydalaniladigan texnologiyalar va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

**Mavjud tabiiy sharoitlar va atrof-muhit komponentlarining tavsifi.** Mo'ljallanayotgan faoliyat ta'sirining taxmin qilinayotgan hududi asosli aniqlanishi, tabiiy sharoit va atrof-muhitning komponentlari tavsiflanishi zarur. Aytib o'tilganidek "sharoit va komponentlar" keng ma'noda tushuniladi. Ularga odatda nafaqat, tabiiy muhitning xolati (tuproqlar, suvlar, atmosfera xavosi), iqlim, fauna va flora, balki tarixiy-ma'daniy qadriyatlar aholi sog'ligi hamda ushbu omillar orasidagi o'zaro bog'liqlar ham kiritiladi.

**Atrof-muhitga loyiha ta'sirining potentsial omillarini, tavsifi va ular bilan bogliq mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bashorat qilish.** Loyiha hayotiy siklining barcha bosqichlarida sodir bo'ladigan bevosita, bilvosita, qisqa va uzoq muddatli barcha ta'sirlar, ta'sirlarni bashoratlash metodlari ko'rsatilishi va asoslanishi lozim. Atrof-muhitning oldingi bandda ko'rsatib o'tilgan barcha elementlariga bo'ladigan ta'sirlari hujjatlashtirilishi lozim. hisobot nafaqat ta'sirlarning qiymati, balki ularning ahamiyati haqida ham ma'lumot berishi lozim. Ta'sirlarning ahamiyatini baholashda manfaatdor tomonlar va jamoatchilikning fikrini hisobga olish zarur.

**Ta'sirlar o'rganilayotgan har bir muqobil variant uchun tavsiflanishi lozim.**

**Ta'sirlarni yumshatish tadbirlarining tavsifi va tanlangan muqobil variantni asoslash.** Muqobil variantlarni taqqoslash mezonlari ko'rsatilishi va muayyan variantlarning tanlab olinish sabablari ochiq ko'rsatilishi lozim.

**Tavsiflanayotgan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari asoslangan va eng ahamiyatli salbiy ta'sirlarni kamaytirishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.** Ularning samaradorligi baholanishi va "qoldiq ta'sirlar" tavsiflanishi zarur. So'nggi vaqtlarda AMBTTBga ekologik boshqaruv rejasini kiritish to'g'risidagi talablar ortib bormoqda.

**AMBTB bo'yicha hujjatlarga qo'shimcha talablar ko'pincha manfaatdor tomonlar va jamoatchilik bilan maslahatlashuv protsedurasini tavsiflash zarurligini o'z ichiga oladi.** Bu xolda AMBTTBga, jamoatchilik ishtiroki tadbirlarining ro'yxati, jamoatchilik eshituvlarining bayonnomalari, davlat organlarining kelishtirish hujjatlari va shunga o'xshash ma'lumotlar kiritilishi mumkin. AMBTB hujjatlarining shakli AMBTB jarayonining samaradorligi uchun uning mazmuni kabi katta ahamiyatga ega.

**AMBTTB yoki unga o'xshash hujjat, atrof-muhitga ta'sirlarni baholash jarayonining ishtirokchilari uchun tushunarli bo'lishi lozim.**



Bular bir tomondan qaror qabul qiluvchi shaxslar, boshqa tomondan - manfaatdor tashkilotlar va jamoatchilik. Faoliyat yurituvchi AMBTTBni tayyorlash uchun zarur bo'lgan maxsus ilmiy-texnik tayyorgarlikka ega bo'lmasligi mumkin. Bu holat hujjatlarning bayon qilish usuli va tuzilishiga nisbatan ma'lum talablarni qo'yadi. AMBTTB hujjatlarining to'liq va aniq tuzilishiga erishish zarur. U mazmuni yoritishdan boshlanishi, jadvallar ro'yxati va tasvirlardan iborat bo'lishiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Ko'pgina milliy tizimlarda AMBTTBga mutaxassis bo'lmagan kishilarga tushunarli bo'ladigan AMBTTBning asosiy xulosalarni bayon etadigan maxsus rezyume (xulosa) kiritilishi talab qilinadi. AQShda bunday "razyume- xulosa"ning hajmi 15 bet, murakkab va yirik loyihalar uchun 30 betni tashkil etishi talab qilingan. Bundan tashqari, AMBTTBning har bir bobida dastlab asosiy g'oyalar qisqacha mohiyati, yakunida esa xulosalar bayon qilinadi.

AMBTTB tushunarli tilda yozilishi zarur, unda shevali so'z va texnik atamalarni ishlatmaslik kerak. Maxsus ilovalarda ixtisoslik atamalari va qisqartmalarga sharh berilishi lozim. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning asosiy xulosalarini aks etirish uchun diagramma, jadval, fotosurat, xarita va boshqa grafik materiallaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**AMBTTBga bo'lgan talablar nafaqat hujjatning mukammal tayyorlanganligi va rasmiylashtirilganligiga tegishli bo'libgina qolmay, shu bilan birga atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari xaqqoniy va ob'ektiv bayon etilishini hisobga oladi.** Oldini olish murakkab bo'lgan jiddiy ta'sirlarning bayoniga e'tibor, ahamiyatsiz yoki oson bartaraf etiladigan ta'sirlar bayoniga alohida e'tibor karatilishi kerak. Atrof-muhitga bo'lgan salbiy va ijobiy ta'sirlarning ko'lami AMBTTB(3VOS)da bayon etilgan ko'lamga muvofiq kelishi lozim.

Ta'sir qiymati va uning ahamiyatligi chegaralanishi zarur, zero, manfaatdor tomonlarning turli guruhlar ta'sir qiymatini baholanishiga moyillik bildirgani holda, uning ahamiyatligini turlicha baholashlari mumkin.

Tavsiya qilinayotgan loyiha va uning ta'sirini bayon etishda «baholash» tavsiflari kamroq yoritilishi kerak. Masalan "kichikroq o'zgarishlar" yoki "ekologik toza texnologiyalar" iboralarini qo'llashda qiyosiy tavsiflar berilishi, ya'ni, nimaga nisbatan "kichikroq" ekanligi va "ekologik toza texnologiya"ni aniqlovchi mezonlar izohlanishi lozim.

#### **7.4. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning sifati nazorati**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash qarorlarni tayyorlash va ularni qabul qilish vositasidir. qaror qabul qilish uchun asosiy va muhim ma'lumotlarning qanchalik to'liq va ishonchli ekanligini bilish kerak. Ko'plab milliy tizimlarda ana shu holat inobatga olinganligini tekshirish uchun AMBTTB sifatini nazorat qilish uchun maxsus protseduralar

qo'llaniladi. AMBTB jarayonining turli bosqichlarida nazorat qilish va sifatini baholash turli tashkilot va shaxslar tomonidan o'tkazilishi mumkin.

**AMBTB sifatini tekshirish, AMBTB bo'yicha hujjatlarni baholash yoki AMBTB jarayonini baholash orqali amalga oshiriladi.** hujjatlarni tekshirishni tashkil etish ancha oson. Agar jarayonning predmeti u yoki bu tashkil qiluvchilarining mavjudligidan emas, balki sifatli baholashdan iborat bo'lsa, u holda baholash biroz qiyin kechadi. Buning uchun yoki AMBTB jarayoni haqida to'liq va ishonchli ma'lumotlarga ega bo'lish (har qanday vaziyatda ham hujjatlashtirish asosiy shart) yoki shu jarayonda ishtirok etishi (buning esa har doim ham imkoni bo'lmaydi) zarar. Bundan tashqari hujjatlashtirish AMBTB bosqichlarining avvalgi natijasi hisoblanadi va qarorlar qabul qilishda aynan ulardan foydalaniladi. Shu sababli AMBTB sifatini nazorat qilishga yondashuvlar hujjatlashtirishning sifatini baholashga asoslangan va eng avvalo, AMBTBning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash hujjatining asosiy g'oyalarini aks ettiradi. Rasmiy hujjatlar va ilmiy nashrlarda mazkur bosqich ko'pincha hujjatlashtirishning sifatini baholash (ekspertiza) ko'rinishida ifodalanadi.

#### **Sifat nazoratining maqsad va vazifalari**

AMBTB sifatini nazorat qilishning maqsadi AMBTB natijalarini qarorlar qabul qilish uchun yaroqliligini baholashdir. Odatda hujjatlashtirish sifatini nazorat qilish jarayonida quyidagi vazifalar hal etiladi:

-AMBTB da tahlil qilingan va ifodalangan ma'lumotlarning to'liqliligini hamda qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim qilish zarurligini baholash;

- ma'lumotlarni aniqligi, haqqoniyligini hamda foydalanilgan usullarning to'g'riligini baholash;

- AMBTBga ma'lumotlarni taqdim qilish sifatini baholash.

Ko'plab milliy tizimlarda AMBTB sifatini nazorat qilish mo'ljallanayotgan faoliyatni mustaqil baholash bilan uyg'unlashtirilgan bo'lib, ularning vazifalari quyidagilardan iborat:

-mo'ljallanayotgan faoliyatning faraz qilingan oqibatlarining ahamiyatliligini baholash:

- salbiy ta'sirlarni oldini olish va kamaytirish bo'yicha taklif qilinayotgan tadbirlarning yetarlili ekanligini hamda qo'shimcha tadbirlar ishlab chiqish zaruriyatini baholash;

- mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning mumkin yoki mumkin emasligini hamda uni amalga oshirish shartlari to'g'risidagi tavsiyalarni shakllantirish.

Sifat nazorati natijalari maxsus hujjatda ifodalanishi mumkin. Ko'pincha bu hujjat AMBTB bilan bir qatorda, mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning imkoniyati haqidagi qaror qabul qilishda ko'rib chiqiladi. Ko'plab tizimlarda ushbu hujjatni majburiy ravishda nashr qilish yoki uning barcha uchun ochiqligini ifodalovchi Nizomlar mavjud.

#### **AMBTB hujjatlari sifatini baholash**

AMBTB bo'yicha hujjatlar sifatini tekshirishda turli yondashuvlar bo'lishi mumkin. Avvalo, uning AMBTB hujjati va mo'ljallanayotgan faoliyatga qonun talablari nuqtai nazaridan muvofiq kelishi tekshiriladi. Bunga hujjatlar va (baholash predmet) lari taaluqli. Bunday tekshiruvni amalga oshirish muhim, ammo ko'pgina holatlarda me'yoriy hujjatlarning talablari ular uchun yetarli bo'lmaydi. Yondashuvlarning yana bir ko'rinishi - bu AMBTB jarayonida avval qabul qilingan va atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash vazifalarini belgilab beruvchi hujjat bilan taqqoslash sanaladi. Bunday yondashuv, odatda hujjatni tayyorlashga nisbatan qonuniy talablar mavjud mamlakatlarda qo'llaniladi. Masalan, AQSh atrof-muhitni muhofaza qilish Agentligida mo'ljallanayotgan faoliyatning atrof-muhitga ta'siri maqbulligini baholash uchun quyidagi ko'rinishdagi shkala qabul qilingan:

Baholash natijasi	Natijaga olib keluvchi sabablar
Kamchiliklar yo'q	AMBTBning tahlili loyihani o'zgartirishga olib keladigan jiddiy ta'sirlarni aniqlamaydi
Ekologik xarakterdagi kamchiliklar mavjud	AMBTBning tahlili atrof-muhitga etkazilishi mumkin bo'lgan zararni to'liq bartaraf etish, kamaytirish yoki oldini olishga imkon beruvchi ta'sirlarni ochib beradi
Ekologik xarakterdagi e'tirozlar mavjud	AMBTBning tahlili atrof-muhitga keladigan zarardan to'la xolis bo'lish, ularni kamaytirish yoki oldini olish zaruriyatini ifodalovchi kuchli ta'sirlarni aniqlaydi
Ekologik jihatdan qoniqarli emas	AMBTBning tahlili katta mashtabdagi salbiy ta'sirlarni mavjudligini ko'rsatdi. Mo'ljallanayotgan faoliyat taklif qilinayotgan xolatda, ya'ni ta'sirlarni kamaytirish yoki oldini olish bo'yicha qo'shimcha tadbirlarsiz amalga oshirilishi mumkin emas

Ko'pchilik holatlarda AMBTB bo'yicha hujjatlarning sifatini baholash uchun mezonlarning tizimli to'plami qo'llaniladi. Ulardan eng ko'p ommalashgani Li-Kollinning AMBTB sifatini baholash paketi bo'lib, u 90-yillarda Buyuk Britaniyada yaratilgan. Bu paketning mahalliy sharoit va mavjud qonunchilik talablariga moslashtirilgan variantlari Buyuk Britaniya, Germaniya, Shvetsiya, Vengriya, Slovaniya, Polsha, Bolgariya kabi bir qator mamlakatlarda qo'llanilib kelinmoqda.

Li-Kolli paketi to'rt qismdan iborat:

- mo'ljallanayotgan faoliyat, uni amalga oshirish hududi va mavjud sharoitni tavsiflash;
- asosiy ta'sirlarni aniqlash va baholash;

- ta'sirlarni kamaytirish va oldini olishning muqobil variantlari va tadbirlari;
- AMBTB natijalarini bayon qilish.

Paketning har bir qismi atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning u yoki bu qismi qanchalik sifatli bajarilganligini yarim miqdoriy baholashga imkon beradigan mezonlar to'plamini o'z ichiga oladi.

Mezonlar paketi mo'ljallanayotgan faoliyat olib boriladigan sohada malakasi bo'lmagan mutaxassislar (masalan, ma'muriy tashkilotlarning xodimlari) tomonidan ham bemalol qo'llanilishi mumkin. Mazkur mezonlar tizimidan foydalanish hujjatlarning tartibli yuritilishini ta'minlaydi.

Mezonlarning qo'llanilish sohasi vakolatli idoralar tomonidan AMBTB sifatini nazorati bilan chegaralanib holmaydi. Mezonlar paketidan manfaatdor tomonlar (masalan, jamoat tashkilotlari tomonidan AMBTTB sifatini norasmiy baholash maqsadida) ham foydalanishlari mumkin. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni amalga oshiruvchi tomonlar AMBTTBni tayyorlashda «Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash sifati ko'rsatkichlari» aniq bayon etilgan tizimli mezonlar paketlaridan qo'llanma sifatida foydalanishlari mumkin.

Ayni vaqtda AMBTB jarayoni sifatini baholashning mezonlar tizimiga o'xshash ommaviy tan olingan mukammal usullari mavjud emas. Shuning uchun ilmiy-tadqiqot muassasalari AMBTB sifatini baholash uchun:

1. AMBTB jarayonida manfaatdor tashkilotlar va jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro kuchli hamkorlik;
2. ekspertlarning malakasi;
3. AMBTB o'tkazilishi natijasida loyihaga kiritilgan o'zgarishlarning miqdori va xarakteri kabi mezonlardan foydalanishni tavsiya qiladi.

AMBTB hujjatlari sifatini nazorat qilish davomida Niderlandiya davlatida aniqlangan kamchiliklar va ularning mohiyati quyida misol tariqasida keltirilgan:

**Mo'ljallanayotgan faoliyatni maqsadi keng ko'lamda o'rganilmagan.**

*Mo'ljallanayotgan faoliyat sifatida avtomobil yo'llari qurilishining turli variantlari ko'rib chiqiladi. Faoliyatning maqsadi odamlar va yuklarni yurishi tashishdan iborat. Bu maqsadga temir yo'llar va transportning boshqa turlarini rivojlantirish orqali erishish ham mumkin.*

**Mo'ljallanayotgan faoliyat tavsifi uning barcha jihatlarini o'zida aks ettirmaydi.**

*hujjatlarda mo'ljallanayotgan faoliyat sanoat korxonasi qurilishi sifatida ifodalanadi, lekin unda zarur sanalgan quvur liniyalarini qurish, xom-ashyoni tayyorlash, mahsulotni tashishning boshqa vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilmagan.*

**Ta'sirlarni kamaytirish va oldini olishning oqilona choralari nazarda tutilmagan.**

*qattiq maishiy chiqindilar poligoni loyihasi portlash xavfi bo'lgan metan gazini yig'adigan tizimni qo'llash lozimligini e'tiborga olmagan.*

**Ehtimoli bor jiddiy ta'sirlar bayon qilinmagan yoki noto'g'ri talqin qilingan.**

*qattiq maishiy chiqindilar poligoni AMBTTB sida zovur tizimida yuz berishi mumkin bo'lgan buzilishlar bayon qilinmagan.*

**Etarli bo'lmagan, noto'g'ri yoki muddati o'tgan ma'lumotlar, usullar yoki hisoblash modellaridan foydalanilgan.**

*hududning rivojlanish rejasi aholini ko'chirishni baholash maqsadida mahalliy sharoit uchun aniq ma'lumotlar mavjud bo'lgani holda milliy masshtabdagi o'rtacha ma'lumotlardan foydalangan.*

AMBTTB sifatini tekshirish zarurligi qonun bilan mustahkamlanmagan joylarda ham davlat yoki boshqa tashkilotlarning tashabbusi bilan hujjatlarning sifatini baholash o'tkazilishi mumkin.

O'zbekiston sharoitida AMBTTB sifatini (atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning to'liqligi) tekshirish odatda mazkur faoliyat yuzasidan davlat ekologik ekspertizasi o'tkaziladigan bosqichda davlat ekologik ekspertiza komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

## **8-BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASH VA QARORLAR QABUL QILISH**

### **8.1. Qarorlar qabul qilish tizimida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning o'rni**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning asosiy natijasi mo'ljallanayotgan faoliyat yuzasidan qarorlar qabul qilish jarayonida ekologik omillarni xisobga olishdir. Bu omillarni AMBTTB jarayoni va loyiha siklining turli bosqichlarida hisobga olish mumkin. Faoliyat tashabbuskori yoki AMBTTBni ishlab chiquvchilar tomonidan AMBTTBning oraliq va yakuniy natijalari ta'sir etishi mumkin bo'lgan turli darajadagi loyiha olinadi va loyiha qarorlari qabul qilinadi. Loyiha qarorlari muqobil variantlar tahlillarining natijalari va manfaatdor tomonlarning tutgan yo'lini hisobga olgan holda qabul qilinishi mumkin. Ta'sirlarning bashoratlari asosida ularni yumshatish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish xaqida qarorlar qabul qilishi mumkin. Turli davlat idoralari maslahat yoki kelishuvlar jarayonida muayyan ta'sir turini ruxsat etish yoki mo'ljallanayotgan faoliyatning ma'lum jihatlariga qo'yilgan chegaralar to'g'risida qaror qabul qilish, ma'lum ruxsatlarni yoki litsenziyalarni berishi mumkin. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash samaradorligi uning materiallaridan qarorlar qabul qilishda qay darajada foydalanganligiga bog'liq.

Mo'ljallanayotgan faoliyatni rejalashtirish vaqtida qabul qilinadigan qarorlar bir-biri bilan uzviy bog'liq va bir-birlarini taqozo etadi.

Muayyan hudud va ma'lum vaqtga tegishli qarorlarni qabul qilish haqidagi tasavvurlar shartli bo'lib, amalda faoliyat tashabbuskori taklif qilayotgan faoliyatni amalga oshirish imkoniyati to'g'risidagi qaror asosiy sanaladi. Bunday qaror hamisha davlat idoralari tomonidan qabul qilanadi va tegishli ruxsatnomani berish ko'rinishida ifodalanadi. Ko'pincha bu ishni hudud mahalliy boshqaruvi yoki yerdan foydalanish masalalariga boshchilik qiladigan idoralar bajaradi. Ayrim hollarda tarmoq muassasalari ham tegishli qarorlarni qabul qilishi mumkin. Masalan, aloqa yo'llarini rivojlantirishga yo'naltirilgan loyihalar bo'yicha qarorlarni Transport vazirligi chiqaradi. Agar faoliyat tashabbuskori davlat muassasi bo'lsa, tegishli qarorlar uning o'zi tomonidan qabul qilinishi mumkin.

Boshqa omillar mo'ljallanayotgan faoliyatning potentsial ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlar, turli sohalarda milliy va hududiy siyosatning asosiylarini o'z ichiga oladi.

qaror qabul qiluvchi shaxslarga mo'ljallanayotgan faoliyat va uning ahamiyatli ta'siri to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etish AMBTB ning vazifasi hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida AMBTB sifatini nazorat qilishning muhim vazifasi ushbu ma'lumotdan qarorlarni qabul qilish maqsadida foydalanishni baholashdan iborat.

qarorlar qabul qilish bosqichida hal etiluvchi asosiy masala AMBTB natijalari yoki sohaga tegishli boshqa xulosalarini o'zaro bog'lashdir. qarorlar qabul qilishning ko'plab norasmiy usullari ma'lum bo'lib, quyidagilar ular orasidagi eng ommaviylari sanaladi:

### **1. Ekologik standartlarga mosligini tekshirish;**

Bu usul faoliyatning qonunchilik me'yorlariga muvofiq qo'llanilishga ruxsat berilishini ifodalaydi. Agar standart mavjud va AMBTB ta'sirlar "me'yorlanganligini" oldindan aniqlagan bo'lsa, usulni qo'llash nisbatan oson. Ammo yuqorida ko'rsatib o'tilgan atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning ko'pgina afzalliklari muayyan faoliyatni (jumladan, noyob mahalliy sharoitlar, manfaatdor tomonlarning fikri, to'plangan ta'sirlar va standartlar bilan boshqarilmaydigan ta'sirlarni hisobga olish) amalga oshirishga yo'l qo'ymaydi. Bunday usulni qo'llash, ayniqsa ekologik vazirliklar yoki ekspertlar qaror qabul qilishda ishtirok etadigan tizimlar uchun xarakterli.

### **2. Iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligining tahlili;**

Bu usul loyihadan pul shaklida olinadigan foydani hisoblash maqsadini ifodalaydi. Muammolar ko'plab ta'sirlarni pul shaklida ifodalaydi va "taqsimlanish samarasi"ning inkor qilishda texnik imkoniyatlar yo'qligini ko'rsatadi (buning oqibatida taklif etilayotgan loyihadan bir ijtimoiy guruh foyda ko'rsa, boshqa guruhlar zarar ko'radi).

### **3. Ko'p mezonli tahlil;**

Bu guruhga "maqsadga erishish matritsasi", "rejalashtirishning balans jadvallari", tartibga solish va chamalash kabi usullar kiradi. Umuman, oddiy usullar keng qo'llaniladi va ular odatda sezilarli darajada norasmiy qarorlarning sifatini yaxshilaydi.

### **4. Ekspert baholash usullari.**

Bunday usullar amaliyotda keng qo'llaniladi, zero, ular rasmiy usullar bilan bog'liq qo'shimcha ma'lumot yoki harajatlarni talab qilmaydi. Ekspert baholash usullari qarorlarni qabul qilish mezonlari mavjud bo'lgan hollarda yuqori samara beradi. Bunda manfaatdor tomonlar bilan uyushtiriluvchi maslahatlar, ekspert va maslahatchilarning malaka va tajribalarga egaliklari va qarorlarning norasmiy asoslanishi muhim ahamiyatga ega.

## **8.2 AMBTBda qarorlar qabul qilish**

Milliy qonunchilik me'yorlari sohada qarorlar qabul qilishda ekologik omillarni to'g'ri inobatga olishishini ta'minlaydi. Minimum sifatida tegishli qonunchilik asoslari, ekologik omillar yoki AMBTB natijalari qarorlarni qabul qilishda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan umumiy ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. quyida mazkur jarayon to'g'risida so'z yuritiladi.

**Qarorni hujjatlantirish.** Ko'plab AMBTB tizimlarida asosiy g'oya qarorlarning ta'riflari, omillar va mulohazalar bilan birga e'lon qilinadi. Bu ma'lum darajada jamoatchilik va boshqa manfaatdor tomonlar uchun qarorlar qabul qilish jarayonini oydinlashtiradi.

Faoliyat tashabbuskori hujjat hamda quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi qarorlar bayonini tayyorlashi zarur:

- qarorning bayon qilinishi;
- ekologik nuqtai nazaridan afzal bo'lgan muqobil variantlarning qayd etilishi;
- qarorlar qabul qilish jarayonida ko'rib chiqilgan ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy omillar;
- ta'sirlarni kamaytirish va oldini olish bo'yicha nazarda tutilgan tadbirlarning qisqacha bayoni, agar tashkil etilish imkoniyati yetarli bo'lmagan tadbirlar nazarda tutilgan bo'lsa, qarorning asoslanishi.

AMBTB bo'yicha Evropa Direktivasi (1997-redaktsiyasida) AMBTB materiallarining mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishga ruxsat berish protsedurasida hisobga olinishini talab qiladi. qaror qabul qiluvchi muassasa (organ) jamoatchilikni qarorning mazmuni va ilova qilingan sharoitlar, qarorlarga asos qilib olingan sabablar va mulohazalar, ta'sirlarni kamaytirish va oldini olish tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlardan xabardor qilishi lozim.

### **Shikoyat qilish (appelyatsiya) imkoniyati**

AMBTB da tashkilotlar va fuqorolar sudga murojaat qilish imkoniyatiga egalar. Sudga murojaat qilish AMBTB da qonunga rioya qilishning asosiy mexanizmlaridan biri sanaladi. Da'vo qilish uchun asos protsedura xarakteridagi xatti-harakatlar bo'lishi mumkin. Gollandiyadagi tartibga ko'ra fuqarolar "uchinchi" manfaatdor tomonlar ishtirokida ma'muriy tartibda, og'zaki shikoyat ko'rinishida sudga murojaat qilish huquqiga egadirlar. Bu mexanizm yetarli darajada samarali hisoblanadi.

"Ekologik ma'lumotlarga kirish konventsiyasi" (Evropa konventsiyasi) talablariga muvofiq "Yetarli darajada manfaatdor" jamoatchilik vakillari yoki huquqi poymol etilgan shaxslar sudga (yoki

boshqa mustaqil, holis organ) o'z huquqlarini himoyalash tarzida qarorning mazmunini yoki protsedura jihatlarining qayta ko'rib chiqilishiga erishishlari mumkin. Konventsiya tomonlarning vakolati muayyan darajada noaniq bo'lsa-da, "manfaatdor" tomonlarni maxsus belgilab beradi. Milliy qonunga muvofiq faoliyat yuritadigan nodavlat ekologik tashkilotlari ana shunday sub'ekt bo'ladi.

Shunday qilib, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning natijalari ma'lum vaqtda "mutaxassislar" guruhi tomonidan qabul qilinadigan bir qarorgina bo'lmay, balki bir necha guruhlar ishtirok etadigan va loyihani tayyorlash, uni amalga oshirish bosqichlarida, shuningdek, mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishda foydalaniladigan ko'plab qarorlardan iboratdir.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash vazifalarini muvaffaqiyatli hal etilishi AMBTBda turli qarorlar (metodologik, protseduraviy, qonunchilik asoslari bilan) bog'liqligi samarali tashkil etilishini kafolatlaydi.

Odatda loyihani amalga oshirishning daslabki bosqichlarida qarorlar qabul qilishning samarali tizimlari, mo'ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishning muqobil variantlari taqqoslanadi. Bu jarayonda, shuningdek, manfaatdor tomonlar bilan rasmiy maslahatlar ham ko'zda tutiladi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari bo'yicha qarorlar qabul qilishda maqbul, samarali usullardan foydalanish zarur. Foydalanilgan aniq mezonlar, malakali ekspertlarning maslahatlari va yuridik maqomga ega manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari hujjatlashtirilgan bo'lishi, asoslanishi va bunda shikoyat qilish imkoniyati nazarda tutilishi lozim.

## **9-BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASHNING LOYIHADAGI KEYINGI BOSQICHLARI**

### **9.1. AMBTBni loyihadan keyingi bosqichlarining umumiy tamoyillari**

Atrof-muhitga ta'sirlarni baholash yo'lga qo'yila boshlagan dastlabki davrlarda AMBTB ning markaziy elementi sifatida "ta'sirlarni baholash" ning o'zigina tushunilardi va ta'sirlar to'g'ri baholangan bo'lsa, ularni kamaytirish chora-tadbirlardi o'z-o'zidan ishlab chiqiladi va bajariladi degan ishonuvchanlik fikrlari mavjud edi.

Ta'sirlarni aniqlash, bashorat qilish va hujjatlashtirishda ma'lum tajribalar to'plana borgan sayin "AMBTB tuzilib, loyiha maqullanib va uni moliyalashtirish boshlanganidan keyin nima bo'ladi?" degan haqli savol tug'ila boshladi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki faoliyatni amalga oshirish olingandan so'ng AMBTB unutiladigan bo'lsa, u faqatgina "qayd etilgan ezgu niyatlar to'plami" gina bo'lib qoladi va undan keladigan samara juda past bo'ladi. Odatda AMBTB tavsiyalari samarasiz bo'lishi yoki umuman bajarilmasligi uchun talay sabablar bo'lishi mumkin:

1. xo'jalik ob'ektlarini ishga tushirilishi va faoliyat yuritishida AMBTB tavsiyalari to'liq e'tiborga olinmaydi (yomon tayyorlangan smetalar va



tashkiliy tadbirlarga etarli darajada e'tibor qaratmaslik AMBTB tavsiyalari amalda bajarilmasligini asosiy sababi hisoblanadi);

2. tashqi sharoitda ko'zda tutilmagan, jumladan, atrof-muhit holatining o'zgarishi va boshqa xo'jalik faoliyatini paydo bo'lishi kabi o'zgarishlar bo'lishi mumkin;
3. faoliyatni atrof-muhitga ta'siri to'g'risidagi bilimlarni to'liq emasligi, ta'sirlarni aniq bashorat qilishga imkon bermaydi.

AMBTB to'g'risidagi tasavvurlarning o'zgarishi natijasida AMBTB xulosalari faqat faoliyat loyihasini tayyorlash uchungina xizmat qilmasligi, balki faoliyatni amalga oshirish bosqichida ularga to'la rioya qilinishi o'ta muhim ekanligi anglab yetildi. Aynan shuning uchun AMBTB o'z tarkibiga loyihadan keyingi bosqichlarni kiritishi lozimligi belgilab qo'yildi.

AMBTB ning loyihadan keyingi vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

1. ta'sirlarni oldini olish va kamaytirish bo'yicha AMBTB jarayonida ishlab chiqilgan tavsiyalarning bajarilishini ta'minlash;
2. ta'sirlarning amaldagi xarakteri va qiymatlarini ularning avval taxmin va bashorat qilingan darajalari bilan taqqoslash asosida doimiy baholab borish. Zarur hollarda ta'sirlarni oldini olish va kamaytirish chora-tadbirlariga tuzatishlar kiritish;
3. amaldagi AMBTB uslublarini avvaldan qilingan bashoratlarni to'g'riligi va belgilangan chora-tadbirlarni samarasi xaqidagi ma'lumotlarni to'plash va baholash natijalari asosida rivojlantirish.

AMBTB rivojining hozirgi bosqichida yuqoridagi masalalarni bajarilishini ta'minlovchi eng muhim mexanizm "ekologik boshqaruv rejasi" (EBR) hisoblanadi va uni AMBTB ning yakuniy hujjatlari sirasiga kiritish ko'plab halqaro tashkilotlar talabnomalarida qayd etilmoqda.

**Ekologik boshqaruv rejasi (EBR)** – bu salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni yo'qotish, ularni qoplash va mumkin bo'lgan darajagacha kamaytirish uchun loyihani bajarish bosqichida zarur bo'lgan, tashkiliy, texnik va monitoring tadbirlarining to'plamidir (*Jahon bankining tarifi*).

Ekologik boshqaruv rejasini tuzishning muhimligi ularning tabiatni muxofaza qilish tadbirlariga bo'lgan talablarni ular ustidan nazoratni engillashtiradigan yagona hujjat ko'rinishiga keltirishidagina emas. hozirgi zamon ekologik rostdash tizimlarida loyihalarni maqullash va ularni amalga oshirilishi ustidan nazorat ma'muriy va davlat boshqaruvining turli bo'g'inlarida amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari loyihani ishlab chiquvchi yoki uning buyutmachisi (AMBTB uchun ma'sul), korxonah rahbari yoki egasi loyihani amalga oshirish bosqichida bir-biridan farq qilishi mumkin. Amaliyotda loyiha amalga oshirish bosqichiga o'tgandan so'ng uning "egasi" o'zgarganligi tufayli AMBTB tomonidan tavsiya qilingan tadbirlar bajarilmay qolgan holatlar ko'plab uchraydi. EBR ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish ma'suliyatini loyihani ishlab chiquvchi va ruxsat etuvchi davlat idorasidan uning egasi (rahbari) va nazorat qiluvchi davlat idorasigacha yetkazishni ta'minlaydigan mexanizmdir.

AMBTB hujjatlari tarkibidagi EBR ga qo'yiladigan talablar orasida Jahon bankining talablari eng ilg'or sanaladi. Jahon bankining etakchi mutaxassis ekologlari EBR ga katta ahamiyat berishib, EBR ni AMBTB jarayonining asosiy yakuniy hujjati etib qabul qilishni tavsiya qiladilar.

Jahon banki talablariga ko'ra EBR ning eng muhim qismi monitoring bo'yicha tadbirlarni ifodalash sanaladi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashda qo'llaniladigan monitoringga ayrim hollarda "AMBTB monitoringi" deb ham aytiladi, lekin xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladigan "loyihadan keyingi tahlil" yoki "loyihadan keyingi monitoring" atamaları odatda to'g'riroq sanaladi va ular quyidagi ikkita asosiy vazifani bajarishga yo'naltirilgan faoliyatni aniqroq bayon qiladi:

- loyiha qarorlarini, shu jumladan atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlarini amalga oshirilishini, tasdiqlangan rejaga (jumladan EBR ga) muvofiqligini aniqlash;
- mo'ljallanayotgan faoliyatning amaldagi ta'sirlarini baholash va ularni AMBTB jarayonida bashorat qilingan ta'sirlar bilan taqqoslash.

AMBTB loyihasi hujjatlariga kiritiladigan ekologik boshqaruv rejalariga quyidagilar kiritilishi zarur:

- bashorat qilinayotgan potentsial ahamiyatli barcha ta'sirlarni qisqacha bayoni;
- bashorat qilinayotgan har bir ta'sirni kamaytirish bo'yicha rejalashtirilayotgan har bir tadbir xaqida to'liq axborot;
- monitoring o'tkazish va hisobot berish tartibining bayoni;
- tashkiliy imkoniyatlarni rivojlantirish va o'qitish tadbirlarining bayoni va monitoring olib borish va kamaytirish tadbirlari ma'suliyatlarini taqsimlanishining bayoni;
- bajarish muddatlari va narxlarni baholash;
- EBR ni loyihaning boshqa jihatlari bilan bog'liqligi

Loyihadan keyingi tahlil EBRga bog'liq bo'lmagan faoliyat sifatida talqin qilinib, davlat organlari, jamoatchilik, ilmiy tashkilotlar, NDT va AMBTB ning boshqa manfaatdor tomonlari, buyurtmachi tomonidan o'tkaziladigan turli tadbirlar, yani loyiha va atrof-muhit ko'rsatkichlari ustidan o'tkaziladigan davriy va epizodik kuzatuvlar, inspeksiya va auditlarni o'z ichiga oladi.

Loyihadan keyingi tahlilni tashkil qiluvchilar sifatida odatda quyidagilar e'tirof etiladi:

- amalga oshirish monitoringi - loyihani amalga oshirish ustidan nazorat va tekshiruvni (jumladan, davlat nazorati) nazarda tutadi;
- atrof-muhitga ta'sirlar monitoringi (avval qabul qilingan qarorlarga tuzatish kiritish uchun ma'lumotlarni taqdim qiladi, o'xshash loyihalarni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash uchun axborot bazasini shakllantirishga hissa qo'shadi).
- loyihalarni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash auditi. Ekologik auditning bu turi, AMBTB tizimining samaradorligini muntazam tahlil qilish, jumladan, faoliyat natijasida atrof-muhitga amalda bo'layotgan ta'sirlarni AMBTB jarayonida bashorat qilingan

ta'sirlarga mos kelishini tahlil qilishni nazarda tutadi. U qandaydir ma'noda, atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash xatolari ustida ishlashdan iboratdir va u AMBTB amaliyoti va metodologiyasi rivojiga sezilarli xissa qo'shishi mumkin. Bunday audit natijasida AMBTB amaliyotida yo'l qo'yilgan jiddiy kamchiliklar aniqlanishi va bo'lajak loyihalar AMBTBsini o'tkazishda ularning oldini olishga oid tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Loyihadan keyingi tahlil usul va shakllarining turli tumanligini, uni tashkil qilish va olingan ma'lumotlardan foydalanishning murakkabligini hisobga olib, EBR tarkibida AMBTB monitoringining loyihadan keyingi tahlil rejasini tuzish tavsiya qilinadi.

Monitoring olib boriladigan ko'rsatkichlar ro'yxati imkon qadar to'liq bo'lishi zarur bo'lsa-da, amalda ahamiyatli va o'lchab bo'ladigan elementlarni tadqiq qilish bilan chegaralanish ma'qul sanaladi.

Loyihadan keyingi tahlil (xuddi AMBTBday) bir necha tomonlarning o'zaro hamkorligi asosida olib boriladi. Birinchidan, bu ekologik monitoring uchun mas'ul davlat organi bilan buyurtmachi faoliyatlarini o'zaro muvofiqlashtirilishiga taalluqlidir. Ikkinchidan, loyihadan keyingi samarali tahlil nafaqat manfaatdor tomonlarga ma'lumotlarni taqdim qiladi, balki ulardan olingan ma'lumotlardan faol foydalanadi. Bundan tashqari, EBR yoki AMBTBga kiritilgan ekologik monitoring rejasini jamoat ekologik monitoringini qo'llab-quvvatlash tadbirlarini ham o'z ichiga olishi mumkin.

## **9.2. Loyihadan keyingi bosqichlarda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning loyihadan keyingi bosqichlari rasman va uslubiy jihatdan eng kam ishlab chiqilgan jihatlaridan biridir. Bu atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni tarixiy rivojlanishi bilan bog'liq. AMBTB rivojlanishining dastlabki bosqichlarda asosiy e'tibor faoliyatni amalga oshirish sharoitlari va imkoniyatlarini baholashga qaratilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda natijalarni ta'minlash, ya'ni loyihalarni ekologik talablarni bajarishlariga qaratilgan edi.

Endilikda AMBTBning loyihadan keyingi bosqichlarida monitoring o'tkazish talablari atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tizimlari yaxshi rivojlanmagan davlatlarda ham yetarli darajada ommalashgan. Ekologik boshqaruv rejasini AMBTBga kiritish talablari ko'pchilik davlatlar va xalqaro tashkilotlarning AMBTB tizimlarida mavjud. Bu narsa hozirgi kunda tashkil qilinayotgan tizimlar AMBTBning loyihadan keyingi bosqichlarini muhimligiga alohida e'tibor berishlariga olib keldi.

Ba'zi mamlaktlar milliy qonunchiliklarida AMBTBning loyihadan keyingi bosqichlariga qo'yiladigan talablar aniq yoritilgan. Masalan, Bolgariya AMBTB milliy tizimida AMBTBdan o'tgan loyihalar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash natijalari bo'yicha ekologik

auditdan o'tkaziladi, Chilida esa loyiha ma'qullangach besh yildan so'ng ekologik ob'ekt (korxon)ning egasi (rahbari) o'z hisobidan mustaqil, xolis ekologik audit o'tkazishi va uning natijalarini davlat organlariga taqdim qilishi shart. Bunda korxon ushbu jarayonga ekologik audit sohasida ixtisoslashgan uchta firmani muqobil tarzda taklif qiladi, davlat organi esa ulardan birini tanlaydi va auditor sifatida ta'minlaydi.

Bunday yondoshuvlarni qo'llash amaliyotidagi tajribalar uncha katta bo'lmaganligi bois ularni barcha AMBTB tizimlarida keng qo'llashga tavsiya qilish qiyin. Buning uchun amaldagi tizimlarning samaradorligi aniq isbotlangan bo'lishi lozim.

## **10-BOB. ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI STRATEGIK BAHOLASH**

### **10.1 Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholashning predmeti va maqsadlari, strategik rejalashtirish**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash (AMBTB) taklif qilinayotgan strategik siyosat, reja va dasturlarning ekologik omillari va ehtimoldagi ekologik oqibatlarini tizimli aniqlash va hisobga olish jarayonidir.

Siyosat, reja va dasturlar AMBTBning predmeti hisoblanadi. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash doirasida bu tushunchalarning to'liq asoslangan va ommaviy e'tirof etilgan ta'riflari mavjud emas. Umuman olganda "siyosat, reja va dasturlar" aniq bir ob'ekt loyihasi doirasidan tashqariga chiqadigan barcha tashabbuslarning yig'indisini ifodalaydi. Odatda ular o'rtasida ierarxik munosabatlar mavjud bo'lib, siyosat darajasida qabul qilingan muhim umummilliy qarorlar reja yoki dastur doirasida ma'lum qarorlarni qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Masalan, siyosat ma'lum maqsadga yo'naltirilgan faoliyatning umumiy maqsad va tamoyillarni belgilab berilishi uchun hujjat bo'lishi mumkin. Reja ma'lum siyosatni aniq muddatlarda amalga oshirishga yo'naltirilgan o'zaro bog'liq vazifalar tizimi, dastur esa geografik, sohaviy yoki boshqa umumiy jihatlariga ko'ra birlashtirilgan bir necha loyihalarni o'z ichiga oladi. Ushbu piramidaning eng quyi darajasi sifatida aniq qarorlar qabul qilinadigan aniq loyihalar e'tirof etiladi.

Umumiy holda quyidagilar AMBTB predmeti bo'lishlari mumkin:

- qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar, jumladan, xalqaro kelishuvlar;
- ayrim sohalarning rivojlanish rejalari;
- bir necha mintaqa yoki sohalar doirasida muayyan muammoni echishga yo'naltirilgan maqsadli dasturlar;
- huquqiy rejalar va rivojlanish sxemalari;
- yerdan foydalanish sxemalari.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash quyidagi asosiy maqsadlarga erishishga xizmat qiladi:

**1) Loyiha darajasidagi AMBTB uchun cheklovlar va ularning kamchiliklarini bartaraf qilish, AMBTB uchun mos muhitni yaratish.**

Loyiha darajasida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashdagi eng ahamiyatli cheklashlar mo'ljallanayotgan faoliyat yuzasidan AMBTBni bajarish vaqtigacha qabul qilindigan qarorlarga bog'liq sanaladi.

AMBTB esa bunday qarorlarni ularni qabul qilishdan oldin baholashga imkoniyat yaratadi. AMBTBni olib borish tartibi eng muhim muqobil variantlarni tizimlashtirishga, shu bilan birga ulardan manfaatdor tomonlarni xabardor bo'lishiga imkon beradi.

**2. Alohida loyiha darajasida ko'rilishi qiyin yoki umuman imkoni bo'lmagan ta'sirlarni hisobga olish**

Bu kumulyativ ta'sirlar, ya'ni reja yoki dastur doirasida amalga oshiriladigan bir necha alohida loyihalar oqibatida yuzaga keladigan umumiy ifloslanishni baholash yoki aniq loyihalarga o'xshamaydigan tashabbuslar (masalan, tabiatdan foydalanishni boshqarish tizimini o'zgartiradigan me'yoriy huquqiy hujjat) darajasidagi ta'sirlarni hisobga olish bo'lishi mumkin.

**3. Barqaror rivojlanishga yordam berish**

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash rivojlantirish maqsadlarini aniqlashda ekologik nuqtai nazardan yondoshuvni ta'minlashi tufayli umumbashariy yoki mintaqaviy ekologik muommalarni oldini olish yoki ularni bartaraf etishga xizmat qiladi va bu bilan barqaror rivojlanishni ta'minlashga ko'maklashadi.

**10.2 AMBTB tamoyillari va ularni tashkil qilish**

AMBTB tamoyillari loyihalarni atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash bilan o'xshashdir.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholashning umumiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- Siyosat, reja yoki dasturlarning ekologik jihatlarini baholash uchun mas'ul - ularni ishlab chiqish va qayta ko'rib chiqish tashabbuskori bo'lgan tashkilotlardir.
- baholash jarayoni vaqtliroq, ya'ni SRD loyihalarini ishlab chiqish jarayonida boshlanishi zarur;
- baholash masshtabi atrof-muhitga bo'ladigan potentsial ta'sirning masshtabiga mos kelishi zarur;
- baholashning maqsad va vazifalari aniq-ravshan belgilanishi shart;
- maqsad va vazifalarni amalga oshirishda muqobil variantlarning atrof-muhitga ta'sirlari o'rganilishi shart;
- ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa omillar ko'rib chiqilishi zarur;
- ta'sirlarning ahamiyatliligi va mumkinligini baholash ekologik siyosatning maqsadlari va amaldagi standartlarga asoslangan bo'lishi shart;
- jamoatchilik ishtiroki uchun imkoniyatlar yaratilgan bo'lishi shart;

- baholash, uning natijalari va qabul qilingan qarorlar xaqidagi ma'lumotlar (ma'lumot maxfiyligi rasman belgilangan holatlardan tashqari) barcha uchun ochiq bo'lishi lozim;
- SRDni amalga oshirish natijalarini baholash va ularning ustidan monitoringini amalga oshirish;
- AMBTSB jarayonini holis baholash, uni mavjud talablarga mosligi va samaradorligini ta'minlaydigan mexanizm bo'lishi lozim;
- hududni rivojlantirish yoki yerdan foydalanish rejalarining atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholashning hujjatlari sifatini belgilovchi mezonlar quyidagilar bo'lishi mumkin;
- hujjatlarda rejani amalga oshirish natijasida ta'sir ostiga tushadigan atrof muhit komponentlarining bayoni bo'lishi va bunda asosiy e'tibor atrof muhitning eng muhim va nozik komponentlariga qaratilishi lozim;
- hujjatlar rejaning atrof-muhit va barqaror rivojlanish bilan bog'liq maqsadlarini tahlil qilishi va reja va uning muqobillarini amalga oshirishda yuz beradigan oqibatlarni baholash uchun mezon va ko'rsatkichlar tizimini tavsiya qilishi lozim.
- potentsial, shu jumladan kumulyativ ta'sirlar muntazam baholanishi va bashorat qilinishi lozim;
- hujjatlar mazkur reja doirasida amalga oshiriladigan alohida loyixalarni ekologik baholash jarayonida AMBTSB natijalaridan foydalanish to'g'risidagi tavsiyalarni o'z ichiga olishi lozim.
- AMBTSB xulosalarini olishda foydalanilgan usullar ifodalanishi va tushuntirilishi, hamda jamoatchilik ishtiroki natijalari bayon qilinishi lozim.
- atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash xujjatlari barqaror rivojlanish rejasini baholashga xissa qo'shishi lozim.

Umuman olganda AMBTSB ni olib borish tartibi va usullari baholash lozim bo'lgan strategik tashabbusning tabiatiga bog'liq sanaladi.

## **11-BOB ATROF-MUHITIGA BO'LADIGAN TA'SIRLARNI BAHOLASHNING O'ZBEKISTONDAGI QONUNY ASOSLARI**

Rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof-muhitga, shu jumladan suv muhitiga bo'ladigan ta'sirlarini baholash uchun baholash o'tkazilishi lozim bo'lgan hududda amal qiluvchi qonuniy va institutsional asoslar mavjud bo'lishi lozimdir. O'zbekiston Respublikasi sharoitida atrof-muhitiga bo'ladigan ta'sirlarini baholash uchun quyidagi qonuniy va me'yoriy hujjatlar qonuniy asos bo'lib xizmat qiladi:

O'zbekiston Respublikasi qonunlar

*1. "Tabiatni muxofaza qilish to'g'risida" gi qonun. 9 dekabr 1992 yil*

*Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muxofaza qilishning huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy asoslari yoritilgan. U fuqarolarni qulay muhitda yashash huquqini kafolatlash uchun xizmat qiladi.*

1. *"Suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonun. 6 may 1993 yil Suv resurslari va ulardan foydalanish tartibi, suv resurslarini muhofaza qilish, suv ob'ektlari ahvolini yaxshilash, suvdan foydalanuvchilarning suvga oid munosabatlardagi huquqlarini himoyalash kabi masalalar yoritilgan*

2. *"Ekologik ekspertiza" to'g'risidagi qonun 25 may 2000 yil Amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan faoliyatning atrof muhitga ta'sirini baholashning zaruriyati va asoslarini ifodalangan*

### **Me'yoriy xujjatlar**

1. *RD.118.0027719.5-91. - Suv ob'ektiga chiqit suvlar tarkibida tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yilgan me'yori loyihasini ishlab chiqish va tayyorlash tartibi*

*Chiqit suvlar tarkibida suv ob'ektiga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yiladigan me'yorini ishlab chiqish va tayyorlashni umumiy tartibini o'rnatgan*

2. *RD.118.0027714.24-93 - OVOS - Rejalashtirilgan faoliyatni atrof muhitga ta'sirini baholash tartibi to'g'risida yo'riqnoma*

*Atrof muhitga ta'sirlarni baholashni qarorlarni tayyorlash va qabul qilish tizimidagi axamiyatini, AMBTB tamoyillari, jamoatchilik muxokamasini o'tkazish tartibi, tomonlar, burch va majburiyatlari, loyiha xujjatlarini ishlab chiqishda AMBTBni o'tkazish, AMBTBni tayyorlash tartiblari*

3. *RD.118.0027714.52-95 - OVOS- Atrof muhitga bo'ladigan antropogen ta'sirlarni baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma*

*Atrof muhitga bo'ladigan antropogen ta'sirlarni baholashni o'tkazishni umumiy tartibini o'rnatgan*

4. *RD.118.0027714.58-97 - Xalk xo'jaligi ob'ektlari va komplekslarini qurish loyihalari va texnik iqtisodiy asosnomalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish tartibi*

*Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazishning umumiy tartibini o'rnatgan*

5. *RD.118.0027714.58-97 - "Davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida"*

*Davlat ekologik ekspertisasi tamoyillari va o'tkazish tartibi, tomonlar burch va ma'suliyatini belgilab bergan*

6. *O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologik ekspertiza to'g'risidagi nizom. Vazirlar Maxkamasining 2001 yil 31 dekabrda 491-sonli qarori*

*"Ekologik ekspertiza to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi qonunini ro'yobga chikarish xamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan*

*normativ-xukukiy bazani rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutgan.*

7. OND-86. Metodika rascheta kontsentratsiy b atmosferom vozduxe vrednix-vehestv, soderjahixsya v vibrosax predpriyatiy. L.: Gidrometeoizdat. 1987.
8. Sbornik metodik po raschetu vibrosov v atmosferu zagryaznyayuhix, vehestv razlichnimi proizvodstvami. L.: Gidrometerizdat. 1986.
9. Sbornik zakonodatelnix, normativnix i metodicheskix dokumentov dlya ekspertizi vozduxooxrannix meropriyatiy. L.: Gidrometeoizdat. 1986.
10. Metodicheskie ukazaniya po raschetu valovix vibrosov vrednix vehestv v atmosferu predpriyatiyami Ministerstva stroitelstva SSSR. Chast 1-chast 6 (asfaltobetonnie zavodi, zavodi po'proizvodstvu jelezobetona, derevoobrabativayuhie predpriyatiya, remontno-mexanicheskie zavodi, avtotransportnie predpriyatiya). M.: Ministerstvo stroitelstva SSSR. 1984.
11. Metodika opredeleniya valovix vibrosov vrednix vehestv v atmosferu osnovnim texnologicheskim oborudovaniem predpriyatiy avtomobilnoy promishlennosti. M.: Giproatoprom. 1986.
12. Metodicheskie rekomendatsii po gigienicheskoy otsenke stepeni opasnosti zagryazneniya pochvi dlya zdorovya naseleniya. Tashkent: NII sanitari, gigieni i professionalnix zabolevaniy MZ RUz, 1994.
13. Vremennye metodicheskie ukazaniya po kontrolyu zagryazneniya pochv. M.: Moskovskoe otdelenie Gidrometeoizdata. 1983.
14. Metodicheskie ukazaniya po primeneniya -pravil oxrani poverxnostnix vod ot zagryazneniy stochnimi vodami. Moskva-Xarkov: Minvodxoz, Minzdrav, Minribxoz, Gosstroy SSSR. 1982.
15. Oxrana prirodi. Poryadok vidachi razresheniy na skladirovanie (zaxoronenie otxodov). RD 118.022719.1-91.
16. Poryadok vidachi razresheniy dlya predostavleniya neдр dlya geologicheskogo izucheniya. RD 118.0027714.2-92.
17. Poryadok razrabotki i oformleniya proekta norm predelno dopustimix sbrosov zagryaznyayuhix vehestv, sbrasivaemix so stochnimi vodami v vodniy ob'ekt. RD 118.0027719.5-91.
18. Oxrana prirodi. Poryadok soglasovaniya i vidachi razresheniy na spetsialnoe vodopolzovanie. RD 118.0027714.6-92.
19. Oxrana prirodi. Atmosfera, metodika raschetnogo opredeleniya vibrosov benz(a)pirena v atmosferu ot kotlov teplovix elektrostantsiy promishlennix i otopitelnix kotelnix. RD 118.0027714.11-94.
20. Oxrana prirodi. Provedenie inspektorskogo kontrolya za soblyudeniem trebovaniy po oxrane prirodi pri transportirovke, xranenii i primenenii pestitsidov i mineralnix udobreniy. RD 118.0027714.12-92.



21. Oxrana prirodi. Poryadok provedeniya ekspertizi proektov predelno dopustimix vibrosov. RD 118.0027714.14-92.
22. Oxrana prirodi. Poryadok vedeniya slejeniya za izmeneniyami, proisxodyahimi v pokritix lesom toy ili inoy rastitelnostyu plohad yax. Instruktsiya. Ukazatel. RD 118.0027714.20-92.
23. Oxrana prirodi. Poryadok provedeniya gosudarstvennogo ekologicheskogo kontrolya na ob'ektax razmeheniya tverdix bitovix otxodov naselennix punktov Respubliki Uzbekistan. RD 118.0027714.25-93.
24. " Poryadok oxrani redkix i naxodyahixsya pod ugrozoy ischeznoveniya vidov dikorastuhix rasteniy v Respublike Uzbekistan. RD 118.0027714.26-93.
25. Oxrana prirodi. Termini i opredeleniya v stroitelstve. RD 118.0027714.27-93.
26. Oxrana prirodi. Poryadok provedeniya gosudarstvennogo ekologicheskogo kontrolya (inspektsii) na ob'ektax razmeheniya toksichnix promishlennix otxodov predpriyatiy Respubliki Uzbekistan. RD 118.0027714.31-94. v
27. Poryadok vidachi razresheniy na vibros zagryaznyayuhix vehestv v atmosferu. RD 118.0027714.32-94.
28. Otsenka i klassifikatsiya kollektorno-drenajnix vod na oroshenie selskoxozyaystvennix kultur i promivanie zasolennix zemel RUz. RD 118.0027714.34-94.
29. Oxrana prirodi. Atmosfera. Poryadok inventarizatsii istochnikov zagryazneniya atmosfernogo vozduxa. Instruktsiya. RD 118.0027714.35-94.
30. Oxrana prirodi. Atmosfera. Metodika raschetnogo opredeleniya vibrosov vrednix vehestv ot kotlov teplovix elektrostantsiy i kotelnix. RD 118.0027714.38-94.
31. Oxrana prirodi. Atmosfera. Metodicheskie ukazaniya po razrabotke svodnix proektov normativov predelno dopustimix vibrosov. RD 118.0027714.39-94.
32. Poryadok razrabotki i osnovnie trebovaniya k soderjaniyu rekomendatsiy po ispolzovaniyu stochnix vod na oroshenie selxozkultur. RD 118.0027714.41-94.
33. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Rekomendatsii po snijeniyu vodopotrebleniya i sokraheniyu sbrosa stochnix vod predpriyatiyami xlopchatobumajnoy, trikotajnoy i shelkovoy otrasley legkoy promishlennosti. RD 118.0027714.44-95.

34. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Obhie trebovaniya k normirovaniyu teplovogo zagryazneniya stochnix vod. RD 118.0027714.46-95.
35. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Instruktsiya po opredeleniyu uherba,' nanosimogo narodnomu xozyaystvu zagryazneniem podzemnix vod. RD 118.0027714.47-95.
36. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Razrabotka texnicheskix resheniy po oxrane vodnix ob'ektov ot sbrosov v nix biogennix elementov. RD 118.0027714.48-95. .
37. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Viyavlenie prichin protsessov biologicheskoy ochistki stochnix vod i razrabotka meropriyatiy po ix ustraneniyu. RD 118.0027714.49-95.
38. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Metodicheskie ukazaniya po provedeniyu gosudarstvennogo kontrolya za vodooxrannoy obstanovkoy na jivot novodcheskix kompleksax. RD 118.0027714.50-95.
39. Oxrana prirodi. Pochvi. Vremennie metodicheskie ukazaniya po normirovaniyu pestitsidov v pochve po fitotoksicheskomu pokazatelyu. RD .118.0027714.51-95.
40. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Metodika normirovaniya teplovogo zagryazneniya vod i opredelenie platejey za teplovoe zafyaznenie vodnix ob'ektov. RD 118.0027714.57-96.
41. Oxrana prirodi. Pochvi. Metodicheskie ukazaniya po organizatsii i osuhestvleniyu gosudarstvennogo kontrolya za ispolzovaniem i oxranoy zemel organami Goskomprirodi Respubliki Uzbekistan. RD 118.0027714.59-97,
42. Oxrana prirodi. Obrahenie s otxodami proizvodstva i potrebleniya. Termini i opredeleniya. RD 118.0027714.60-97.
43. Oxrana prirodi. Obrahenie s otxodami proizvodstva i potrebleniya. Instruktsiya. Organizatsiya i poryadok provedeniya inventarizatsii ot xodov proizvodstva i potrebleniya na predpriyatiyax. RD 118.0027714.61-97.
44. Oxrana prirodi. Obrahenie s otxodami proizvodstva i potrebleniya. Metodicheskie ukazaniya po opredeleniyu limita razmeheniya otxodov proizvodstva. RD 118.0027714.62-97.
45. Oxrana prirodi. Obrahenie s otxodami proizvodstva i potrebleniya. Organizatsiya i poryadok razrabotki proekta limita razmeheniya otxodov proizvodstva i potrebleniya. RD 118.0027714.63-97.
46. Oxrana prirodi. Pochvi. Metodicheskoe rukovodstvo po otboru pochvennix obraztsov i podgotovke ix k analizu na zagryaznenie neftyu i nefteproduktami. RD 118.3897485.14-92.
47. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Instruktsiya po otboru gidrobiologicheskix prob na soorujeniyax bioochistki. RD 118.3897485.25-94.

48. Oxrana prirodi. Gidrosfera. Poryadok i organizatsiya rabot po spasheniyu molodi promislovix rib iz ostatochnix vodoemov. Instruksiya. RD 118.3897485.27-95.
49. SanPiN № 0006-93. Sanitarnie normi i pravila po oxrane atmosfernogo vozduxa naselennix mest Respubliki Uzbekistan.
50. SanPiN № 0015-94. Perechen predelno dopustimix kontsentratsiy (PDK) zagryaznyayuhix veshstv v atmosfernom vozduxe naselennix mest na territorii Respubliki Uzbekistan.
51. SanPiN №. 0025-94. Gigienicheskie i sanitarno-texnicheskie trebovaniya k istochnikam sentralizovannogo xozyaystvenno-pitevogo vodosnabjeniya naseleniya. Pravila vibora.
52. SanPiN № 0029-94. Sanitarnie normi i pravila radiatsionnoy bezopasnosti.
53. SanPiN № 0055- 96, Predelno dopustimie kontsentratsii (PDK) i orientirovochno dopustimie kontsentratsii (SDK) ekzogenix vrednix veshstv v pochve.
54. SanPiN № 0056-96. Sanitarnie pravila i normi oxrani poverxnostnix vod ot zagryazneniya.
55. SanPiN № 0057-96. Sanitarnie pravila i normi otsenki stepeni zagryazneniya pochv raznix tipov zemlepolzovaniya.
56. SanPiN № 0088-99. Sanitarnie trebovaniya k razrabotke i soglasovaniyu proektov predelno dopustimix sbrosov (PDS) veshstv, postupayuhix v vodyanie ob'ekti so stochnimi vodami.
- O'z DSt 950: 2000. Voda pitevaya. Gigienicheskie trebovaniya i kontrol za kachestvom.
57. Metodicheskie rekomendatsii po gigienicheskoy otsenke stepeni opasnosti zagryazneniya pochvi dlya zdorovya naseleniya. Tashkent. Minzdrav RUz. 1994.
58. Metodicheskie ukazaniya po ekologo-gigienicheskomu rayonirovaniyu territoriy Respubliki Uzbekistan no stepeni opasnosti dlya zdorovya naseleniya. Tashkent. Minzdrav RUz. 1995.
59. KMK 2.01.08-96. Zahita ot shuma.
60. Sanitarnie normi i pravila zahiti naseleniya ot vozdeystviya ..elektricheskogo polya, sozdavaemogo vozdushnimi liniyami elektroperedachi peremennogo toka promishlennoy chastoti. M.: Minzdrav SSSR. 1984.
61. GOST 12.1.002-84. SSBT. Elektricheskie polya promishlennoy chastoti. Dopustimie urovni napryajennosti i trebovaniya k provedeniyu kontrolya. M.: Izd-vo standartov.
62. Rukovodstvo po razrabotke kart shuma ulichno-dorojnoj seti gorodov. M.: NIISF Gosstroya SSSR. 1980.

63. Rekomendatsii po ustanovleniyu zon ogranicheniya jiloy zastroyki v okrestnostyax aeroportov grajdanskoy aviatsii iz usloviy shuma. M.: NIISF Gosstroya SSSR. 1987.
64. SanPiN № 1304-75. Sanitarnie normi dopustimix vibratsiy v jilix domax.
65. Vremennie sanitarnie normi pravila zahiti naseleniya ot vozdeystviya elektromagnitnix poley, sozdavaemix radiotexnicheskimi ob'ektami № 2963-84.
66. Metodicheskie ukazaniya po opredeleniyu urovney elektromagnitnogo polya i gigenicheskix trebovaniy k razmeheniyu OVCh, UVCh i SVCh radiotexnicheskix sredstv grajdanskoy aviatsii № 2284-81.

### **Xalqaro bitimlar**

1. Konventsiya o transgranichnom zagryaznenii vozduxa na bolshie rasstoyaniya. Jeneva. 1979.
2. Venskaya konventsiya ob ohrane ozonovogo sloya. Vena. 1985.
3. Konventsiya ob otsenke vozdeystviya na okrujayuhuyu sredu v transgranichnom kontekste OON. Ekonomicheskij i sotsialniy sovet. Evropeyskaya ekonomicheskaya komissiya. Finlyandiya. 1991.
4. Konventsiya po ohrane i ispolzovaniyu transgranichnix vodotokov i mejdunarodnix ozer. Xelsinki. 1992.
5. Konventsiya o transgranichnom vozdeystvii promishlennix avariya. Xelsinki. 1992.
6. Bazelskaya konventsiya o kontrole za transgranichnoy perezovkoy opasnix otxodov i ix udaleniem. Bazel. 1989.
7. Protokol o sokrahenii vibrosov seri ili ix transgranichnix potokov po krayney mere na 30 protsentov k Konveksii o transgranichnom zagryaznenii vozduxa na bolshie rasstoyaniya. Xelsinki. 1985.
8. Protokol o kontrole za vibrosami okislov azota ili ix transgranichnimi potokami k Konveksii o transgranichnom zagryaznenii vozduxa na bolshie rasstoyaniya. Sofiya. 1988.
9. Protokol o dalneysheem sokrahenii vibrosov seri k Konveksii o transgranichnom zagryaznenii vozduxa na bolshie rasstoyaniya. Oslo. 1994.
10. Monrealskiy protokol po vehestvam, razrushayuhim ozonoviy sloy. Monreal. 1987.
11. Londonskaya popravka k Monrealskomu protokolu po vehestvam, razrushayuhim ozonoviy sloy. London. 1990.

## **12-BOB. QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI FAOLIYATI NATIJASIDA ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRLAR VA ULARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI**

Butun insoniyat va har bir odam – tabiatning bir bo'lagidir. Inson boshqa jonzorlar kabi o'zi uchun kerakli narsalarning hammasini tabiatdan oladi, lekin ulardan farqli ravishda ushbu tabiatni asrab-avaylash faoliyatini amalga oshira olish qobiliyatiga ega.

Avvalari inson tabiatdan olayotgan narsalarning miqdori, ushbu narsalarning tabiatdagi miqdoriga nisbatan kam edi va tabiat bu olinayotgan narsalar o'rnini to'ldirishga ulgurar edi. Tabiat inson faoliyati ta'sirida yetkazilayotgan zararlarni qoplab, jarohatlarni davolashga ulgurardi. Xozirgi zamonamizga kelib esa axvol keskin o'zgardi.

Tabiiy resurslarni ist'emol qilish tezligi ularning qayta tiklanishi tezligidan ortib ketdi. Tabiatga ko'rsatilayotgan ta'sirlar kuchayib, ulardan kelayotgan jarohatlarni tabiat davolay olmay qoldi.

Natijada sayyoramizda bir qator muammolar yuzaga kela boshladi. Yer shari umumiy haroratining ko'tarilishi, atmosfera ozon qatlamining yemirilishi, chuchuk suv zahiralarning keskin kamayishi, katta-katta territoriyalarning cho'lga aylanishi kabi hodisalar ushbu muammolarning asosiylaridir. Bu kabi salbiy oqibatlarini yuzaga kelishida qishloq xo'jaligi, shu jumladan sug'oriladigan dehqonchilik ham o'z hissasini qo'shib kelmoqda.

Sug'oriladigan dehqonchilikning sayyoramizda rivojlanib kelayotgan ekologik tanglikka qo'shayotgan xissasi ayniqsa:

- *toza suv resurslarining kamayishi;*
- *suv resurslarining ifloslanishi;*
- *sayyoramiz iqlimining isishiga qo'shayotgan ulushida yaqqol ko'zga tashlanmoqda.*

Hozirgi kunda mintaqamizning Orolbo'yi hududida yuzaga kelgan ekologik tanglikning asosiy sababchisi sifatida oxirgi 40 yil davomida bir xil ekin (paxta) yetishtirishga yo'naltirilgan sug'oriladigan dehqonchilikning jadallik bilan rivojlantirilishi ko'rsatilmoqda. haqiqatan ham o'tgan asrning oxirgi o'n yilliklarida sug'oriladigan dehqonchilik uchun yangi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi, ularni sug'orish uchun daryo suvlarini o'ylamasdan olaverish, o'z tarkibida dalalarda hisobsiz ishlatilgan har xil o'g'itlar va kimyoviy zaharli moddalarning qoldiqlarini jamlagan chiqit va zovur-zahkash suvlarni daryolarga tashlash Orolbo'yi hududida misli ko'rilmagan ekologik tang vaziyatning yuzaga kelishiga sababchi bo'ldi. Oqibatda xozirgi kunga kelib ushbu hududda toza ichimlik suvi u yoqda tursin, hatto ekinlarni sug'orish uchun chuchuk suvni topish ham muammo bo'lib qoldi. Dengiz yaqinidagi behisob ko'llarning qurishi ular atrofidagi to'qaylarning yo'q bo'lib ketishi va u yerlarda yashovchi turli hayvon va jonivorlarning qirilib ketishiga olib keldi. Yerlik aholi uchun asosiy manba xisoblangan baliqchilik inqirozga yuz tutdi. Aholi orasida turli xil kasalliklar ko'paya boshladi. qisqa qilib aytganda, yerlik aholi turmush kechirishi uchun chidab bo'lmas vaziyat yuzaga keldi.

**Ma'lumotnoma:** oxirgi 43 yilda:

- Orol dengizing sathi 25 metr pastga tushdi.
- dengizdagi suv mikdorining 10-12 % i qoldi.

- dengiz suvidagi tuzlarning miqdori 100 g/l ga etdi.

Mintaqamizning boshqa hududlarida ham bunday holatlar sodir bo'lishining oldini olish uchun tevarak -atrofimizdagi muhit to'g'risida ham qayg'urishimiz kerakligini hozirgi kunda yaqqol anglab turibmiz..

qishloq xo'jalik rayonlarida olib boriladigan suv xo'jaligi faoliyati asosan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini suv bilan ta'minlash tadbirlaridan iboratdir. Bunda faoliyat sug'orishga xizmat qiluvchi ob'ektlarni tashkil etish va ularni ishlatish, hamda qishloq xo'jalik maydonlari meliorativ holatini yaxshilashga xizmat qiluvchi meliorativ tizimlarni qurish va ularni ishlatishdan iboratdir. Bu faoliyat davomida atrof-muhitga unda ma'lum o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi ta'sirlar ko'rsatiladi.

Suv xo'jaligi faoliyati natijasida atrof-muhitda quyidagi o'ziga xos oqibatlar yuzaga kelishi mumkin:

№	Ta'sir turlari
1.	Daryo suvlari oqimi miqdorini kamayishi
2.	Daryo suvlari oqimi tezligini pasayishi yoki ortishi
3.	Daryo suvlari oqimi rejimini (gidrografini) o'zgarishi
4.	Daryo suvlari sifatini o'zgarishi
5.	Suv inshootlari qurilgan joylarda landshaftni o'zgarishi
6.	Suv omborlari joylashgan hududda mikroiklim namligini ortishi
7.	Baliqlar harakatiga to'siqlar (to'g'onlar) qo'yilishi
8.	Kanallar o'tkazilishi bois landshaft o'zgarishi
9.	Kanal o'zanining yuvilishi
10.	Sug'oriladigan yerlarda tuproq eroziyasi
11.	Tuproqdagi oziq moddalarni yuvilishi
12.	Kanallarni loyqaga to'lishi
13.	Kanallarni o't bosishi
14.	Kanallardagi filtratsiya tufayli grunt suvlari sathini ko'tarilishi
15.	Botqoqliklarni hosil bo'lishi
16.	Tuproq sho'rlanishi
17.	Tuproq sho'rini yuvish uchun katta miqdordagi suvlarni ishlatilishi
18.	Zovurlar qurilishi bois landshaft o'zgarishlari
19.	Sho'rlangan zovur suvlari miqdorini ko'payishi
20.	Zovurlarni o't bosishi
21.	Yovvoyi hayvonlarni ko'chib yurishiga to'siqlarni yuzaga kelishi
22.	Tarixiy va madaniy yodgorliklarni buzilishi yoki ko'chirilishi
23.	Muqaddas qadamjoylarni buzilishi yoki ko'chirilishi
24.	Tabiiy o'simliklarni yo'q qilinishi
25.	Odamlarni ko'chirilishi
26.	Suv tufayli yuzaga keladigan (bezugak kabi) kasalliklarni ko'payishi
27.	Yer osti suvlarini haddan tashqari ko'p olinishi tufayli yer osti suvlari sathini pasayishi
28.	Yer osti suvlari pasayishi oqibatida to'qaylarni qurib qolishi
29.	To'qaylarda yashovchi hayvonlarni qirilishi
30.	Odamlar ov qiladigan hududlarni qisqarishi

31.	Cho'lga aylanish jarayonlarini kuchayishi
32.	Suv resurslarini qayta taqsimlanishi bois is'temolchilar orasida kelishmovchiliklarni yuzaga kelishi

Suv xo'jaligi faoliyati natijasida atrof-muhitda yuz beradigan o'ziga xos o'zgarishlar atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar xarakteri va ko'lamini baholash uchun zarur bo'ladigan birlamchi ma'lumotlarni to'plash uchun amalga oshiriladigan harakatlar mazmunini belgilab beradi.

Birlamchi ma'lumotlar odatda davlat statistik ma'lumotlari hamda ekologoik monitoring bilan shug'ullanuvchi turli muassasa va tashkilotlar manbalaridan olinadi.

Suv xo'jaligi faoliyatining atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarini baholash dasturi suv xo'jaligi ob'ekti (gidrouzel, damba, to'g'on i boshqalar), qurilish olib boriladigan mintaqa, suv resurslari manbaining o'ziga xos ekologik jihatlarini inobatga olgan holda tuziladi.

Dasturga asosiy suv xo'jaligi ob'ektilari bilan birga ikkilamchi suv inshootlarini atrof-muhitga ta'sirlarini baholash ham kiritilishi lozim.

Asosiy suv xo'jaligi ob'ektlariga to'g'onlar, suvni damlovchi devorlar, dambalar, qirg'oq mustahkamlovchi, suv tashlovchi, suv qabul qiluvchi va suv oluvchi inshootlar, suv yetkazib beruvchi va suvni chiqarib yuboruvchi kanallar va ulardagi inshootlar (dyuker, akveduk, ko'prik va boshqalar), tunellar, quvurlar, gidroelektrostantsiyalar, nasos stantsiyalari, issiqlik elektrostantsiyalarining suv inshootlari, baliq o'tkazuvchi inshootlar kabi ob'ektlar kiradi.

Ikkilamchi suv inshootlariga o'rmon muhofazasi qurilmalari, bo'luvchi devorlar, qayiq to'xtaydigan joylar va baliqlarni himoyalovchi inshootlar kiradi.

Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning dasturi quyidagi olti bosqichni o'z ichiga olishi lozim:

1. Umumiy qoidalarni aniqlash, ta'sirlarni baholashning maqsad va vazifalarini shakllantirish;
2. Suv xo'jaligi ob'ektining holatini ifodalovchi birlamchi ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish;
3. Ta'sirlarni bashoratlash va baholovchi tahlilning qo'yilgan vazifalarni bajarishga imkoniyat yaratadigan samarali uslublarini tanlash;
4. Ta'sirlarni baholashning barcha bo'limlari bo'yicha suv xo'jaligi ob'ekti injenerlik echimlariga mos keluvchi matematik modellashtirish va ekspert baholashlariga asoslangan bashoratlarini ishlab chiqish;
5. Ta'sirlarni bashoratlash natijalarini tahlil qilish, ularni sinflashtirish va me'yorlashtirish materiallari bilan taqqoslash;
6. Suv xo'jaligi faoliyatini atrof-muhitga ta'sirlari to'g'risida xulosalar chiqarish, faoliyatning muqobil variantlari va rejalashtirilayotgan faoliyatga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar qabul qilish.

Suv xo'jaligi faoliyatini atrof-muhitga ta'sirlarini baholash ta'sir ostiga tushgan suv ob'ektlari gidroekotizimlarining tarkiblari turlicha bo'lganligi bois ularning o'ziga xos jihatlarini albatta e'tiborga olishi shart.

O'zbekiston sharoitida daryo ekotizimlarining aksariyati daryo oqimlarini gidrouzellar to'g'onlari yordamida qayta rostdashning ta'siri ostiga tushgan. Oqibatda

qariyb barcha daryolarning tabiiy gidrologik, gidroximik va gidrobiologik rejimlari ma'lum darajada o'zgargan.

Ko'p hollarda to'g'onlar suv omborlari hosil qilishga xizmat qiladi. Suv omborining gidrologik, gidroximik va gidrobiologik rejimlari esa daryonikidan tubdan farq qiladi.

Shuning uchun to'g'onlarning daryolarga ta'sirini baholash uchun daryoning to'g'ondan yuqoridagi va to'g'ondan pastdagi gidrologik, gidroximik va gidrobiologik rejimlari to'g'risida ma'lumotlar to'planishi lozim.

Sug'orish kanallari va zovur tarmoqlarini o'z ichiga oluvchi sug'oriladigan maydonlardagi suv xo'jaligi faoliyati natijasida esa daryo va suv omborlariga boshqacharoq ta'sirlar ko'rsatiladi.

Ushbu ta'sirlarni baholashda asosiy e'tiborni suv ob'ektlaridan olinadigan va ularga kelib tushadigan suvlar miqdori bilan birga ushbu suvlarning sifatiga, jumladan ular tarkibidagi tuzlar, biogen elementlar va agroximikatlar miqdoriga qaratish lozim.

Ta'sir etuvchi moddalarning ko'pligi va turli tumanligi bois ularning barchasini baholash o'ziga xos qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ko'p hollarda ifloslantirish manbasi bilan genetik aloqasi bo'lgan representativ ko'rsatkichlarga ajratib olib o'rganiladi.

Ushbu representativ ko'rsatkichlar sirasiga odatda suv mineralizatsiyasi, asosiy ionlar, erigan kislorod, kislorodga bo'lgan biokimyoviy ehtiyoj, biogen elementlar (azot va fosfor birikmalari), fenollar, pestitsidlar kiritiladi.

Suvda erigan kislorod, kislorodga bo'lgan biokimyoviy ehtiyoj va biogen elementlar miqdorlari suv ekotizimlarini barqarorligini ta'minlovchi eng muhim parametrlar sanalishadi.

Ixtiofauna tarkibi, ovlanadigan baliqlar populyatsiyasi holati, suv havzasining baliq mahsuldorligi va tutilayotgan baliqlar suv ekotizimlari barqarorligining muhim ko'rsatkichlardan hisoblanishadi. Chunki ular havza suvi sifatining indikatorlari bo'lib xizmat qilishi va ular asosida suv ekotizimining umumiy holati to'g'risida xulosa chiqarish mumkin. Shuning uchun suv xo'jaligi faoliyatini atrof-muhitga ta'sirlarini baholashda ushbu faoliyatni suv havzasi baliq mahsuldorligiga ta'sirini aniqlash muhim ahamiyatga ega.

Suv havzasining baliq mahsuldorligi odatda havzadagi fitoplanktonning birlamchi mahsuldorligi yoki zooplankton miqdori orqali aniqlanadi.

Suv xo'jaligi faoliyatini suv ekotizimlariga ko'rsatadigan ta'sirlarini bashoratlashda analoglar, ekspert baholashi, ekstrapolyatsiya va matematik modellashtirish metodlari keng qo'llanadi. Jarayonlarni ifodalovchi matematik metodlarni o'z tarkibida mujassamlaganligi bois analoglar metodi bashoratlashda eng ko'p qo'llaniladi.

Bashoratlashda asosiy e'tibor suv sifatining asosiy ko'rsatkichlari va ular bilan bog'liq ekologik holatga qaratilishi lozim. Issiq iqlimli O'zbekiston sharoitida suv havzalari suvi sifatining eng asosiy ko'rsatkichi – suv mineralizatsiyasi hisoblanadi. havza suvi mineralizatsiyasi o'zgarishlarini bashoratlash havzaning o'ziga xosligidan (muttasil oquvchi – daryolar, kanallar va nisbatan turg'un – suv omborlari, ko'llar) kelib chiqib turlicha usullarda bajariladi.



Suv omborlari suvi mineralizatsiyasi o'zgarishlarini bashoratlash hisoblarini quyidagi tenglama asosida amalga oshirish mumkin:

$$M_o = M_a + \left( M_k \frac{V_k}{V_k - V_{\delta} + V_{\ddot{e}}} - M_a \right) \cdot B \quad (1)$$

$$\text{ub yerda: } B = 1 - \left( \frac{V_a}{V_o} \right)^{1 + \frac{V_u}{V_o} - \frac{V_{\delta}}{V_o}} \quad (2)$$

$V_o, M_o$  – ko'rilayotgan muddat oxirida suvning miqdori va mineralizatsiyasi,  $m^3$  va  $mg/l$ ;

$V_a, M_a$  – ko'rilayotgan muddat avvalida suvning miqdori va mineralizatsiyasi,  $m^3$  va  $mg/l$ ;

$V_k, M_k$  – ko'rilayotgan muddat ichida kelgan suv miqdori va mineralizatsiyasi,  $m^3$  va  $mg/l$ ;

$V_u$  – ko'rilayotgan muddat ichida ishlatishga olingan suvning miqdori,  $m^3$ ;

$V_{\delta}$  – ko'rilayotgan muddat ichida bug'lanigan suv miqdori,  $m^3$ ;

$V_{\ddot{e}}$  – ko'rilayotgan muddat ichida suv yuzasiga yoqqan yog'inlar miqdori,  $m^3$ .

Daryo suvlari mineralizatsiyasi, ular tarkibidagi asosiy ionlar miqdori o'zgarishlarini bashoratlash odatda balans tenglamalari orqali amalga oshiriladi:

$$Q_o M_o = \Sigma Q_m M_m + \Sigma Q_{\ddot{e}} M_{\ddot{e}} + \Sigma Q_{\text{zK}} M_{\text{zK}} + \Sigma Q_{\ddot{e}H} M_{\ddot{e}H} + \Sigma Q_k M_k - \Sigma Q_c M_c + \Sigma Q_{\text{zCK}} M_{\text{zCK}} + \Sigma Q_{\delta} \quad (3)$$

bu erda:  $Q_o M_o$  – ko'rilayotgan stvordagi suv sarfi va mineralizatsiyasi bashorat ko'rsatkichlari;

$\Sigma Q_m M_m$  – tranzit suv sarfiva uning mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_{\ddot{e}} M_{\ddot{e}}$  – atmosfera yog'inlari va ularning mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_{\text{zK}} M_{\text{zK}}$  – oqib keluvchi grunt suvlari sarfi va mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_{\ddot{e}H} M_{\ddot{e}H}$  – yonboshdan keluvchi suvlar sarflari va ularning mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_k M_k$  – qaytuvchi suvlar sarfi va mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_c M_c$  – sug'orishga berilayotgan suvlar sarfi va mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_{\text{zCK}} M_{\text{zCK}}$  – oqib ketuvchi grunt suvlari sarfi va mineralizatsiyasi;

$\Sigma Q_{\delta}$  – bug'lanishga sarflanayotgan suvlarning umumiy miqdori.

Sug'oriladigan maydonlardan suv havzalariga chiqarib yuboriladigan ozuqa moddalar (o'g'itlar) miqdorini suvda erigan mineral azot va umumiy fosfor miqdori asosida bashoratlash mumkin. Dalalarga berilayotgan o'g'itlarning umumiy miqdori aniq bo'lgan hollarda dalalardan suv havzalariga chiqarib yuboriladigan azot birikmalari miqdorini (SANIIRI ma'lumotlariga asosan) 7,0 % ga, fosfor birikmalari miqdorini 0,6 % ga teng deb hisoblash mumkin.

Dalalarga ishlov berish uchun qo'llaniladigan pestitsidlarning suv muhitiga ta'sirlarini bashoratlashda ularning (fosfororganik va xlororganik pestitsidlarni) suv havzalariga chiqarib tashlanadigan miqdorini (yana SANIIRI ma'lumotlariga asosan) umumiy ishlatilgan miqdorning 1,0 % ga teng deb qabul qilish mumkin.

O'rganilayotgan hududdan suv havzalariga chiqariladigan tuzlar miqdorini hisoblash murakkab ish bo'lib, u asosan hududning drenaj moduli, drenaj tizimlari bilan ta'minlanganligi va boshqa ko'plab omillarga bog'liqdir.

Suv havzalariga qayta tashlanadigan suvlar taxminiy miqdorini quyidagi teglik asosida aniqlash mumkin:

$$V_g = V_o - (E_{mp} - E_{mp}^1) - S_{zp.mp} - V_1 - V_2 \quad (4)$$

ub yerda:  $V_o = Q_{\bar{op}} - (E - E_1) - S_{zp}$ ;

ub yerda:  $V_o$ —sug'orishga berilayotgan suvlar miqdori, mln.m<sup>3</sup>;

$E$ —sug'oriladigan maydondan bug'lanayotgan suvlar miqdori, mln.m<sup>3</sup>;

$E_1$ —o'sha maydondan sug'orish bo'lmagan vaqtda bug'langan suvlar miqdori, mln.m<sup>3</sup>;

$S_{zp}$ —sug'oriladigan maydon grunt suvlari zahirasini o'zgarishi, mln.m<sup>3</sup>;

$S_{zp.mp}$ —tranzit zona (sug'oriladigan maydon va suv ob'ekti oralig'idagi hudud) grunt suvlari zahirasini o'zgarishi, mln.m<sup>3</sup>;

$E_{mp}^1$ —tranzit zonadan sug'orish bo'lmagan vaqtda bug'langan suvlar miqdori, mln.m<sup>3</sup>;


$V_1$ —suv balansi hududi doirasida qaytarilmas ishlatishga (qayta ishlatish, boshqa havzalarga tashlash) olingan suv miqdori, mln.m<sup>3</sup>;

$V_2$ —suv balansi hududidan tashqariga chiqarib yuborilgan suv miqdori, mln.m<sup>3</sup>.

Tog'oldi va tog' sug'oriladigan hududlardan olib chiqiladigan tuzlar miqdorini SANIIRI ma'lumotlariga asosan aniqlash mumkin. Bunda sug'oriladigan maydonlardan hosil bo'layotgan zovur tashlama suvlarning o'rtacha sho'rliigi sug'orishga ishlatilayotgan suvning sho'rligidan 20 % gacha yuqori deb qabul qilinadi.

Tekislik sug'oriladigan hududlardan olib chiqiladigan tuzlar miqdorini analoglar usulida aniqlash mumkin. Bunda xuddi shu hududga aynan o'xshaydigan hududning ma'lum ko'rsatkichlari hisob-kitoblar uchun asos qilib olinadi.

Sug'oriladigan maydonlardan hosil bo'ladigan zovur-tashlama suvlar asosan tabiiy suv manbalari muhitiga ta'sir ko'rsatadi va ushbu ta'sir sxemada ko'rsatilganday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin:



*Suv xo'jaligi faoliyati natijasida suv muhitiga ko'rsatiladigan ta'sirlarining salbiy oqibatlari*

Suv xo'jaligi faoliyatini atrof-muhitga ta'sirlarini baholash antropogen omillarni suv ekotizimlarida yuzaga keladigan o'zgarishlar ko'lami va ahamiyatligini aniqlash, o'zgarishlar oqibatlarini bashorat qilish, ta'sirlarni muqobil variantlarini ko'rib chiqish, ta'sirlarni kamaytirishning eng samarali yo'llarini tanlash kabi amallarni o'z ichiga olishi lozim. Eng asosiysi esa suv xo'jaligi faoliyatini atrof-muhitga ta'sirlarini baholash suv xo'jaligi faoliyati yuzasidan qabul qilinadigan qarorlarni to'g'ri bo'lishiga xizmat qilishi lozim.

### **12.1. Sug'oriladigan dehqonchilik tomonidan atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlar**

Keling, olib borayotgan faoliyatimiz to'g'risida, ya'ni qishloq xo'jaligining, xususan sug'oriladigan dehqonchilikning atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'sirlari to'g'risida ozgina mulohaza qilib ko'raylik. Sug'oriladigan dehqonchilik faoliyati olib borilayotgan qurg'oqchilik (arid) hududlar atrof-muhitida quyidagi salbiy ko'rinishlar yuz berishi kuzatilgan:

- Tabiiy muhitda o'sgan turli xil o'simliklar o'rnini qishloq xo'jalik yerlarida yetishtiriladigan faqatgina bir necha tur o'simlik egallaydi. Natijada o'simliklar tabiiy xilma-xilligi yo'qoladi, tabiiy muvozanat buzilib hayvonot dunyosi ham tubdan o'zgaradi. Dalalarda doimo bir necha turdagi ekinlarga ekinlarga ekilishi natijasida o'simliklar tabiiy barqarorligi yo'qoladi. Oqibatda hosilni yo'qotish xavfi ortib, o'simliklarni himoya qilish uchun kimyoviy ashyolar qo'llash zaruriyati tug'iladi.

- Kimyoviy moddalarni ko'plab qo'llash tuproq va atrof-muhitdagi foydali hasharotlarni qirilib ketishiga ham olib keladi. Natijada ushbu kimyoviy moddalarga immunitet hosil qilgan zarali hasharot va begona o'tlar yanada ko'payib ularga qarshi kurash yangi kimyoviy moddalarni talab qiladi. Kimyoviy moddalarni ko'plab qo'llash hududda yashayotgan aholi sog'ligiga ham salbiy ta'sir qiladi.

Ma'lumotnoma: Ba'zi agroximikatlarning inson salomatligiga ta'siri

Guruh	Turi	Zararlanadigan organ	Kasallik turi
O'g'it	Azotli o'g'itlar	Qon, oshqozon Ovqat xazm qilish organlari	Metagemoglobin Rak, Toksikoz
Pestitsid	Xlordan	Turli organlar	Toksikoz, rak
	Geksaxlorbenzol	Turli organlar	Toksikoz, rak
	Lindan	Turli organlar	Markaziy nerv tizimi, nafas olish organlari

- Dalalar landshafti va ulardagi mikroiklim sharoitlari o'zgaradi. Tuproq hosil bo'lish jarayonlari boradigan sharoitlar o'zgaradi. Tuproq chirindi qatlamining yuvilishi kuchayib borishi va uning sho'rlanganligini ortishi mineral va zaharli moddalar yuvilishining kuchayishiga hamda tuproqning suv va tuz erroziyasiga uchrashiga olib keladi.
- Sug'orishga tabiiy toza suv ishlatilishiga qaramay yer usti va yer osti suvlari ma'lum miqdorda mineral o'g'itlar qoldiqlari va agroximikatlari bilan ifloslanadi, ularning sho'rlanganligi ortib boradi.
- Sug'oriladigan maydonlar va ularga qo'shni bo'lgan hududlarda yer osti suvlari sathining ko'tarilishi yerlarning sho'rlanishiga, ko'plab yillar davomida yetishtirilib kelinayotgan ko'p yillik o'simliklarni (daraxtlarni, masalan uzumlarni) qurib qolishiga, mavjud inshootlarni yemirilishiga olib keladi.
- Sug'oriladigan dehqonchilik rivojlanayotgan havzalarda daryo suvlari rejimini sug'orish maksadlari uchun suv omborlari yordamida rostlanishi, suvni sug'orishga ko'plab olinishi daryo va qo'llar gidrograflarining o'zgarishiga va daryo havzasidagi, ayniqsa uning quyi oqimidagi ekologik vaziyatning o'zgarishiga olib keladi.
- Sug'oriladigan maydonlardan hosil bo'layotgan ifloslik darajasi birmuncha yuqori bo'lgan tashlama va zovur-zahkash suvlarining daryo va ko'llarga tashlanishi, ushbu havzalar tabiiy toza suv resurslarini kamayishiga sabab bo'ladi.
- Sug'orish uchun zovur-zahkash suvlari hamda chorvachilik, maishiy va sanoat chiqit suvlarini nazoratsiz ishlatilishi tuproq strukturasi va unda borayotgan tuproq hosil bo'lish jarayonlarini o'zgarishiga, dehqonchilik hamda chorvachilik mahsulotlari sifatining buzilishiga olib keladi.

Bunda tuproq va tabiiy suvlarning ifloslanishi darajasini ortishi ham kuzatiladi.

- Yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida yerlar sho'rlanganlik darajasining ortishi yerlarni tashlandiq holatga kelishiga, ya'ni hududlarning cho'lga aylanishi xodisasining kuchayishiga sabab bo'ladi

## **12.2. Sug'oriladigan dehqonchilik tomonidan atrof muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlarni oldini olishning asosiy yo'llari**

Biz istiqomat qiladigan qurg'oqchilik (arid) zonalar ekotizimi har qanday o'zgartirishga juda ta'sirchan hisoblanadi. Shuning uchun atrof muhitga ko'rsatilayotgan ta'sirlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini doimo esda tutgan holda amaliy faoliyatda atrof-muhit to'g'risida qayg'urish va faoliyat olib borilayotgan hududga bir butun ekologik tizim sifatida yondoshuv lozim.

qishloq xo'jalik faoliyati, xususan dehqonchilik bilan shug'ullanar ekanmiz bunda quyidagilarga e'tibor qaratishimizga to'g'ri keladi.

### **Ekinlarga ishlov berishda:**

- Kimyoviy o'g'itlar va zaharli ximikatlarni ishlatishni iloji boricha kamaytirish;

Dehqonchilik olib borilayotgan maydonlarga kimyoviy o'g'it berishdan oldin ularda yetishtiriladigan ekinning ushbu o'g'itga bo'lgan ehtiyoji va dala tuprog'ining o'ziga xosliklariga e'tibor qaratilishi lozim. Ko'p hollarda kimyoviy o'g'it o'rniga tabiiy go'ngdan foydalanish maqsadga muvofiq sanaladi.

O'simliklarni zararkunadalardan himoya qilish uchun ishlatiladigan kimyoviy zaharlarning tanlab ta'sir qiladiganlari va tabiatda tez yo'qolib ketadiganlarini ishlatish, eng yaxshisi esa ular o'rniga biologik vositalarni qo'llash ko'proq foyda beradi.

- Sug'oriladigan yerlarda o'simliklar turlari xilma-xilligini oshirish;
- Dalalar atrofida daraxtlar ekish, o'simliklar zararkunandalarining tabiiy dushmanlari bo'lgan qushlarni ko'payishiga yordam beradi.
- Ekinlarni almashlab ekish;
- Ekinlarni almashlab ekish tuproq strukturasi yaxshilabgina qolmay, balki o'simliklar kasalliklari va zararkunandalarga qarshi kurashda eng samarador vositalardan biri hisoblanadi.
- O'simliklarni zararkunandalardan himoya qilishda biologik vositalarni qo'llash;
- Zararkunandalarga qarshi kurashda biologik vositalarni qo'llash atrof-muhitni zaharli ximikatlardan bartaraf qiladi va foydali hashoratlarni saqlab qolish imkoniyatini yaratadi.

### **Sug'orish ishlarida:**

- qishloq xo'jaligida, xususan sug'orishga ishlatilayotgan suv miqdorini iloji boricha kamaytirish;

- Einlarga berilayotgan suv miqdorining faqat 50 %igina o'simlikka sarf bo'lishini e'tibordan qochirmagan tarzda, iloji boricha o'simlikning biologik ehtiyoji uchun kerak bo'ladigan suvni berishga harakat qilinmog'i lozim. Bunda dalamizdagi tuproq xususiyatlarini, ya'ni uning namlik sig'imi va sug'orishdan oldingi namlik darajasini yaxshi bilmog'imiz kerak.
- Sug'orishning mukammal va suv tejovchi texnikasi va texnologiyasini qo'llash;
- Bu ish ekin ekishdan oldin dalani tayyolashdan boshlanishi lozim. Dala yaxshilab tekislangan bo'lsa, suvni halqoblanib qolib behudaga yerga singib ketishidan, yerlarni botqoqlanishdan asrabgina qolmay, balki sug'orish usulini yuqori samaradorligini ham ta'minlaydi. Sug'orishning kalta egatli, tomchilatib, yomg'irilatib sug'orish va boshqa usullari suvni tejashda ko'p samara beradi.
- Sug'orishga ishlatiladigan suvlar sifatini nazorat qilish;
- Sug'orishga ishlatiladigan suvning sifatini nazorat qilish tuproq, suv va etishtirilayotgan ekin hosilining ifloslanishini oldini olibgina qolmay, balki sug'orish suvi me'yorlarini to'g'ri aniqlash imkonini ham beradi. Chunki sug'orishga tarkibida tuz miqdori yuqori bo'lgan suvni ishlatilganda o'simlikka ko'proq suv berishga to'g'ri keladi.
- Kanal (ariq)larda va dalalarda suv isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik hisobiga sug'orish suvi me'yorlarini kamaytirish;
- Sug'orishga berilayotgan suvlarning ko'p qismi kanal va ariqlardan yerga singib ketayotgani hozirgi kunda ilm-fan tomonidan tasdiqlangan hodisadir. Ushbu isrofgarchilikni kamaytirish uchun lotok ariqlar o'rnatilgan hududlarda lotok tizimlarini buzilishiga, lotoklarni behudaga teshib suv olinishiga va lotoklarning ulangan joylaridan suvni oqib ketishiga yo'l qo'ymaslik lozim.
- Tuzli yer osti suvlari sathini 1,5-2,0 m dan past chuqurlikda bo'lishiga erishish;
- Tuzli yer osti suvlari sathining ko'tarilib ketishi yerlarning sho'rlanishiga olib keladi. Sug'orish me'yorini to'g'ri belgilash, sug'orish suvini tuproqqa behudaga singib ketishiga yo'l qo'ymaslik va yaxshi drenaj tizimi yer osti suvlari sathini 1,5-2,0 m dan past chuqurlikda ushlab turish uchun zamin yaratadi va yerlar sho'rlanishi xavfini kamaytiradi.
- Agroximikatlar va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslangan zahkash suvlarini tabiiy suv havzalariga tashlanishini kamaytirish (yoki butunlay to'xtatish);
- Agroximikatlar va boshqa zaharli moddalar bilan ifloslangan zahkash suvlarini tabiiy suv havzalariga tashlash, ushbu suv havzalarini ifloslantirib, ular ekotizimini izdan chiqishiga olib keladi. Zahkash suvlarini hosil bo'lishiga imkon qadar yo'l qo'ymaslik va ushbu suvlarni qaytadan sug'orishga ishlatish tabiiy suv havzalarini zahkash suvlari bilan ifloslanishi oldini olishning eng maqbul yo'llaridan biri sanaladi.

O'g'it va agroximikatlar saqlanadigan omborlarning yaxshi jihozlanganligi ham ulardan yog'in-sochinlar ta'sirida zaharli moddalar yuvilishini va ularning oqib tabiiy suv havzalariga borib tushishi oldini oladi.

Zahkash suvlarni ifloslanish darajasini kamaytirishning muhim yo'llaridan biri parchalanishi qiyin bo'lgan pestitsidlar o'rniga tanlab ta'sir qiluvchi va tabiiy muhitda tez parchalanib ketadigan pestitsidlarni qo'llash, yana biri esa o'g'it berish texnologiyalarini takomillashtirish, ya'ni o'g'itlarni sug'orish suvi bilan birga beradigan (fertiirrigatsiya) texnologiyalarni qo'llash xisoblanadi.

- Zahkash suvlari sifati nazoratini yo'lga qo'yish va ularni tozalash

Zovur-zahkash suvlari sifatini nazorat qilish ochiq suv havzalarini dalalarda qo'llanilgan agroximikatlar qoldiqlari bilan ifloslanishdan saqlaydi. Ushbu suvlarni tozalashda tabiiy o'simliklarning (qamish, giatsint va boshqalar) tozalash qobiliyatiga asoslangan bioplato va bioinjenerlik qurilmalari kabi biologik usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

- Chorvachilik fermalarida to'plangan go'nglarni yomg'ir va boshqa suvlar bilan yuvilib suv havzalariga tushishini oldini olish uchun, go'ng saqlanadigan joylar yaxshilab jihozlanishi lozim.
- Sug'orishga ishlatilayotgan suvlar miqdori suv resurslaridan foydalanishning havza sxemasi bilan kelishilgan bo'lishi kerak;
- Sug'orishga suv olar ekanmiz, bizdan boshqa suv ist'emolchilarining suvga bo'lgan xuquqini ham hurmat qilishimiz va daryodagi suv resurslari to'g'risida ham qayg'urishimiz kerak.
- Tevarak-atrof maydonlardagi yer osti suvlari sathining ko'tarilib ketishidan himoya qilish
- Dalalarda yer osti suvlari sathi ko'tarilib ketishi tevarak atrof maydonlarga ham ta'sir qilib, u yerlardagi inshootlarning yemirilishiga, daraxtlarni qurib qolishiga sabab bo'lishini unutmagan holda kanal va ariqlardan suv sizilishini kamaytirishimiz, mukamal zahkash tizimlarini qo'llashimiz kerak.
- Agrolandshaftlar (qishloq xo'jalik yerlari) estetikasini yaxshilash

Gidrotexnik va qishloq xo'jalik inshootlarining atrof – muhit bilan estetik hamohangligini (mos tushishini) ta'minlash har tomonlama foydalidir. Zovur tarmoqlarini tozalaganda hosil bo'ladigan tepaliklarni tekislash loyqalarni yuvilib qayta yana zahkashga tushishidan va zahkashlarni qayta ifloslanishdan saqlaydi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonuni, 9 dekabr 1992 yil.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza" to'g'risidagi qonuni, 25 may 2000 yil.
3. RD.118.0027719.5-91 - Suv ob'ektiga oqava suvlar tarkibida tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarni yo'l qo'yilgan me'yor loyihasini ishlab chiqish va tayyorlash tartibi.
4. RD.118.0027714.24-93 - OVOS - Rejalashtirilgan faoliyatni atrof-muhitga ta'sirini baholash tartibi to'g'risida yo'riqnoma.
5. RD.118.0027714.52-95 - OVOS- Atrof-muhitga bo'ladigan antropogen ta'sirlarni baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida yo'riqnoma.
6. RD.118.0027714.58-97 - Xalq xo'jaligi ob'ektlari va komplekslarini qurish loyihalari va texnik iqtisodiy asosnomalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish tartibi.
7. "Davlat ekologik ekspertizasini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Davlat ekologik ekspertiza to'g'risidagi nizom. Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrda 491-sonli qarori.
8. Sul'tonov P.S. Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi asoslari. Toshkent 2004.
9. Otaboev Sh., Nishonov A. "Inson va biosfera". Toshkent, "O'qituvchi", 1995.
10. Конвенция об оценке воздействия на окружающую среду в трансграничном контексте. // ООН. - Женева: 1991
11. Справочное пособие по экологической оценке в 3-х томах. - Вашингтон: Всемирный банк, 1991.
12. UNEP, 1996. United Nations Environment Program. Environmental Impact Assessment Training Resource Manual. Nairobi: UNEP.
13. Черп О.М., Виниченко В.Н и другие. Экологическая оценка и экологическая экспертиза. Москва, Эколайн, 2000 (<http://www.ecoline.ru/mc/eiabook>).
14. Букс И.И., Фомин С.А. Экологическая экспертиза и оценка воздействия на окружающую среду. Москва, Издательство МНЭПУ, 1998.
15. Lee N. Environmental Assessment in Countries in Transition, 1998.
16. Wood C., 1995. Environmental Impact Assessment. A Comparative Review. Harlow: Longman.
17. РД 118.0027714.24 - "Инструкция о порядке проведения оценки воздействия на окружающую среду (ОВОС) при выборе площадки, разработке технико-экономических обоснований и проектов строительства (рекомендации расширения и технического



первооружения ) хозяйственных объектов и комплексов“. Ташкент, Госкомприроды, 1993, с.142.

18. РД 118.0027714.52—. “Инструкция о порядке проведения оценки антропогенного воздействия на окружающую среду (ОАВОС)”. Госкомприроды, Ташкент, 1995, с.19.

19. Николаенко В.А., Маматов С.А. – Особенности и методология гидроэкологической оценки воздействия водохозяйственной деятельности на состояние гидроэкосистем бассейна Аральского моря. Водные ресурсы ЦА. Алматы, 2002, с.358-364.

20. Николаенко В.А. Методы оценки качества воды в водных объектах, их совершенствование и система контроля. Экологическая устойчивость и передовые подходы к управлению водными ресурсами в бассейне Аральского моря. Алматы, 2003, с.319-331.

21. Стандарт качества воды «Вода питьевая. Гигиенические требования и контроль за качеством воды» O<sup>1</sup>z DSt 950:2000, Ташкент, 2000.

22. Atrof-muhitni muhofaza qilish milliy harakat rejasi. Tabiatni muhofaza qilish davlat komiteti, Toshkent, 1998.82 б.

23. Mamatov S.A., Shirokova Y. Water quality of lakes and reservoirs of Uzbekistan. The 3rd International Symposium for strategies on Toxic Algae Control in lakes and reservoirs for establishment of international network. 2003. Wuxi, China, p. 502-507.

24. Методические основы оценки и регламентирования антропогенного влияния на качество поверхностных вод. / Под ред. А.В. Караушева. – Л.: Гидрометеиздат, 1987. – 286 с.

# MUNDARIJA

## Kirish

Inson faoliyatining ekotizimlarga ta'sirining tavsifi.....

I–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning asosiy tushuncha va tamoyillari.....

- 1.1. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash tushunchasi mohiyati
- 1.2. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning tamoyillari
- 1.3. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning predmeti
- 1.4. AMBTB jarayoni ishtirokchilari

II–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning asosiy elementlari .....

- 2.1. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining umumiy sxemasi
- 2.2. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining asosiy elementlari

III–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonining boshlang'ich bosqichlari .....

- 3.1 AMBTBni o'tkazishning zaruriyati to'g'risida qaror
- 3.2 AMBTB o'tkazish lozim bo'lgan faoliyatlarni tanlash
- 3.3. AMBTB vazifalarini aniqlash
- 3.4. Dastlabki baholashda ahamiyatli ta'sirlarni aniqlash usullari

IV–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni ko'lamini bashorat qilish va baxolash .....

- 4.1 Atrof-muhitni tavsiflash
- 4.2 Ta'sirlarning xarakteri, kattaligi va ahamiyatliligi
- 4.3 Ta'sirlar ahamiyatliligini baholash

V–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida maslahatlar va jamoatchilik ishtiroki .....

- 5.1 Jamoatchilik ishtirokining mohiyati
- 5.2 Jamoatchilikning atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayoni bosqichlaridagi ishtiroki
- 5.3 Jamoatchilik ishtiroki dasturi
- 5.4 Jamoatchilik ishtirokini tashkil etishning tamoyillari

VI–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida mo'ljallanayotgan faoliyatning muqobil variantlarini ko'rib chiqish.....

6.1 Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash jarayonida mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarini ko'rib chiqishning o'ziga xosliklari

6.2 Mo'ljallanayotgan faoliyat muqobil variantlarining mumkin bo'lgan turlari

VII–bob Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashni hujjatlashtirish va hujjatlar sifatini nazorat qilish .....

7.1. AMBTB jarayonida hujjatlashtirishning o'rni

7.2. AMBTBning funktsiyalari

7.3. AMBTB ning tuzilishi va mazmuni

7.4. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning sifati nazorati

VIII–bob Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash va qarorlar qabul qilish .....

8.1. qarorlar qabul qilish tizimida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning o'rni

8.2. AMBTBda qarorlar qabul qilish

IX–bob. Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning loyihadan keyingi bosqichlari.....

9.1. AMBTBni loyihadan keyingi bosqichlarining umumiy tamoyillari

9.2. Loyihadan keyingi bosqichlarda atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholash

X–bob Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholash.....

10.1 Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni strategik baholashning predmeti va maqsadlari, strategik rejalashtirish

10.2 AMBTB tamoyillari va ularni tashkil qilish

XI–bob Atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlarni baholashning O'zbekistondagi qonuniy asoslari .....

XII–bob qishloq va suv xo'jaligi faoliyati natijasida atrof-muhitga bo'ladigan ta'sirlar va ularni kamaytirish yo'llari....

12.1. Sug'oriladigan dehqonchilik tomonidan atrof-muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlar

12.2. Sug'oriladigan dehqonchilik tomonidan atrof muhitga ko'rsatiladigan ta'sirlarni oldini olishning asosiy yo'llari

Adabiyotlar .....

**Mamatov S. A., Salohiddinov A. T., Yusupov G'. U., Xolmirzaeva M.I.**

## **ATROF MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI BAHOLASH**

**(O'quv qo'llanma)**

**Muxarrir:**

**M. Nurtoeva**

---

Bosishga ruxsat etildi «\_\_»\_\_\_\_ 2010 y., qog'oz o'lchami 60x84, 1/16,  
hajmi \_\_ b.t. \_\_\_\_ nusha, buyurtma №\_\_\_\_\_  
TIMI bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent 700000, Qori-Niyoziy ko'chasi 39 uy.